

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

A. QOSIMOV, G. DAVLATOVA

**Xo‘jalik
faoliyati tahlili**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan
o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan

Toshkent – 2007

A. Qosimov, G. Davlatova. Xo'jalik faoliyati tahlili. T., «Aloqachi», 2007, 144 bet.

Ushbu qo'llanma «Iqtisodiyot», «Menejment» tarmoqlar yo'nalishi talabalari uchun hamda korxonalarining iqtisodiy bo'limlari xodimlariga mo'ljallangan.

Bu o'quv qo'llanmada korxonada xo'jalik faoliyati tahlilining umumlashgan tushunchadagi predmeti, uslubi, maqsadi, vazifasi va korxonada iqtisodiy tahlilni tashkil qilishning nazariy asoslari yoritilgan. O'quv qo'llanmaning tahliliy qismida texnika-iqtisodiy ko'rsatkichlar yaxlit uslubda yoritilgan. Yaxlit uslubda tahlil qilishdan maqsad korxonada faoliyatida kamchilik, xato, zaxira va yutuqlarni aniqlashdir. Mahsulotning hajmiga, tannarxiga, foyda miqdoriga ta'sir qiladigan omillarni aniqlashga katta ahamiyat berilgan. Har bir bob tahlil qilingandan so'ng talabalarning bilim darajasini tekshirish maqsadida savollar keltirilgan.

Taqrizchilar: iqtisod fanlari nomzodlari, doventlar – Z.J. Jumaqulov;
I.N. Ismanov; G'.M. Hojiyevlar.

KIRISH

Fan-texnika taraqqiyoti sharoitida ishlab chiqarish xo'jalik faoliyati tobora ko'p qirrali va murakkab bo'lib bormoqda.

Ishlab chiqaruvchi xo'jalik faoliyatiga kerakli darajada ta'sir ko'rsatish va uni jamiyat ehtiyojini to'laroq qondirishga to'g'ri yo'naltirish va foydani imkon boricha maksimalashtirish uchun korxonada faoliyatini sistemali ravishda tahlil qilish, yutuq va kamchiliklarini ochib tashlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi ichki imkoniyatlarini aniqlash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yo'naltirish kerak bo'ladi.

Korxonaning xo'jalik faoliyati tahlili dasturdan noo'rin chetlanishlarni oldini olish va ularni yo'qotish bo'yicha tadbirlarni o'tkazish, ishchi jamoaning ijobiy ish natijalarini aniqlash va o'rganish imkonini beradi.

Malakali iqtisodchi, moliyachi, hisobchi, auditor va iqtisodiy yo'nalishlardagi mutaxassislar iqtisodiy hisobotni zamonaviy usullarini hamda sistemali, kompleksli, mikroiqtisodiy tahlilni yaxshi egallashi zarur.

Tahlilning texnika-texnologiyasini yaxshi o'zlashtirish tufayli mutaxassislar bozor holatiga tez va oson moslashadi, to'g'ri qaror va javoblarga ega bo'ladi. Iqtisodiy tahlil asoslarini puxta egallash natijasida qarorlar to'g'ri qabul qilinadi va to'g'ri maslahat berish imkoniyati tug'iladi.

1- BOB

XO‘JALIK FAOLIYATI TAHLILI PREDMETI, AHAMIYATI VA VAZIFALARI

1.1. Xo‘jalik faoliyati tahlili tushunchasi, mazmuni, roii va vazifasi

Tabiat hodisalarini va jamiyat hayotini tahlilsiz mutlaqo o‘rganib bo‘lmaydi. Hodisa va predmetlarni ichki mohiyatini o‘rganish maqsadida tahlil ularni tarkibiy qismlariga bo‘lish vazifasini bajaradi. Bamisoli odam tanasi a‘zolarini o‘rganish uchun uni ichki tuzilishini, organlarini, ularni bajaradigan vazifalarini va ishlash prinsiplarini bilish lozim. Xuddi shunday, bu holat iqtisodiy hodisa va jarayonlarga ham tegishli. Masalan, foydaning mohiyatini tushunish uning shakllantiradigan manbalarini va uning miqdoriga ta‘sir qiladigan omillarini bilishni talab qiladi. Bu manba va omillar qancha chuqur va har tomonlama tahlil qilinsa, moliyaviy natijalarni shunchalik samarali boshqarish imkoniyati tug‘iladi.

Lekin sintezsiz o‘rganilayotgan predmet yoki hodisalar tarkibiy qismlari o‘rtasidagi aloqa va bog‘lanishlarni aniqlamay turib, xo‘jalik tahlili hodisa va predmetlar haqida to‘la tasavvur bera olmaydi. Avtomobilni o‘rganishda uni detal va qismlarini bilibgina qolmay, balki ular o‘rtasidagi bog‘lanish va bir-biriga ta‘sirini ham bilish shart. Foydani tahlil qilish jarayonida unga ta‘sir qiladigan omillarni o‘rtasidagi bog‘lanish va bir-biriga miqdoriy ta‘sirini ham aniqlash lozim. Faqat tahlil va sintez birgaligidagina predmet va hodisalarning ilmiy o‘rganilishi ta‘minlanadi.

Iqtisodiy tahlil – bu iqtisodiy hodisa va jarayonlar mohiyatini anglash, tarkibiy qismlarga bo‘lish, ularni ko‘p qirrali aloqa va bog‘liqligini o‘rganishdir.

Iqtisodiy tahlil quyidagi turlarga bo‘linadi:

Makroiqtisodiy tahlil – bu iqtisodiy hodisa va jarayonlarni jahon, milliy iqtisodiyot va uning alohida tarmoqlari darajasida o‘rganadi.

Mikroiqtisodiy tahlil – esa shu hodisa va jarayonlarni alohida xo‘jalik subyektlarida o‘rganadi va bu turdagi tahlil xo‘jalik faoliyati tahlili deb yuritiladi.

Xo'jalik faoliyati tahlili fanining paydo bo'lishi har qanday yangi bilimlarni paydo bo'lishiga sabab bo'lgan obyektiv sharoit va talablarning vujudga kelishidir.

Birinchi navbatda, kompleks va tizimli tahlil bo'lgan amaliy talabning vujudga kelishi sababi, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, ishlab chiqarish munosabatlarining takomillashuvi, ishlab chiqarish ko'lamining kengayishidir. Bunday sharoitda rivojlanmagan oddiy korxonalarda qo'llanilib kelingan tahliliy hisob-kitoblar, faraz qilishlarni qo'llanilishi rivojlangan katta korxonalar sharoitiga yetarli bo'lmay qolishi, korxonalar faoliyatini har tomonlama qamrab olgan kompleks iqtisodiy tahlilsiz murakkab iqtisodiy jarayonlarni boshqarish va maqbul qarorlar qabul qilish mushkul bo'lib qoladi.

Ikkinchidan, xo'jalik faoliyati tahlili fanining paydo bo'lishi iqtisodiy fanlarni rivojlanishi bilan bog'liq, har qanday fan rivojlangan sari uning tarmoqlarga bo'linishiga olib keladi. Ijtimoiy fanlarni rivojlanishi natijasida xo'jalik faoliyatini tahlili fani shakllana bordi.

Bu fanning rivojlanish bosqichlarida uni vazifasini buxgalteriya balansi, hisobi, moliya va statistika fanlari bajarib kelgan. Lekin ishlab chiqarishning rivojlanishi jarayonida xo'jalik faoliyati tahlilini mustaqil fan bo'lib ajralib chiqishiga sabab bo'ldi.

Xo'jalik faoliyatining tahlilsiz murakkab iqtisodiy jarayonni boshqarish hamda maqbul qaror qabul qilish juda mushkuldir.

Xo'jalik faoliyati tahlilining mazmuni korxonani boshqarish tizimidagi roli, funksiyasidan kelib chiqadi va boshqaruv jarayonidan markaziy o'rinni egallaydi.

Ishlab chiqarishni boshqarish metodlarini takomillashtirish hozirgi vaqtda eng dolzarb va birlamchi masaladir. Bu masalani yechilishi natijasida ishlab chiqarish samaradorligi va xalq ho'jaligini o'sish darajasi ta'minlanadi.

Korxonani boshqarish jarayoni bu ishlab chiqarish bo'linmalari o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlash va uni bir me'yorda ishlashiga zamin yaratadi. Korxonani boshqarish tizimi boshqarishga taalluqli bo'lgan hamma funksiyalarni bajaradi: rejalashtirish, hisob olib borish, nazorat qilish, iqtisodiy tahlil, qaror qabul qilish va boshqaruv obyektini zaruriyatiga qarab o'zgartirishdir.

Korxonalar iste'molchilar talabidan, tovar bozorining holatidan va korxonaning imkoniyatidan kelib chiqqan holda o'z faoliyatini rejalashtiradi. Rejada bir yilga, kvartal, oylar, dekadalar va kunlar bo'yicha, sex, uchastkalar miqyosida mahsulot hajmi, assortimenti, ishlab chiqarishga yetarli darajada xomashyo materiallar, asbob-uskunalar, ishlovchilar soni,

ish haqi fondi, mahsulot tannarxi, foyda va rentabellik hamda tashkiliy-texnikaviy tadbirlar rejasi tuziladi.

Shunday qilib, korxonada faoliyatini rejalashtirish uni boshqarishning asosiy bosqichi bo'lib xizmat qiladi. Rejalashtirish – bu xalq xo'jaligini boshqarish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

Ishlab chiqarishni boshqarish uchun korxonada holatini yaxshi bilish lozim, ya'ni ishlab chiqarish jarayoni haqida to'la ma'lumot bilan ta'minlangan bo'lish kerak. Shuning uchun ham boshqarish funksiyasiga kiradigan yana bir funktsiya hisob olib borishdir.

Bu funktsiya bilan chambarchas bog'langan yana bir boshqaruv funktsiyasi birlamchi ma'lumotlarga asoslangan holda ishlab chiqarish jarayonini nazorat qiladi. Ko'p hollarda bu ikkala funktsiya birlashtirilib hisob va nazorat funktsiyasi deb ataladi.

Jamlangan birlamchi ma'lumotlarni qayta ishlash zarur, va holanki, korxonada ahvoli va undagi ishning holatini bilish yetarli emas; aniq va tezkor boshqarish uchun ishlab chiqarish jarayonini, rivojlantirish tendensiyasining borishini bilish zarur. Buning uchun jamlangan ma'lumotlarni asl mazmuniga yetishish va tushunish tahlil yordamida amalga oshiriladi. Iqtisodiy tahlil o'tkazish tufayli birlamchi ma'lumotlar ikkilamchi ma'lumotlarga aylantiriladi, korxonada texnika-iqtisodiy ko'rsatkichlari hisob-kitob qilinadi, korxonada faoliyatiga obyektiv baho beriladi va ularga ta'sir qilgan omillar hamda kamchiliklar aniqlanadi. Xulosa shuki, iqtisodiy tahlil mazmuni iqtisodiy ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonidir.


Iqtisodiy tahlil – bu ilmiy asosda qaror qabul qilishni ta'minlaydigan boshqaruv funktsiyasidir.

Xo'jalik faoliyati tahlili natijasiga asoslanib ilmiy asoslangan qaror qabul qilinadi va u tufayli boshqaruv sistemasi boshqariladigan obyekt faoliyatini zaruriyatga qarab o'zgartiradi. Qabul qilingan qaror boshqaruv jarayonining asosidir. Yangi xo'jalik yili uchun ishlab chiqilgan reja bu korxonada kelajakda rivojlanishini ta'minlaydigan qarordir. Xo'jalik faoliyati tahlili jarayonida korxonada qabul qilingan rejani asoslanganligi tekshiriladi, rejaga kiritilmagan imkoniyatlar aniqlanadi. Iqtisodiy tahlil rejalashtirish darajasini talab darajasiga ko'taradi, uni yana ham ilmiy asoslanganlik darajasini ta'minlaydi. Shuning uchun ham rejalashtirish bilan iqtisodiy tahlil o'rtasidagi bog'liqlik aniq ko'rinib turadi. Rejalashtirish korxonada faoliyati tahlili bilan boshlanadi va yakunlanadi.

Korxonaning boshqaruv tizimi boshqarish jarayonini quyidagi bosqichlarda amalga oshirdi: ma'lumotlarni jamlash, ularni tahlil qilish, qaror qabul qilish.

Quyidagi birinchi chizmada korxonani boshqarishda foydalaniladigan, uni tashqi muhit bilan o‘zaro va teskari aloqani ta’minlaydigan funktsional tizimi keltirilgan.

Korxonani boshqarish jarayoni



1- chizma.

Hozirgi zamonaviy sharoitda boshqarishda iqtisodiy uslubni birinchi o‘ringa qo‘yilishi xo‘jalik hisobidagi korxonaga va uning uex, uchastkalarini asosiy prinsipi bo‘lib, bunda xo‘jalik faoliyatini tahlili muhim ahamiyatga ega. Faqat iqtisodiy tahlil tufayli kollektiv faoliyatini iqtisodiy natijalari obyektiv baholanib korxonani har bir bo‘limi, har bir ishchini umumiy natijadagi ulushi aniqlanadi. Iqtisodiy tahlilsiz xo‘jalik mexanizmini to‘g‘rilash va uni takomillashtirishni amalga oshirib bo‘lmaydi.

Iqtisodiy tahlil ishlab chiqarish imkoniyatlarini aniqlab qolmay, balki moddiy resurslardan oqilona tejamkorlik bilan foydalanishni rag‘batlantiradi, shu bilan birga ishlovchilarni tejamkorlik ruhida tarbiyalaydi.

Iqtisodiy tahlilni boshqaruv tizimini takomillashtirish yana ham ta'sirchanligini oshirish uchun har bir ishchi-xizmatchi uning usullaridan izchillik bilan foydalanishni bilishi kerak.

Ishchi va xizmatchilarni korxonani boshqarishga jalb qilish uchun ularning iqtisodiy bilimini yana ham oshirish lozim.

Shunday qilib, xo'jalik faoliyati tahlili korxonani boshqaruv tizimida asosiy element bo'lgan holda, ichki xo'jalik imkoniyatlarini aniqlashda ta'sirchan vosita va ilmiy asoslangan rejani ishlab chiqishga hamda boshqaruv qarorini qabul qilishga asos bo'ladi.

1.2. Tahlilning asosiy yo'nalishlari va turlari

Xo'jalik faoliyatini chuqur va har tomonlama o'rganishda iqtisodiy tahlil, umumiqtisodiy, texnik-iqtisodiy, funksional-qiyamat, moliyaviy, boshqaruv, ijtimoiy-iqtisodiy turlarga bo'linadi.

Korxonada xo'jalik faoliyati iqtisodiy tahlilining yuqorida keltirilgan turlari bir xil vazifa va o'rganish predmetiga ega, ammo xo'jalik jarayonlarining xususiyatlari, alohida obyekt va chuqur o'rganilishiga qarab farq qiladi.

Umumiqtisodiy tahlil – korxonada miqyosida amalga oshirilib, korxonaning umumiy natijalarini baholash uning asosiy vazifasidir. Umumiqtisodiy tahlilni o'tkazish uchun ma'lumot manbalari, metodik hisobotlar hisoblanadi. Barcha korxonalar uchun umumiqtisodiy tahlilning dasturi va uslublari umumiydir.

Texnik-iqtisodiy tahlil – korxonada faoliyatining ichki xo'jalik imkoniyatlarini korxonada miqyosidagina emas, hattoki korxonada bo'limlari: sex, uchastka, brigada va ish joyini ham o'rganadi. Texnik-iqtisodiy tahlilning obyekt aniq bir turdagi mahsulot qismlari, detallari va alohida texnologik operatsiyalar bo'lishi mumkin.

Texnik - iqtisodiy tahlil tarmoq xarakteriga ega. Tahlilning mazkur yo'nalishida axborotlar ko'lami umumiqtisodiy tahlildagiga nisbatan kengroq. Birlamchi axborot manbai bo'lib nafaqat davriy hisobot ma'lumotlari, balki tezkor uchyot, ishlab chiqarish va boshqa xo'jalik bo'limlarining joriy hisobotlari, xornometrik kuzatish ma'lumotlari, fotografiya natijalari, fotosuratlarining o'zi va boshqa nazorat kuzatuv ma'lumotlari xizmat qiladi.

Funksional-qiyamat tahlili – bu tahlil qilinayotgan obyektlarni tahlil qilish vazifasini o'rganishda kompleksli va sistemali usuli bo'lib, u iste'molchilarni ijtimoiy ehtiyojlarini minimal xarajatlar bilan qondirishni tadqiq qilishga yo'naltiradi. Funksional-qiyamat tahlilining obyekt

buyumlar, texnologik jarayon, ishlab chiqarishni axborot tuzilmasini tahlil etish.

Moliyaviy tahlil – bu shunday jarayonki, xo‘jalik subyektlarini moliyaviy mexanizmlari mohiyatini ochib berishda muhim rol o‘ynaydi.

Boshqaruv tahlili – korxonaning barcha bo‘linmalarida rejalashtirish, nazorat qilish, maqbul boshqaruv qarorlarini qabul qilish, moliyaviy siyosat masalalari bo‘yicha strategiya va taktikasini ishlab chiqish, texnika, texnologiya va ishlab chiqarishni tashkil qilishni takomillashtirish maqsadida ma‘lumotlar jamlash vazifasini o‘z ichiga oladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy tahlil – ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni va xo‘jalik faoliyatining iqtisodiy natijalariga ta‘sirini o‘rganadi. Agar korxonada tahliliy ishning o‘tkazilishini to‘g‘ri tashkil qilgan bo‘lsa, tahlilning barcha yo‘nalishlari bir-birini to‘ldiradi hamda korxonaning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatini va uning samaradorligini oshirishga yo‘naltirishni ta‘minlaydi.

Korxonada xo‘jalik faoliyati tahlili oldiga qo‘yilgan vazifalarni xilmaxilligi munosabati bilan uni ko‘rinishlari ham xilma-xildir.

Tahlil o‘rganiladigan savollarning doirasiga qarab ikkita bo‘linadi:

1. To‘liq texnik-iqtisodiy tahlil korxonada xo‘jalik faoliyatining barcha turdagi tahlilini o‘z ichiga oladi va barcha xo‘jalik jarayonining o‘zaro aloqalarini, ichki va tashqi munosabatlarini o‘rganadi.

2. Tematik tahlil – ma‘lum bir doiradagi masalani chuqurlashtirilgan holda o‘rganadi. Masalan, mehnat unumdorligini o‘shirishda ishchilar malakasini va ish sharoitini o‘zgarishini, moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirishni, qo‘l mehnatini kamayishini tahlil qilish.

O‘rganilayotgan obyektga qarab: sexning ichki faoliyatini tahlili, sex tahlili, korxonada va korxonalararo tahlillarga bo‘linadi.

Bundan tashqari, tarmoq faoliyati va tarmoqlararo tahlil mavjud. Masalan, ma‘lum bir korxonaning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichini shu turdagi boshqa korxonani texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari bilan taqqoslanadi.

Qarorning xarakteriga va boshqaruv darajasiga qarab tahlil 3 turga bo‘linadi:

- a) bo‘lg‘usi natijalar tahlili;
- b) tezkor tahlil;
- d) joriy tahlil.

Yuqorida keltirilgan tahlillar vaqt bo‘yicha va ko‘rsatkichlarni tarkibiy qismlari bo‘yicha bir-biridan farq qiladi.

Bo‘lg‘usi natijalar tahlilining asosiy maqsadi korxonani rivojlanish qonuniyatiga asoslanib, istiqbol rejasini tuzishdir.

Joriy tahlil hisobot davrida rejani bajarilish jarayonini nazorat qilish va bu tahlil asosida imkoniyat, yutuqlar hamda rejani o'zgarishiga ta'sir qilgan sabablarini aniqlashdir.

Tezkor tahlil– hisobot davrida texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha rejani bajarilish jarayonini nazorat qiladi va resurslardan foydalanish bo'yicha ichki imkoniyatlarni aniqlaydi, ya'ni kamchilik va xatolarning davom etishiga chek qo'yiladi.

Ishlab chiqarish sharoitlariga ko'ra, tahliliy ishlar ikkiga bo'linadi:

1. Korxonaning ichki va tashqi sharoitini o'zgarishi asosida ba'zida zaruriyatga qarab vaqti-vaqti bilan o'tkaziladigan tahlil. Bu turdagi tahlil baholarning o'zgarishini korxonaga ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlashda texnika-texnologiyani yangilash, kengaytirish; sex, uchastkalam rekonstruksiya qilish zaruriyati tug'ilganda o'tkaziladi.

2. Qisqa davr ichida (kunlik, smenalik, dekadalik, oylik) o'tkaziladigan va sistemali takrorlanadigan tahlil.

1.3. Xo'jalik faoliyati tahlili predmeti va obyektı

Har bir fan o'z predmeti va tadqiqot obyektiga ega holda, o'ziga mos uslub bilan oldiga qo'yilgan maqsadni o'rganadi.

U yoki bu fan predmeti – bu uning boshqa fanlardan ajratib turadigan xususiyatlarini o'rganishdir.

Xo'jalik faoliyati va unda kechadigan jarayonlar ko'p fanlarni tadqiqot obyektı bo'lib hisoblanadi, ya'ni bu fanlar jumlasiga: iqtisodiy nazariya, makro va mikro iqtisodiyot, xo'jalik moliya faoliyatini boshqaruvini tashkil etish, rejalashtirish va me'yorlashtirish, statistika, buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil fanlarini kiritish mumkin.

Xo'jalik faoliyati tahlili predmeti bo'lib, iqtisodiy holatlar va jarayonlar orasidagi sabab-oqibat aloqalari hisoblanadi. Korxonalarda xo'jalik faoliyatining sabab-oqibat aloqalarini bilish, iqtisodiy holatlar va jarayonlar mohiyatini ochish hamda shu asosida erishilgan natijalarga to'g'ri baho berish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash, rejalar va boshqaruv qarorlarini asoslash imkoniyatini beradi.

Xo'jalik faoliyati tahlilining bosh uslubiy masalasi bo'lib, sabab-oqibat aloqalarini guruhlash, ma'lum tizimga solish modellashtirish, o'lchash hisoblanadi.

Korxonaga xo'jalik faoliyati obyektı sifatida, korxonaga hamda uning iqtisodiy natijalari ham bo'lishi mumkin, ya'ni bular, mahsulot ishlab chiqarish va sotish bo'yicha xo'jalik faoliyati, uning tannarxi, moddiy,

mehnat va moliyaviy resurslardan foydalanish, ishlab chiqarishning moliyaviy natijalari hamda korxonaning moliyaviy holatidir.

1.4. Xo'jalik faoliyati tahlilining boshqa fanlar bilan aloqasi

Iqtisodiy tahlil bir qator iqtisodiy va boshqa fanlar bilan chambarchas bog'liq. Bu fanlarni mukammal egallash xo'jalik faoliyati tahlilini o'tkazishda zarurdir.

Birinchi o'rinda XFTga aloqador fanlar orasida iqtisodiy qonunlarni, ularni ishlash mexanizmini o'rganuvchi va barcha iqtisodiy fanlar rivoji uchun nazariy asos yaratuvchi fan – **iqtisodiy nazariyani** alohida ajratish kerak. Tahliliy hisoblarni amalga oshirishda yuqoridagi qonunlarni e'tiborga olish zarur.

Tahlil o'z navbatida **tarmoq iqtisodiyoti** bilan ham aloqadordir. Tarmoq iqtisodiyotini, ishlab chiqarishni tashkil qilish, mehnatni tashkil qilish, me'yorlash va shu kabilarni bilmay turib, xo'jalik faoliyatini chuqur tahlil qilib bo'lmaydi. Tahlil aniq bir korxonaga yoki butun tarmoq iqtisodini yuksalishiga yordam beradi.

Iqtisodiy tahlil **korxonani rejalashtirish va boshqarish** fani bilan chambarchas bog'liqdir. Tahlilda rejaviy materiallardan keng foydalaniladi. Shuning uchun tahlil qiluvchi iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish asoslari va tahlil qilinuvchi korxonaning ishlab chiqarishni rejalash uslubini bilish zarurdir. Ayni bir paytda iqtisodiy tahlil natijalaridan keng foydalanmay turib, ilmiy asoslangan rejalashtirish va milliy iqtisodiyot hamda korxonalar boshqaruvini amalga oshirib bo'lmaydi.

Tahlilning **buxgalteriya hisobi** bilan aloqasi ikki tomonlama bog'liqlik xarakteriga ega. Bir tomondan, buxgalteriya hisobi ma'lumotlari xo'jalik faoliyati tahlilida asosiy axborot manbasi hisoblanadi. Buxgalteriya hisobi uslubini va hisobot ma'lumotlarini bilmay turib, tahlil uchun zaruriy materiallar to'plash va ularning yaxshi sifatligini tekshirish o'ta qiyindir.

Iqtisodiy tahlil korxonalarni moliyalashtirish va kreditlash bilan ham bevosita bog'liqdir. Milliy iqtisodiyotning mazkur tarmog'ini moliyalashtirish va kreditlashning joriy tajribalarini, moliyaviy va kredit organlari va tashkilotlarini o'zaro bog'lovchilarini bilmay turib mukammal xo'jalik faoliyati tahlilini amalga oshirib bo'lmaydi.

1.5. Iqtisodiy tahlilga qo'yiladigan asosiy talablar

Iqtisodiy tahlilning samaradorligi, foydaliligi, ta'sirchanligi va undan olinadigan qaytim quyidagi talabalarni bajarilishiga bog'liq:

1. Tahlilning ilmiy xarakterga ega bo'lishi, dialektik anglash nazariyasiga asoslanishi, korxonaning rivojlanishida iqtisodiy qonun va qonuniyatlar talabini e'tiborga olishi, ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanishi, ilg'or tajriba va iqtisodiy tadqiqotni yangi usullaridan foydalanishi.

2. Tahlil kompleks bo'lishi lozim, ya'ni korxonaning barcha, texnika-iqtisodiy ko'rsatkichlari, sex va uchastkalari chuqur tahlil qilinib, unga ta'sir qilgan sabablarni aniqlash.

3. Tahlil ma'lum tizimga asoslanib o'tkazilishi lozim, ya'ni har qanday o'rganilayotgan obyekt bir necha o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan mayda tizimchalardan iborat murakkab dinamik tizim deb qaralishi kerak. Har bir obyekt barcha ichki va tashqi aloqalarining, uning alohida elementlarini o'zaro bog'liqligi va tobeligini e'tiborga olgan holda o'rganish kerak.

4. Xo'jalik faoliyatini tahlili obyektiv, aniq, ishonchli va tekshirilgan axborot ma'lumotlariga asoslangan, obyektiv haqiqatni real ko'rsatuvchi bo'lishi kerak. Uning xulosalari esa aniq tahliliy hisobotlarga asoslanishi kerak.

5. Tahlil ta'sirchan bo'lishi lozim, ishlab chiqarishni borishiga, uning natijasiga tez ta'sir qilishi kerak. Tezlik bilan tahlil natijalaridan kelib chiqqan holda iqtisodiy, tashkiliy va texnikaviy chora-tadbirlar ishlab chiqilib, unga tayangan holda rejani asoslash, unga o'zgarishlar kiritish lozim. Aks holda tahlil o'z oldiga qo'ygan maqsadga erisha olmaydi.

6. Tahlil rejaga asosan sistemali ravishda o'tkazilishi kerak. Bundan ko'rinib turibdiki, tahlil faqat ishlab chiqarish rejasi bajarilmagandagina emas, balki texnika-iqtisodiy ko'rsatkichlarni ortig'i bilan bajarilganda ham o'tkazilishi shart. Sababi, yaxshi natijalar ostida ba'zi bir iqtisodiy ko'rsatkichlar, sex va uchastkalarda muammo, xato va kamchiliklar mavjud va yashirilgan bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda o'tkazilgan tahlil korxonani oqsoq tomonlarini ochib tashlaydi.

7. O'tkaziladigan tahlil tez va aniq bo'lib, qisqa vaqt ichida qaror qabul qilinib, uni hayotga tatbiq qilishi lozim.

8. Tahlilning muhim talablaridan biri – ilg'or korxonalarning ichki xo'jalik imkoniyatlarini ishlab chiqarishga tatbiq qilish uchun tahlil jarayoniga keng o'rmmanni, mutaxassis va ilg'or ishchilarni taklif qilishdir.

9. Tahlilning eng muhim tomoni tahlil jarayonida aniqlangan yutuq, imkoniyatlarni hayotga tatbiq qilish, xato-kamchiliklarni bartaraf qilish maqsadida har tomonlama asoslangan chora-tadbirlarni ishlab chiqishdan iboratdir.

10. Tahlilning yana bir muhim tomoni ishlab chiqilgan tashkiliy-texnikaviy va iqtisodiy tadbirlar bajarilishini sistemali ravishda nazorat

qilish va zaruriyatga qarab ularni qayta ko'rib chiqish, kerakli o'zgartirishlar kiritishdir.

Shunday qilib, tahlilning asosiy talablari bu ilmiylik, komplekslilik, sistemalilik, obyektivlik, aniqlik, tezkorlik va samaradorlik bo'lib hisoblanadi.

Bilimni mustahkamlash va tekshirish uchun savollar

1. Iqtisodiy tahlil fani nimalarni o'z ichiga oladi?
2. Makro va mikro iqtisodiy tahlilning farqi.
3. Iqtisodiy tahlilning korxonani boshqarishdagi funksiyasi.
4. Xo'jalik faoliyati tahlilining asosiy vazifalari.
5. Fan sifatida xo'jalik faoliyati tahlilining mazmuni.
6. Xo'jalik faoliyati tahlilining predmeti va obykti.
7. Iqtisodiy tahlil oldiga qo'yilgan talablar.
8. Tahlil fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi.

XO'JALIK FAOLIYATI TAHLILNING USLUB VA USLUBIYATI

2.1. Xo'jalik faoliyatini tahlil qilish usuli va uning xarakterli xususiyatlari

Ilmiy usullardan foydalanilgandagina har qanday turdagi tahlil muvaffaqiyatli chiqadi. Tahlil qilishning to'g'ri tanlangan usuli ko'pincha uning natijasini oldindan aniqlaydi.

Ilmiy usulda, ko'pincha, fanni tekshirish usulida (shuningdek, xo'jalik faoliyatini tahlil) umumiy dialektik usulga asoslanishi tushuniladi. Tushunishning dialektik usuli, barcha hodisa va jarayonlarni muntazam harakatda, o'zgarishda, rivojlanishda ko'rish zarurligini bildiradi. Xo'jalik faoliyatini tahlil usulining xarakterli jihatlaridan biri – muntazam taqqoslab turish zaruratidir. Dialektika har bir jarayonni, har bir hodisani birlik va qarama-qarshiliklar kurashi deb qarash kerakligini o'rgatadi. Bundan har bir hodisa va jarayonlarni ichki qarama-qarshiliklar, ijobiy va salbiy tomonlarini o'rganib chiqish zarurligi kelib chiqadi. Bu ham xo'jalik faoliyatini tahlilning xarakterli jihatlaridan biridir. Tahlil qilishda dialektik usuldan foydalanish, korxonada xo'jalik faoliyatini o'rganib chiqishda barcha bog'liq tomonlarining hisobga olinishini anglatadi. Hech qaysi hodisa, agar u alohida tekshirilsa, to'g'ri tushunchaga ega bo'lmaydi. Bu ham tahlil fani usulining xarakterli jihatlaridan biridir. Tahlilning muhim uslubiy jihatlaridan yana biri, u faqat sabab-oqibatlarini aniqlabgina qolmay, balki son jihatdan tavsif beradi, ya'ni har bir omilning faoliyat natijalariga qay miqdorda ta'sir ko'rsatishini aniqlaydi. Bu iqtisodiy tahlilning yanada osonroq bo'lishini ta'minlaydi. Tahlilda sababli aloqalarni o'rganish va o'lchash induksiya hamda deduksiya usuli orqali amalga oshirilishi mumkin. Mantiqiy induksiya yordamida sababli aloqalarni o'rganib chiqish usuli, tekshirishda alohidadan umumiyga, alohida omildan umumlashganga, sababdan natijagacha aniqlashdir. Deduksiya – bu umumiy omillardan alohida omilni, natijadan sababni aniqlash usulidir. Tahlilda induktiv va deduktiv usullardan muvofiqashtirilib foydalaniladi.

XFTda dialektik usuldan foydalanish har bir iqtisodiy holatning o'zaro bog'liq bo'lgan ko'pgina elementlar sistemasi, yig'indisi sifatida ko'rib

chiqish kerakligini bildiradi. Shuning uchun eng unumli va istiqbolli tahlil sistemali tahlil hisoblanib, bunda iqtisodiy obyekt ta'rifini sistemali turkumda ta'min qiladi, bu uni xarakterining yana bir muhim jihatidir. Sistemali tahlil obyektini uning amal qilishi va rivojlanishi natijalariga ta'sir ko'rsatuvchi o'zaro bog'liq bo'lgan barcha omillarini hisobga olgan holda har tomonlama tekshirishni amalga oshirishga imkon beradi.

Sistemali yondashish o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni bosqichma-bosqich tahlil qilish, ularni o'zaro bog'liq holda tekshirish mufassal detallarda o'rganilishini ko'zda tutadi. U yoki bu holatning tarkibiy qismlari detalizatsiyasi o'rganilayotgan obyekt uchun muhim va eng kerakli bo'lgan darajagacha o'tkaziladi. U obyekt va tahlil maqsadiga bog'liq bo'ladi. XFTdagi bu murakkab masala tahlilchidan iqtisodiy ko'rsatkichlar mohiyatini, shuningdek, uning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi sabab va omillari to'g'risida bilimga ega bo'lishini talab qiladi.

Moddalarning bir sistemaga kiritilishi ularning o'zaro bog'liqligi, o'zaro ta'siri, o'zaro aloqadorligi va bo'ysunganligini o'rganish asosida ishlab chiqiladi. Bu o'rganilayotgan obyekt (sistema)ning ta'minoy modelini, uning muhim tarkibini, ishlashini, sistema elementlarining bir xilda bo'ysunishini, o'rganilayotgan ko'rsatkichlarning ichki bog'lanishlariga muvofiq keluvchi tahlilning mantiqiy-uslubiy shaklini ochish. Shu tariqa, iqtisodiy tahlil usuli – bu korxonada faoliyati unumdorligini oshirish maqsadida ko'rsatkichlar sistemasi, hisobi, hisoboti va boshqa axborot manbalarini ko'rib chiqish bilan korxonada faoliyati natijalariga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni sistemali, kompleks o'rganish, umumlashtirishdir. Korxonada iqtisodiyotining alohida tomonlarini, ularning o'zaro bog'liqligini, bo'ysunishini va aloqadorligini o'rganib chiqqandan so'ng, hamma materiallar umumlashtirilishi kerak. Sintez tahlil jarayoni juda mas'uliyatli vaqt hisoblanadi. Natijalar umumlashtirilayotganda o'rganib chiqilgan ko'pgina omillardan tasodifiy tipik omillarni ajrata bilish, faoliyat natijalariga ta'sir ko'rsatuvchi muhim va hal qiluvchilarini ajratish darkor.

2.2. Kompleks iqtisodiy tizim o'tkazishda ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish zaruriyati

XFTning muhim metodologik jihati uning bevosita oldingidan o'tishi, korxonada xo'jalik faoliyatida iqtisodiy holat va jihatlarining sabab-oqibatlarini kompleks tekshiruvda ko'rsatkichlar sistemasini ishlab chiqarish va undan foydalanishdir.

Kompleks iqtisodiy tahlilning asosiy ko'rsatkichlari va mohiyati iqtisodiy tahlil sistemasi, uning takomillashuvi ko'pincha qarorlar qabul

qiluvchi rejalarning asoslanganligini belgilaydi. Iqtisodiy tahlil iqtisodiyotni boshqarishni takomillashtirishda muhim o‘rin egallaydi. Mulkchilik shakli turlarining ko‘payishi sharoitida korxonalar miqdorining ham oshishi korxonalar orasidagi aloqani murakkablashtirdi. Hozirgi zamon korxonalarining boshqaruv jarayoni qiyinlashdi, muhim, tezkor qarorlar qabul qilish va ularning murakkablik darajasi oshdi, qaror qabul qilish davri birmuncha qisqardi. Noto‘g‘ri qabul qilingan qaror korxonaning asoslanmagan ishiga va uni bo‘linmalarining o‘shishiga, mahsulot ishlab chiqarish xarajatlariga, korxonalar iqtisodiyotining pasayishiga olib keladi va ulardan kompleks iqtisodiy tahlil o‘tkazishni talab qiladi. Kompleks tahlil – bu korxonalar va uni bo‘linmalari xo‘jalik faoliyatining har tomonlama tahlilidir. U korxonalar faoliyatiga obyektiv baho berishga, erishilgan ko‘rsatkichlarga ta‘sir qilgan omillarni aniqlashga imkon beradi. Omillarni aniqlash ishlab chiqarishga ta‘sir ko‘rsatib istalgan natijalarga erishish maqsadida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlashga imkon beradi. Omillarni kompleks tahlil qilish kompleks tahlilsiz ko‘rinmaydigan va hisobga olinmaydigan ko‘rsatkich va omillarning o‘zaro bog‘liqligini aniqlab, boshqaruv qarorlar natijasini oldindan ko‘ra bilish imkonini beradi. Oqibatda, kompleks iqtisodiy tahlil analitik ishini tartibga soladi, uning samaradorligini oshiradi, «imkoniyatlarni aniqlash» sistemasini tashkil etadi, asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda yordam beradi.

Kompleks iqtisodiy tahlil hozirgi vaqtda dinamikada korxonalar hamda uning bo‘linmalari faoliyatini tekshirish, alohida korxonalar va korxonalar orasida (uexlar va xizmatlar orasida) aloqalarni o‘rganishni o‘z ichiga olishi kerak. U korxonalar iqtisodiyoti axborot tizimi tuzilishini aniqlab beradi, buning uchun korxonalar va uning bo‘linmalari ishlab chiqarish xo‘jalik faoliyatini to‘liq va aniq ko‘rsatib beruvchi ko‘rsatkichlar sistemasini tuzish lozim. Korxonalar, uexlar ishi kompleks tahlili tanlangan ko‘rsatkichlar orqali amalga oshiriladi, lekin bunda (to‘g‘ridan-to‘g‘ri va teskari) aloqador bo‘lgan iqtisodiy ko‘rsatkichlarga alohida e‘tibor qaratish kerak. Masalan, ishlab chiqarish hajmi, mehnat unumdorligiga, ishchilar soniga, ish vaqtidan to‘liq foydalanishga bog‘liq. Lekin mahsulotlar nomenklaturasining bajarilish tahlili ishchilar tarkibi, malakasi va boshqalarni talab etadi. Tahlil qilishda malaka darajasini, ishchi xodimlar tarkibining, ishlab chiqarilayotgan mahsulotga muvofiqligini o‘rganish kerak, ya‘ni bu ko‘rsatkichlarning aloqadorligini tahlil qilish zarur.

Xo‘jalik faoliyati tahlilida mahsulot narxi, mehnat va tabiiy o‘lchovlar uyg‘unligidan tashkil topgan ko‘rsatkichlar sistemasidan foydalaniladi. U korxonalar faoliyatiga har tomonlama tavsif beradi, ishlab chiqarish birliklari (korxonalar, sexlar, qo‘shilmalar) dinamikasini solishtirishga, ularning

rivojlanish darajasini va ular tomondan belgilangan muddatlarda reja topshiriqlarining bajarilishi darajasini aniqlashga imkon beradi. «Ko'rsatkichlar sistemasi» tushunchasi korxonada ishlab chiqarish xo'jalik faoliyatida tomonlarning real aloqalarida alohida ko'rsatkichlarning munosibligini ko'rsatadi. Bu sistemadagi alohida elementlarni tavsiflovchi barcha ko'rsatkichlar o'zaro bog'liq va o'zaro bir-biriga ta'sirini o'tkazadi. Hamma yangi texnik iqtisodiy ko'rsatkich, boshqa ko'rsatkichlar bilan birgalikda o'rganilishi va bu ko'rsatkich bilan aloqalari aniqlanmay sistemaga kiritilishi mumkin emas. Ishlab chiqarish – xo'jalik faoliyatining ko'pgina ko'rsatkichlari, alohida mayda sistemalarga guruhlanishi, turkumlanishi zaruriyatini talab etadi. Hisob va tahlil obyekti korxonada faoliyatini qaysi tarafdin tavsiflanishiga qarab ko'rsatkichlar sistemasi 8 ta mayda bloklarga guruhlanadi:

1. Tashkiliy-texnik daraja.
2. Mehnat vositalaridan foydalanish.
3. Mehnat predmetlaridan foydalanish.
4. Mehnat va ish haqidin foydalanish.
5. Mahsulot hajmi, tarkibi va sifati.
6. Mahsulot tannarxi.
7. Foyda va rentabellik.
8. Ishlab chiqarish jamg'armalarining aylanishi va moliyaviy ahvol.

Bloklarga kiruvchi ko'rsatkichlar umumiy va alohida ko'rsatkichlardir. Kiruvchi va chiquvchilar – bloklarni o'zaro uzviy bog'liqligini amalga oshiruvchi ko'rsatkichlardir. Bir blokdan chiquvchi ko'rsatkich boshqa blokka kiruvchidir.

Bloklardagi iqtisodiy ko'rsatkichlari alohida bir turga bo'ysunuvchi o'zaro bog'liq bo'ladi. Ba'zi bir bloklar umumiy ko'rsatkichlarga ega bo'lib, bu ko'rsatkichlar boshqa mayda bloklarga ham ko'rsatkichlar bo'ladi, boshqacha qilib aytganda, bu bloklar ko'rsatkichlari bir-biri bilan kesishadi.

Hamma blok sistemalar majmui (yig'indisi) yagona sistemani tashkil etib, bu sistema korxonada iqtisodiyotining to'liq tavsifini namoyon qiladi. Namuna sifatida «Mehnat va ish haqidin foydalanish» blokidagi ko'rsatkichlarni ko'rib chiqamiz. Bu sistemaga mehnat resurslari, ulardan foydalanish tavsifi kirgan holda, shuningdek, tahlil o'tkazish uchun quyidagi ko'rsatkichlar qo'llaniladi: korxonani ishchi kuchi bilan ta'minlanishi, ish vaqtdin foydalanish, mehnat resurslaridan unumli foydalanish, ish haqi fondidan foydalanish. Bu blokning ko'rsatkichlari ishlab chiqarishning tashkiliy-texnikaviy rivojlanishi darajasiga bog'liq, ya'ni ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashtirish darajasiga, mehnatni texnik qurollanishiga, texnika va texnologiyaning

o'sib borishiga, yangi texnikani tatbiq etishga, eskirgan dastgohlarning almashtirish va zamonaviylashtirishga, mahsulotlarning chidamliligi va ishonchlilikiga, konstruksiya mustahkamliligiga, ishlab chiqarish jarayonlarni va mehnatni tashkil etishga, mehnatni tashkil etish va me'yorlashtirishga, ish vaqtidan foydalanish bu blokka kiruvchi bo'lgan ko'rsatkichlardir. Bu blokdan chiquvchi bo'lgan ko'rsatkichlarga belgilangan muddatlarda ishchining o'rtacha mehnat unumdorligi, ish haqi fondi, umumiy iqtisodiy tahlilning boshqa bloklari bilan bog'laydi.

Har bir blokning ko'rsatkichlari tegishli bloklar tahlilida batafsil ko'riladi.

2.3. Iqtisodiy tahlil uslubiyati mazmuni va vazifasi

Iqtisodiy tahlil usullari qator tahliliy tekshiruvlardan so'ng aniqlanadi. Uslubiyat deyishda qaysidir ishni maqsadga muvofiq tarzda bajarilish qoidalari, usullari yig'indisi tushuniladi. Iqtisodiy tahlilda uslubiyat iqtisodiy ko'rinishlarning analitik usul va qoidalari yig'indisi, tahlil o'tkazishdan maqsadga yetkazuvchi xo'jalik faoliyati jarayonlari tushuniladi.

Tahlilning alohida va umumiy uslubiyati quyidagicha aniqlanadi:

A. Umumiy uslubiyat deyilganda milliy iqtisodning har xil sohalarida har xil obyektlarning iqtisodiy tahlilini o'rganishda bir xil foydalaniladigan tekshirish sistemasi tushuniladi;

B. Alohida uslubiyatda ishlab chiqarishning o'ziga xos aniq xususiyatlari, tekshiruv obyektlari, tahlil turlari umumlashtirilib aniqlab olinadi.

Tahlilning istalgan uslubiyati analitik tekshiruv o'tkazishda ko'rsatma va uslubiy maslahat tarzida ko'riladi. Bu quyidagilar:

- 1) vazifa ifodasi (formulirovkasi) va tahlil maqsadi;
- 2) tahlil obyektlari;
- 3) tahlilning har bir objekti tekshirilishida yordam beradigan ko'rsatkichlar sistemasi;
- 4) analitik tekshiruv o'tkazish davri va ketma-ketligi bo'yicha maslahatlar;
- 5) o'rganilayotgan obyektlarni tekshirish usullari va uslubiyati ta'rifi;
- 6) tahlil o'tkazishda asos qilib olinadigan manbalar;
- 7) tahlilni tashkil etish mas'ullari (qanday shaxslar, xizmatlar tekshiruvning alohida qismini olib borishi);
- 8) ma'lumotlarni analitik ko'rib chiqish maqsadida foydalanish kerak bo'lgan texnik vositalar;
- 9) tahlil natijalarini rasmiylashtirishda zarur bo'ladigan hujjatlar ro'yxati va ularning mazmuni;

10) tahlil natijalari buyurtmachilari.

Iqtisodiy tahlil uslubiyaning ikki muhim elementi ustida to'xtalib o'tamiz.

A. Iqtisodiy tahlil kompleks o'tkazishda quyidagi bosqichlar alohida ajralib turadi:

– birinchi bosqichda obyektlar, tahlil maqsadi va vazifasi aniqlanadi, tahliliy ish rejasi tuziladi;

– ikkinchi bosqichda tahlil qilinayotgan obyekt tavsiflanishida yordam beruvchi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar sistemasi ishlab chiqiladi;

– uchinchi bosqichda tahlil o'tkazishda zarur bo'lgan ma'lumotlar tayyorlanadi va to'planadi (uning aniqligi tekshiriladi, zarur holga keltiriladi);

– to'rtinchi bosqichda xo'jalikning hisobot yilidagi haqiqiy ko'rsatkichlari reja ko'rsatkichlari bilan, o'tgan yillar haqiqiy ko'rsatkichlari hisobot yili rejasi bilan, yetakchi korxonalar muvaffaqiyatlari bilan, shu soha bo'yicha o'rtachalar bilan taqqoslanadi va h.k.;

– beshinchi bosqichda omil tahlili o'tkaziladi; omillar aniqlanadi va ularning natijaga ta'siri aniqlanadi;

– oltinchi bosqichda muvaffaqiyatlar, kamchiliklar, uzilishlar, yaxshilanishlar, ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi imkoniyatlardan foydalanilmaganliklari aniqlanadi;

– yettinchi bosqichda har xil omillar va aniqlangan foydalanilmagan imkoniyatlar ta'siri inobatga olinib, xo'jalik natijalariga baho beriladi, ulardan foydalanish maqsadida tashkiliy-texnikaviy va iqtisodiy tadbirlar ishlab chiqariladi.

Tahliliy tekshiruv o'tkazishning bunday ketma-ketligi tahlilida nazariy va amaliy tomondan ham maqsadga muvofiq hisoblanadi.

B. Xo'jalik faoliyatini tahlili uslubiyaning eng muhim elementlari texnik qabul va tahlil usullaridir. Ular quyidagi maqsadlarda ishlatiladi:

– to'plangan ma'lumotga birlamchi ishlov berishda (tekshirish, guruhlash, sistemalarga bo'lish);

– tekshirilayotgan obyektlar rivojlanishining qonuniyligi va holatini o'rganish;

– korxonalar faoliyatini natijalariga omillar ta'sirini aniqlash;

– ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi imkoniyatlardan foydalanilmaganligini aniqlash;

– tahlil natijalarini va korxonalar faoliyatiga berilgan kompleks baholarni umumlashtirish;

– iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot rejasini, boshqarish qarorlarini va har xil tadbirlarni asoslash.

2.4. Xo'jalik faoliyati tahlilida ishlatiladigan usullar mazmuni va uslubiyati

Iqtisodiy tahlilda har xil usullardan foydalaniladi. Ular orasidan ma'lumotlarga ishlov berishda va ularni o'rganishda (taqqoslash, grafikaviy, balans, o'rtacha va nisbiy kattaliklar, zanjirsimon usul ta'miniy kattaliklarning absolut va nisbiy kattaliklarning nisbiy farqi, analitik guruhlash, intuitsiya asosida iqtisodiy topshiriqlarni evristik usulda yechish, oldingi tajriba, mutaxassislarning ekspert bahosi va h.k.) keng foydalaniladigan an'anaviy mantiqiy usullarni tanlab olish mumkin.

A). Xo'jalik faoliyati tahlilida taqqoslash usuli. Taqqoslash usuli analitik ishlarda keng ishlatilib, uning yordamida iqtisodiy ko'rsatkichlar bajarilishi darajasi aniqlanadi, ya'ni u yoki bu iqtisodiy ko'rsatkichning bajarilishi, oshirib bajarilishi yoki bajarilmaganligi aniqlanadi. Uning muhimligini ta'kidlab, quyidagi maqolni esga olish mumkin: «Hamma narsa taqqoslanganda bilinadi».

Aynan shu usul yordamida iqtisodiy tahlilning maqsad va vazifasi aniqlanadi, ya'ni bu usul iqtisodiy tahlilning kelgusida chuqurlashtirilishiga obyekt beradi.

Tahlil o'tkazish jarayonida bu usul quyidagi variantlarda qo'llaniladi:

1. Reja bajarilishi darajasini belgilash maqsadida reja ko'rsatkichlari hisobot ko'rsatkichlari bilan taqqoslanadi va shundan so'ng reja topshiriqlarini bajarilmaganligi yoki oshirib bajarilganligi, ya'ni kamchiliklar, uzilishlar, ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi imkoniyatlardan foydalanilmaganliklarni, ijobiy ko'rsatkichlarni aniqlash bo'yicha analitik ishlar chuqurlashtiriladi.

2. Reallik (haqiqiylik), keskinlik, optimal (eng qulay) va rejaning bajarilishi mumkinligini aniqlash uchun iste'molchilar bilan tuzilgan shartnomalar asosida hisobot yili reja topshiriqlari o'tgan yillar haqiqiy ko'rsatkichlari bilan taqqoslanadi, ya'ni iste'molchilar bilan shartnomalar tuzishda korxonalar imkoniyatlari inobatga olingan-olinmaganligi aniqlanadi. Agar qabul qilingan reja o'tgan yilgi haqiqiy ko'rsatkichdan past bo'lsa yoki unchalik katta bo'lmagan farq bo'lsa, jamoa bu rejani hech qanday qiyinchiliklarsiz bajarishi va oshirib bajarishi mumkin va aniqlangan imkoniyatlar yil mobaynida rejaning oshirib bajarilishini ko'rsatib turadi. Rejalashtirish chog'ida jamoa o'zining barcha imkoniyatlarini hisobga olgan holda optimal rejani qabul qilishi zarur. Agar bu yilgi reja o'tgan yilgiga nisbatan asossiz ravishda oshirilsa, bu reja bajarilmaydi, iste'molchi talabi qondirilmaydi va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar yomonlashadi.

3. Erishilgan haqiqiy natijalarni oldingi yillar haqiqiy ko'rsatkichlari bilan taqqoslash. Bu iqtisodiy ko'rsatkichlar o'sishini aniqlashga imkoniyat beradi va iqtisodiy jarayonlar qonuniyligini va yo'nalishini aniqlaydi.

Asosiy miqdoriy ko'rsatkichlar dinamikasi

1 - jadval

Yillar	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi		Ishchilar soni		Bir ishchining ish mahsuli	
	M.s.	Bazis yiliga nisbatan, %	Ishchilar soni	Bazis yiliga nisbatan, %	So'm	Bazis yiliga nisbatan, %
1997	1 78000	100	1600	100	111250	100
1998	181000	101	1550	97	116770	104
1999	180900	102	1500	84	120600	108
2000	186000	104	1440	90	130560	117
2001	193000	108	1400	88	137860	124

Berilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, bir ishchiga to'g'ri keluvchi mahsulot ishlab chiqarishning o'sishi 24%ni tashkil etgan va bu o'sish ishchilar sonini bazis davriga nisbatan 12%ga qisqartirish va bir vaqtda mahsulot ishlab chiqarishni 8%ga oshirish imkonini berdi.

4. O'tgan yilning haqiqiy iqtisodiy ko'rsatkichlari darajasini hisobot yili haqiqiy ko'rsatkichlari bilan taqqoslash. Bunday solishtirish o'tgan yilgi ko'rsatkichlarga nisbatan joriy yilgi ko'rsatkichlarning haqiqiy o'sishiga ishlab chiqarishning imkoniyatlari va ularni amalga tatbiq etishga imkon beradi.

5. Moddiy resurslarning haqiqiy sarfini belgilangan me'yorlar bilan taqqoslash (asosiy xomashyo, materiallar, elektr energiyasi, yonilg'i, suv). Bunday solishtirish analitik ishda keng ishlatilib, mahsulot ishlab chiqarishda resurslarni tejashni yoki ortiqcha sarflanishini aniqlash, ishlab chiqarishda ulardan foydalanish samaradorligiga baho berishda va mahsulot ishlab chiqarishda yo'qotilgan imkoniyatlarni aniqlashda hamda mahsulot tannarxini pasaytirishga imkoniyat yaratadi.

Korxonada tomonidan moddiy resurslardan foydalanish ko'rsatkichlari

2 - jadval

Resurs turlari	Resurslarni sarflash, ming so'mda		
	Me'yor bo'yicha sarf	Haqiqiy sarf	Me'yorga nisbatan farqi (+/-)
Tola	20250	19880	-370
Sun'iy tola	930	975	+45

Jadvaldagi ma'lumotlardan korxonada moddiy resurslarini tejamkorlik bilan ishlatish tartibiga amal qilinayotgani ko'rinib turibdi, bu esa tejalgan moddiy resurslar hisobiga mahsulot ishlab chiqarish hajmini kamayishiga va mahsulot tannarxini pasayishiga olib keladi.

6. Ilg'or guruhlar, brigada va sexlarning yaxshi ko'rsatkichlarini, ilg'or tajriba va ilmiy - texnikaviy yutuqlarni solishtirish. Korxonaning o'zida jamoa tomonidan erishilgan yalpi ko'rsatkichlarning o'rtacha darajasi ilg'or uchastkalar, brigadalar, ishchilar, sexlar bilan solishtiriladi. Bu korxonaning ilg'or tajribasi va yangi imkoniyatlarini aniqlashga imkon beradi.

7. Bu korxonaning natijalari xuddi shunday sharoitlarda xo'jalik yurituvchi boshqa analogik korxonalarining yaxshi ko'rsatkichlari bilan taqqoslanishi katta ahamiyat kasb etadi. Bunday tahlil korxonada ish unumdorligini oshirishga, mavjud imkoniyatlarni aniqlashga yordam beruvchi muhim vosita va ilg'or tajribalarni aniqlash imkonini beradi. Bunday solishtirish tahlil qilinayotgan korxonada ko'rsatkichlari bilan raqobatchi korxonada ko'rsatkichlarini taqqoslashda muhimdir.

Ko'rsatkichlarni taqqoslash tahlilining muhim shartidir. Chunki bir xildagi kattaliklar faqat sifat bo'yicha taqqoslanadi. Ko'rsatkichlarning taqqoslanmasligi har xil sabablarga ko'ra bo'ladi: narxlarning har xil darajadaliigi, bajarilgan ishlarning hajmi, assortimentning o'zgarishi, mahsulotning har xil sifatliigi, har xil kalendar davriyligi, ishlab chiqarish sharoitining har xilligi.

Taqqoslanishi mumkin bo'lmagan ko'rsatkichlar tahlilda noto'g'ri xulosaga va natijalarga olib keladi. Shuning uchun taqqoslashdan oldin, ko'rsatkichlarni bir xil taqqoslanadigan ko'rinishga keltirish zarur.

B). Zanjirsimon usul. Korxonada faoliyati ko'pgina iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi va bu ko'rsatkichlar o'zaro bog'liq va bir-biriga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun omillar bo'yicha tahlil qilishda tahlilning determinirlangan usuli ishlatiladi va u

natijaviy ko'rsatkichlar bilan funksional xarakterli omillarning bir-biriga ta'sirini anglatadi.

Determinirlangan tahlilda quyidagi usullardan foydalaniladi: zanjirli usul, absolut farq, proporsional taqsimlash, integrallash, logarifmlash.

Ulardan eng universali zanjirsimon usuldir. U hamma turdagi determinirlangan omillar modeliga ta'sir qiluvchi omillarni ta'sirini hisoblash uchun foydalaniladi. Bu usul alohida omillarning yakuniy ko'rsatkichlarga ta'sirini belgilangan davrda har bir ko'rsatkichlarning bazis kattaliklarni asta-sekin haqiqiysiga almashtirish natijasida aniqlaydi.

Shu maqsadda oldin bir, keyin ikki, uch va keyingi omillarning o'zgarishini hisobga oluvchi yakuniy ko'rsatkichning qator shartli kattaliklarini aniqlaydi, qolganlari o'zgarmaydi.

Yakuniy ko'rsatkichning o'rtacha kattaligi u yoki bu omilning o'zgariguncha va o'zgarganidan so'ng hamma omillarning, bittasidan tashqari, oxirgisining yakuniy ko'rsatkich ustiga ta'sirini belgilaydi. Yakuniy ko'rsatkichlar kattaligiga omillarning ta'siri qanchalik detalma-detall tekshirilsa, tahlil natijasi shunchalik aniq bo'ladi.

Bu usulning ishlatilish tartibini, quyidagi 3-jadvalda berilgan misolda batafsil ko'rib chiqamiz.

Yakuniy ko'rsatkichlarga omillarning ta'sirini aniqlash tahlili


3-jadval

Ko'rsatkichlar	Shart. belgi.	Ko'rsatkichlar darajasi		Rejadan chetga og'ish	
		Rejada	Haqiqiy	Absolut	Nisbiy, %
Yalpi mahsulot mln.so'm	YaM	2760,8	3095,4	334,6	112
O'rtacha ishchilar soni	IS	1000	1100	+100	110
Bir ishchining bir yil mobaynida ishlagan o'rtacha ish kuni	K	290	280	-10	96
Bir ishchining o'rtacha bir soatlik mehnat unumdorligi	MU	1,4	1,5	0,1	107

Bizga ma'lumki, yalpi mahsulotning (YaM) hajmi 4ta asosiy omillarga bog'liq; ishchilar soni (IS), bir ishchining bir yil mobaynida ishlagan kuni (K), ish kunining davomiyligi (D) va bir ishchining bir soatdagi o'rtacha mehnat unumdorligidan kelib chiqib (MU) 4 omilli model hosil qilamiz.

$$YaM = IS \cdot K \cdot D \cdot MU$$

Bu model uchun tegishli chizmada zanjirli almashtirish usulida algoritim tuzamiz.



2-chizma.

$$YaM_r = IS_r \cdot K_r \cdot D_r \cdot MU_r = 1000 \cdot 290 \cdot 6,8 \cdot 1,4 = 2760,8$$

$$YaM_{haq} = IS_{haq} \cdot K_{haq} \cdot D_{haq} \cdot MU_{haq} = 1100 \cdot 280 \cdot 6,75 \cdot 1,5 = 3118,5$$

$$\text{Farq } YaM_{haq} - YaM_r = 3118,5 - 2760,8 = 334,6 \text{ m.s.ni tashkil etadi.}$$

334,6 m.s.ga yalpi mahsulotning oshirib bajarilishiga ta'sir ko'rsatgan yuqorida aytib o'tilgan ko'rsatkichlarni aniqlashimiz zarur.

1. Yalpi mahsulot hajmiga ishchilar sonining o'zgarganligi ta'sirini aniqlash:

$$YaM_s = IS_{haq} \cdot K_r \cdot D_r \cdot MU_r = 1100 \cdot 290 \cdot 6,8 \cdot 1,4 = 3036,9 \text{ m.s.}$$

Ishchilar sonining o'zgarishi hisobiga rejadan ortiq yalpi mahsulot olingan.

$$3036,9 - 2760,8 = +276,1 \text{ m.s.}$$

2. Ish kunini davomiyligini o'zgarishini ta'sirini aniqlash.

$$YaM_{kr} = IS_{haq} \cdot K_{haq} \cdot D_{haq} \cdot MU_r = 1100 \cdot 280 \cdot 6,75 \cdot 1,4 = 2889 \text{ m.s.}$$

Haqiqiy ko'rsatkichlar, mehnat unumdorligidan tashqari, o'zgarishida mahsulot hajmining o'zgarishini aniqlash.

$$2889-2760,8=+128,2 \text{ m.s.}$$

Ish kunlarining o'zgarishi va smena davomiyligini qisqarishi hisobiga mahsulot hajmi yo'qolishiga ega bo'lamiz.

$$128,2 - 276,1 = -147,9 \text{ m.s.}$$

3. Mehnat unumdorligi o'zgarishining ta'sirini aniqlash.

$$YaM_{mu} = IS \cdot K_r \cdot D_r \cdot MU_{isu} = 1000 \cdot 290 \cdot 6,8 \cdot 1,5 = 2856 \text{ m.s.}$$

Mehnat unumdorligi darajasining o'sishi hisobiga rejadan ortiq mahsulotni aniqlash.

$$2958-2760,8=197,2 \text{ m.s.}$$

Keltirilgan hisoblardan ko'rinib turibdiki, ishchilar sonining rejadagidan 100 kishiga ortiqligi hisobiga 276,1 m.s. va mehnat unumdorligining oshganligi sababli 197,2 m.s. miqdorida rejadagidan ortiqcha mahsulot ishlab chiqarilgan. Natijada, bu ijobiy ko'rsatkichlar sababli $197,2+276,1=473,3$ m.s. miqdorida rejadagidan ortiq mahsulotga ega bo'ldik. Lekin ish kunlaridan to'liq foydalanilmaganligi va ish kuni davomiyligining kamayishi hisobiga 147,9 m.s. mahsulot kam ishlab chiqarilgan. Shunday qilib, rejadan ortiqcha ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot $473,3 - 147,9 = +334,6$ m.s.ni tashkil etdi.

Agarda jamoa hisobot yilida 147,9 m.s. miqdorida mahsulot olinmasligiga sababchi bo'lgan ish vaqtining yo'qolishiga yo'l qo'ymaganda edi, rejadan ortiq 334,6 emas, balki 473,3 m.s. mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lar edi. Bundan tashqari, rejadan ortiq 3346 m.s. mahsulot ishlab chiqarish uchun rejadan tashqari 100 kishi emas, bundan ancha kam ishchi jalb etilar edi va natijada ish haqqi fondi tejalib, mahsulot tannarxini pasaytirishga erishish mumkin edi.

D). Zanjirsimon usulni qo'llashda nisbiy va o'rtacha kattaliklardan foydalanish usuli chambarchas bog'langan va ular quyidagicha foydalaniladi.

Iqtisodiy hodisalar va jarayonlar, odatda, absolut va nisbiy ko'rsatkichlarda ifodalanadi.

Absolut ko'rsatkichlar boshqa holatlarga, rejadagi va me'yor qolipi bo'lmagan birliklarda o'lchovlar, og'irliklar, davomiylik hajmi, maydon, narxni ko'rsatadi.

Nisbiy ko'rsatkichlar o'rganilayotgan holat kattaligini boshqa bir holat kattaligiga nisbatan kattaliklarda ko'rsatadi, yoki shu holatning boshqa bir paytda olingan kattaligida yoki korrekt obyekt bo'yicha olinadi. Nisbiy ko'rsatkichlar bir kattalikni solishtirish uchun olingan bazaning boshqa bir kattaligiga taqsimlash yordamida olinadi. Bu ko'rsatkich boshqa bir korxonaning, sohaning va h.k. bazis yil uchun reja ko'rsatkichlari bo'lishi

mumkin. Nisbiy ko'rsatkichlar (1 bazada) koeffitsiyentlar yoki (100 bazada) foiz ko'rinishida ko'rinadi.

E). Iqtisodiy ko'rsatkichlarni guruhlash usuli har qanday ijtimoiy-iqtisodiy tekshirishning asosiy qismi sanaladi. Ko'rsatkichlarni guruhlash korxonada faoliyatini yanada chuqurroq o'rganish maqsadida o'tkaziladi. O'rganilayotgan obyekt yoki ko'rsatkich a'zolarga bo'linadi yoki bir xil belgilar bo'yicha guruhlariga qo'shiladi.

Tahlil vazifasi va maqsadiga qarab tipologik, tarkibiy va analitik guruhlardan foydalaniladi. Tipologik guruhlashdan aholining ish faoliyati, mulkchilik shakli va guruhlanayotganda foydalaniladi.

Tarkibiy guruhlash ko'rsatkichlarning ichki tuzilmalarini, ularning alohida qismlarga nisbatini o'rganishda qo'l keladi. Ularning yordamida ishchilar tarkibi kasbi bo'yicha, ish staji, yoshi, mahsulot ishlab chiqarish me'yori bajarishi; mahsulot ishlab chiqarish ko'rsatkichining o'sishi, mahsulot tannarxi bo'yicha korxonada tarkibi o'rganiladi.

Masalan: ishchilarni mahsulot ishlab chiqarish me'yori bajarishlari bo'yicha guruhlash.

Agar 70% ishchi MU - 100%ga bajarsa;

20% ishchi MU - 100-103% bajarsa;

10% ishchi MU - 100-105 %ga bajarsa.

Berilganlardan ko'rinib turibdiki, bir ishchi uchun belgilangan mehnat unumdorlik me'yori ilmiy asoslangan, aniq, real, qulay va mavjud imkoniyat hamda zaxiralar rejaga kiritilgan.

Agar 70% ishchi MU - 90-95%ga

20% ishchi MU - 95-98%ga

5% ishchi MU - 98-100%ga

5% ishchi MU- 100-101% bajargan bo'lsa, bu mehnat unumdorlik me'yori rial emas, uni bajarishga sharoit va chora-tadbirlar ishlab chiqilmagan hamda bajarib bo'lmaydigan juda baland ko'rsatkich qabul qilingan.

Belgilangan mahsuldorlik me'yori real emas, uni bajarish qiyin oshirilgan.

Agar 70% ishchi MU- 105-110%ga

20% ishchi MU - 110 -116%ga

10% ishchi MU - 116 va undan yuqori.

Bu ko'rsatkichlar me'yori mavjud imkoniyat va zaxiralarni rejaga kiritmay yengil rejani qabul qilib, uni hech qanday izlanishsiz, osongina bajargan.

Ishlab chiqarishda mavjud bo'lgan real imkoniyatlarni hisobga olib, iqtisodiy ko'rsatkichlarni o'tkazilgan guruhlash natijalariga qarab mahsuldorlik me'yori qayta ko'rib chiqilishi kerak.

Analitik guruhlash o'rganilayotgan ko'rsatkichlarning aloqalari, shakli va yo'nalishi, miqdorini aniqlashda ishlatiladi. Analitik guruhlash asoslangan belgilari bo'yicha sifat va son jihatdan bo'lishi mumkin.

Guruhlar tuzilmasi bo'yicha ikki turdagi guruhlariga bo'linadi: oddiy va murakkab.

Oddiy guruhlash bir xil belgilari bo'yicha guruhlangan, kam holatlari bo'yicha bog'liq bo'lgan o'zaro bog'liqlikni aniqlashda ishlatiladi.

Murakkab guruhlashda umumiy o'rganishdan oldin bir belgi bo'yicha bunday bo'lish amalga oshiriladi. Shu tarzda, ikki va uch tenglamali guruhlar tuziladi. Ular har xil va juda qiyin o'zaro bog'liqliklarni o'rganishga imkon beradi.

F). Grafika usuli. Tahlil natijalari, odatda, jadval usulida chiqariladi. Bu o'rganilayotgan holatning sonlar, ma'lum tartibda joylashgan grafika yordamida analitik ma'lumot olishning qulay va yanada ratsional shaklidir.

Analitik jadval fikr, mulohazaning son tili bilan ifodalanishidir. U so'zli matnga qaraganda yanada bu usul ma'noli va yaqqoldir. Undagi ko'rsatkichlar mantiqiy va ketma-ket shaklda joylashgan bo'lib, matnli bayonga qaraganda oz joyni egallaydi va kutilganidek tezda tushuniladi. Jadvaldagi materiallar analitik berilgan ma'lumotlarni bir yagona sistema tarzida tezroq tushunishga imkon beradi va o'rganilayotgan ko'rsatkichlar osonroq kuzatiladi.

Grafika usuli tahlil o'tkazishni osonlashtiradi va uning tezkorligini oshirishga yordam beradi. Ayniqsa, oy mobaynida reja topshiriqlarining bajarilishini tavsiflovchi qiyshiq, alohida dastgohlar quvvatidan foydalanish darajasini ko'rsatuvchi ustunli diagramma va to'rsimon grafika juda qulaydir.

Grafikadan boshqa usullar yordamida aniqlangan hisob-kitoblarning yaqqol ko'zga tashlanishini ta'minlash uchun ham foydalaniladi.

G). Balans usuli. Bu usul asosan natijalari bir-biriga o'xshash bo'lishi zarur bo'lgan o'zaro bog'liq bo'lgan iqtisodiy ko'rsatkichlar proporsiyasi, holatini ifodalashga xizmat qiladi. Bu usul asosan buxgalteriya hisobi va rejalashtirishda qo'llaniladi. Balans usuli yana korxonani mehnat, moliya, moddiy resurslar bilan ta'minlanganligi va ulardan unumli foydalanishini tahlil qilishda ishlatiladi.

Bilimlarni tekshirish va mustahkamlash uchun savollar

1. Xo'jalik faoliyati tahlilining asosiy xususiyatlari va usullari.
2. Xo'jalik faoliyati tahlilining uslubiyati nimani anglatadi?
3. Tahlilni bajarishning asosiy bosqichlari.
4. Iqtisodiy tahlilning asosiy usullari.



5. Omillar bo'yicha tahlil o'tkazishni mazmuni va vazifasi.
6. Xo'jalik faoliyati tahlilida qo'llaniladigan taqqoslash usuli mazmuni va uni qo'llash vazifalari.
7. Zanjirsimon usul mazmuni va vazifasi.
8. Axborotlarni guruhlash usulining mazmuni va vazifasi.

3-BOB

XO'JALIK FAOLIYATI TAHLILINI TASHKIL QILISH VA UNI MA'LUMOTLAR BILAN TA'MINLASH

3.1. Xo'jalik faoliyati tahlilini tashkil etishning asosiy tamoyillari va uning bosqichlari

Tahliliy ishni muvaffaqiyatli, samarali o'tkazilishi uni har tomonlama o'ylab, sinchiklab tashkil qilinishiga bog'liq. Uning o'tkazilishi ilmiy xususiyatga asoslangan bo'lishi va reja asosida amalga oshirilishi lozim.

Tahliliy ishda xilma-xil bosqichlar mavjud. Ularning mazmuni oldindan aniqlanishi kerak va bajarilishi ma'lum tomonlarga asoslangan bo'lishi lozim.

1. Korxonada faoliyatini tahlil qilish, boshqarishda qaror qabul qiladigan har bir rahbar va menejerning xizmat burchidir. Bundan kelib chiqadigan zarur tamoyil bu tahlilni bajaruvchilar o'rtasida vazifani ma'lumoti, ish staji va mutaxassisligini hisobga olingan holda aniq taqsimlash lozim.

2. Ishlab chiqarishda tahlilni tashkil qilishda eng zarur tamoyillardan biri uni tejamligi, ya'ni oz xarajat sarf qilinishi, qisqa vaqtda samarali natija olish.

3. Tahliliy ishni tashkil qilishdagi yana bir tamoyil uni bajaradigan xodimlar tahlil natijasi aniq, xulosa va takliflardan iborat bo'lishini ta'minlash.

Ishlab chiqarishda o'tkaziladigan tahliliy ish quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Xo'jalik faoliyati tahlilining obyekti va subyektini aniqlash, ularni tashkil qilish formasini tanlash va uni bajaruvchi bo'linmalari o'rtasida to'g'ri taqsimlash.

2. Korxonada faoliyatini tahlil qilishni reja asosida bajarish.

3. Tahlilni kerakli ma'lumot va uslubiy qo'llanma bilan ta'minlash.

4. O'tkazilgan tahlil natijasini rasmiylashtirish.

5. Tahlil natijasiga asoslanib ishlab chiqilgan tashkiliy-texnikaviy va iqtisodiy chora-tadbirlarini ishlab chiqarishga tatbiq etilishini nazorat qilish.

Iqtisodiy tahlilning tashkiliy shaklini boshqarish apparat xodimlari orqali amalga oshiriladi.

Yirik sanoat korxonalarida iqtisodiy xizmatlarni iqtisodiyot bo'yicha direktor muovini, ya'ni bosh iqtisodchi boshqaradi. Bevosita uning rahbarligida quyidagi iqtisodiy bo'limlar faoliyat ko'rsatadi: iqtisodiy tahlil laboratoriyasi, ishlab chiqarishni tashkil qilish bo'limi, iqtisodiy rejalashtirish bo'limi, mehnat va ish haqi bo'limi, buxgalteriya hisobi, moliyaviy bo'lim.

Iqtisodiy tahlil faqatgina iqtisodchi xodimlarni burchigina bo'lmay, balki tahlil bilan texnik xodimlar, yuristlar, konstruktorlar ham tahlil o'tkazishga jalb qilinishi kerak. Buning sababi xo'jalik faoliyati har tomonlama: iqtisodiy, texnikaviy, tashkiliy va sotsiologik tashkil qilinishi lozim.

Iqtisodiy tahlil vazifasi taxminan quyidagi 4-jadvalda bo'limlar o'rtasida taqsimlanadi.

Iqtisodiy tahlilni o'tkazishda korxonada xodimlari o'rtasida vazifalarning taqsimlanishi

4- jadval

№	Tahlil qismlari	Boshqaruvchilar
1	2	3
1	Xo'jalik faoliyatining umumlashgan ko'rsatkichlari tahlili	Bosh iqtisodchi, iqtisodiy tahlil va ishlab chiqarishni tashkil qilish laboratoriyasi, iqtisodiy rejalashtirish bo'limi, bosh hisobchi.
2	Ishlab chiqarishning tashkiliy-texnikaviy darajasi va texnikaviy rivojlanishi tahlili	Bosh iqtisodchi, bosh muhandis, iqtisodiy rejalashtirish, bosh konstruktor, texnolog.
3	Asosiy fondlardan va jihozlardan foydalanish darajasi tahlili	Ishlab chiqarish bo'limi, bosh mexanika bo'limi, iqtisodiy rejalashtirish bo'limi.
4	Moddiy resurslardan foydalanish darajasi tahlili	Moddiy-texnika ta'minoti bo'limi, ishlab chiqarish va iqtisodiy rejalashtirish bo'limi, bosh hisobchi.
5	Mehnat va ish haqi ko'rsatkichlari tahlili	Mehnatni va ish haqini tashkil qilish bo'limi, iqtisodiy rejalashtirish bo'limi, bosh hisobchi
6	Mahsulot hajmi, struktura-sifati va tahlili	Iqtisodiy rejalashtirish bo'limi; ishlab chiqarish bo'limi, mahsulot sotish bo'limi, moliyaviy bo'lim.
7	Mahsulot tannarxi tahlili	Iqtisodiy rejalashtirish bo'limi, bosh hisobchi, moliyaviy bo'lim.
8	Foyda va rentabellik tahlili	Bosh iqtisodchi, iqtisodiy rejalashtirish bo'limi, moliyaviy bo'lim, bosh hisobchi.
9	Ishlab chiqarish fondlarining aylanishi va korxonaning moliyaviy	Moliyaviy bo'lim, bosh hisobchi, moddiy ta'minot va mahsulot sotish bo'limi.

	holati tahlili	
10	Umumlashgan pirovard iqtisodiy ko'rsatkichlar samaradorligi tahlili	Bosh iqtisodchi, iqtisodiy tahlil laboratoriyasi, iqtisodiy rejalashtirish bo'limi, mehmata va ish haqini tashkil qilish bo'limi.

Ko'jalik faoliyatini yuqorida ko'rsatilgan holda mutaxassislar bilan birgalikda tahlil etish tahlilni kompleks o'tkazishni, malakali, chuqur, har tomonlama bo'lishini va natijada, xato, kamchilik va imkoniyatlarni to'g'ri aniqlashni ta'minlaydi.

3.2. Xo'jalik faoliyati tahlilini ma'lumotlar bilan ta'minlash

Korxonada faoliyatini tahlil qilishdan olinadigan natija, uning axborot va metodik qo'llanmalar bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq.

Xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda ishlatiladigan ma'lumotlar manbai quyidagilardan iborat:

- reja ma'lumotlari;
- hisobot ma'lumotlari;
- hisobotdan tashqari ma'lumotlar.

Reja holatidagi ma'lumotlar manbaiga hamma korxonada ishlab chiqariladigan (perspektiv, joriy, tezkor, texnologik kartalar), undan tashqari normativ materiallar, smetalar, narxlar kiradi.

Hisobot holatidagi ma'lumot manbalari – bu buxgalteriya, statistika hujjatlarida aks ettirilgan haqiqiy hisob va hisobotlar.

Tahlilni axborot bilan ta'minlashda bosh rolni buxgalteriya hisobi va hisoboti egallaydi, sababi bu manbalarda xo'jalik faoliyati va uni natijalari o'z aksini topgan. Birlamchi va jamlangan hisob registridagi ma'lumotlarni o'z vaqtida va to'la-to'kis tahlil qilish rejani bajarilishiga, xo'jalik faoliyatini yaxshilashga qaratiladi.

Statistik hisob va hisobot ma'lumotlar ommaviy holatlar va jarayonlarga miqdoriy xarakteristika va iqtisodiy qonuniyatlarni chuqurroq o'rganishda foydalaniladi.

Tezkor hisob va hisobot statistika, buxgalteriya hisobiga nisbatan tahlilni ancha tezroq ma'lumotlar bilan ta'minlaydi va natijada tahlilni samaradorligini oshirishiga sharoit yaratadi.

Hisobotga olinmaydigan ma'lumotlar manbaiga xo'jalik faoliyat boshqarishda qo'llaniladigan hujjatlar kiradi va bu hujjatlar yuqorida keltirilgan hisob va hisobotlarga kirmaydi. Hisobga olinmaydigan hujjatlariga quyidagilar kiradi:

1. Korxonalar o'z faoliyatida foydalanishi shart bo'lgan rasmiy hujjatlar.

2. Xo'jalik huquq hujjatlari: shartnomalar, arbitraj va sud qarorlari, reklamatsiyalar, reviziya, auditorlik natijalari.

3. Ilmiy texnika axboroti: nashr qilingan ma'lumotlar, ilmiy tadqiqot ishlar natijasi haqidagi hisobot.

4. Kollektiv umumiy majlis qarorlari.

5. Korxonalarni ilg'or tajribalari haqidagi ma'lumotlar,

6. Texnik va texnikaviy hujjatlar.

7. Alohida ish joylaridagi ahvolni kuzatish natijalari (xronometraj, ish kunining fotografiyasi).

Tahlilni axborot bilan ta'minlashni tashkil qilinishida quyidagi talablar qo'yiladi. Bular axborotning tahlilga to'g'ri kelishi, uning aniqligi, tezkorligi, taqqoslab bo'lishi. Bu talablarni mazmuni shundaki, iqtisodiy axborot tizimi tahlilni talabi va vazifasiga mos kelishi kerak. Ya'ni bu axborotlar korxonada faoliyatini chuqur, har tomonlama o'rganib, imkoniyatlarni aniqlab samarali qaror qabul qilishga xizmat qilishi kerak.

Bundan tashqari, axborot tizimi samarali bo'lishi lozim, ya'ni uni jamlashga, saqlashga va undan foydalanishga kam xarajat sarf qilinishi lozim.

Shunday qilib, xo'jalik faoliyati tahlilini informatsion tizimi shakllanishi va takomillanishi yuqorida keltirilgan talablarni hisobga olgan holda amalga oshishi natijasidagina tahlilni samaradorligi va ta'sirchanligi oshadi.

Tahlil ta'sirchanligining samaradorligini ta'minlaydigan asosiy omil xo'jalik faoliyati tahlilini o'tkazishni rejalashtirishdir. Rejada, birinchi navbatda tahlilda ko'riladigan obyektini va uning maqsadini aniqlash. Tahlil oldiga qo'yiladigan vazifani bajarish uchun ko'rsatkichlar sistemasini tuziladi. Rejada har bir obyekt bo'yicha tahlil o'tkazish jadvali hamda taktikasi belgilanadi. Rejada har bir obyekt bo'yicha tahlil o'tkazuvchi mutaxassislar aniqlangan bo'lishi shart.

Bilimni tekshirish va mustahkamlash uchun savollar

1. Xo'jalik faoliyati tahlilining asosiy prinsiplari.
2. Xo'jalik faoliyatini tashkil qilish bosqichlari.
3. Korxonada iqtisodiy tahlilni bajaruvchi xodimlar kimlar?
4. Xo'jalik faoliyati tahlilini tashkil qilish mohiyati.
5. Tahlil axborot manbasi nima?

4 - BOB

MAHSULOT ISHLAB CHIQUARISH VA XIZMAT KO'RSATISH BO'YICHA REJALARNI BAJARILISHI TAHLILI

4.1. Mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish rejasining bajarilishiga baho berish


Korxonaning asosiy va birlamchi vazifasi shundaki, ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalangan holda yuqori iste'mol darajasi va sifatiga ega bo'lgan mahsulot va xizmat turlari bilan jamiyat ehtiyojini qondirishdir. Shuning uchun ham korxonaning xo'jalik faoliyati tahlili mahsulot va xizmat ko'rsatishning hajmi, assortimenti va sifatini o'rganishdan boshlanadi, so'ngra esa ishlab chiqarishning tashkiliy texnikiviy darajasi, uning zarur resurslari bilan ta'minlanganlik va ulardan oqilona tejamkorlik bilan foydalanganlik darajasi, mahsulot va xizmat ko'rsatish tannarxi, foyda va rentabellik, korxonaning moliyaviy holati tahlil qilinadi. Ishlab chiqarish dasturi boshlang'ich va asosiy bashorat va korxonaning yillik iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish bo'limi hisoblanadi. U joriy reja davrida mahsulot va xizmat sifati, assortimenti va hajmi bo'yicha asosiy vazifa hisoblanadi. Korxonaning mahsulot ishlab chiqarish dasturi ko'rsatkichlari 3-chizmada keltirilgan.

Ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish ko'rsatkichlari yalpi mahsulot hajmiga kiruvchi ko'rsatkich bo'lib: fond qaytimi, amortizatsiya ajratmasi, material sig'imi, ish haqi fondi, mehnat unumdorligidir.

Mahsulot hajmi strukturasi va uni sifati o'z navbatida asosiy fondlar mehnat predmetlari korxonani ishchilar bilan ta'minlanganligi, ishchilar malakasi, ish vaqtidan samarali foydalanishga bog'liq. Shunday qilib, «Foydalanilgan ishlab chiqarish resurslari» bloki ko'rsatkichlari va «mahsulot hajmi strukturasi va sifati» bloki ko'rsatkichlari o'rtasida teskari bog'lanish mavjud va bu bog'liqlikni kompleks iqtisodiy tahlil o'tkazishda hisobga olish lozim.

«Mahsulot ishlab chiqarish hajmi strukturasi va sifati» blokidan chiqadigan natijaviy ko'rsatkich sotilgan mahsulot hajmidir va bu ko'rsatkich «foyda va rentabellik» bloki o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlaydi.

Mahsulot sifati, hajmi va tuzilmasiga bog'liq masalalarning tahlili



3- chizma.

Korxonada iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish rejasining hamma ko'rsatkichlari mahsulot ishlab chiqarilishi va realizatsiya qilinishi hajmiga bog'liq.

Ya'ni ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi, korxonada rentabelligi va foyda, foydalanilayotgan xomashyo hajmi, yordamchi materiallar hajmi, yoqilg'i va elektr energiyadir. Agar ishlab chiqarish dasturi rejaga nisbatan o'zgarsa, yillik rejaning boshqa bo'limlari ham o'zgaradi.

O'z navbatida mahsulot ishlab chiqarish hajmi korxonada ishlab chiqarish quvvatiga, mahsulot assortimentiga, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etish darajasiga, ishlab chiqarish jarayonining mexanizatsiya va avtomatizatsiya darajasiga bog'liqdir. Ishlab chiqarish dasturi quyidagi miqdoriy ko'rsatkichlar bilan xarakterlanadi: yalpi mahsulot, tovar mahsuloti va realizatsiya qilingan mahsulot. Bu ko'rsatkichlar o'zaro bir-biri bilan uzviy bog'langan va bir-biriga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Ishlab chiqarish imkoniyatlari va tabiiy resurslar cheklanganligi va ehtiyojning cheksizligi sharoitida mahsulot ishlab chiqarish hajmi birinchi o'rinda turadi va u talab hajmini belgilaydi. Biroq bozorning mahsulot bilan to'yinishi va raqobatning kuchayishi natijasida sotuv hajmi mahsulot ishlab chiqarish hajmini rejalashtirishning asosi hisoblanadi. Korxonada shunday hajmdagi mahsulotni shunday vaqtida ishlab chiqarish kerakki, uni to'la-to'kis sotish imkoni bo'lsin. Shuning uchun ham bozor iqtisodiyoti sharoitida ushbu ko'rsatkich birinchi darajali hisoblanadi. Realizatsiya hajmi mahsulotning sotib oluvchi tomonidan olinishi yoki mahsulot uchun pul tushumi orqali aniqlanadi va reja yoki haqiqiy narxlarda ifodalanishi mumkin. Tovar mahsuloti bu korxonada tomonidan chetga sotish uchun mo'ljallangan, ishlab chiqarilgan mahsulotdir. Tovar mahsulot ko'rsatkichidan tovar aylanishini hisoblashda, mahsulot realizatsiyasi va korxonaning moliyaviy rejasi hisobida foydalaniladi.

Yalpi mahsulot korxonada ishlab chiqarish hajmining pul ko'rinishidagi miqdorini umumlashtiruvchi ko'rsatkichdir. Yalpi mahsulot tayyor mahsulotning yakuniy narxini belgilaydi. Shu yo'sinda yarimtayyor mahsulotlar, o'zi ishlab chiqargan yarimtayyor mahsulotlar, yordamchi sexlarda ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, sanoat xarakteridagi ishlar, xizmatlar narxlarini ham belgilaydi.

Yalpi mahsulot ko'rsatkichidan fond qaytimi va korxonaning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini hisoblashda foydalaniladi.

Ishlab chiqarish dasturining ko'rsatkichlarini baholashda quyidagi o'lchovlardan foydalaniladi:

1. Mahsulotning alohida turlari bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish hajmini va uning realizatsiyasini tahlil qilishda mahsulotning natural ko'rinishdagi ishlab chiqarish hajmi va realizatsiya ko'rsatkichi (litr, tonna, metr) ishlatiladi.

2. Shartli natural ko'rsatkichi mahsulot ishlab chiqarish hajmining umumlashgan xarakteristikasini tahlilida ishlatiladi (kilonometr, shartli remontlar soni, shartli juftliklar, mehnat sig'imining koeffitsiyenti ko'rinishidagi hisobi).

3. Me'yoriy mehnat sarfidan natural va shartli natural o'lchamlardan foydalanishi imkoniyati yo'qligida va ko'p nomenklaturali ishlab

chiqarishda foydalaniladi. Bunda mahsulot ishlab chiqarish hajmi umumlashgan holda baholanadi.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi va realizatsiya tahlilining asosiy vazifasi quyidagilar:

- mahsulot ishlab chiqarish hajmi va realizatsiya rejasini bajarilishini baholash;
- mahsulot hajmi va realizatsiyasining o'sish sur'atini aniqlash;
- mahsulotning assortimentlar bo'yicha ishlab chiqarish rejasini bajarilishini baholash;
- mahsulot ishlab chiqarish va uning realizatsiyasining maromiyligini o'rganish;
- mahsulot sifati bo'yicha rejaning bajarilishi tahlili;
- tugallanmagan mahsulot me'yoriga rioya etilishining tahlili.

№1-P «Sanoat korxonalarining mahsulot hisoboti» tahlil o'tkazishga asos bo'ladi. Yuqoridagi keltirilgan vazifalardan ko'rinib turibdiki, tahlilning asosiy vazifasi mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish rejasini bajarilishi darajasinigina aniqlash va undan so'ng uni bajarilish darajasiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili boshlanadi.

Tahlil joriy yil uchun mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya rejasini bajarilishini quyidagi 5-jadval ma'lumotlari asosida o'rganishdan boshlanadi (ming so'mda).

Mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bo'yicha rejaning bajarilishi tahlili

5-jadval

Ko'rsatkichlar	Reja	Haqiqatda	Farqi	
			Ming so'mda	%da
1. Yalpi mahsulot taqqoslab bo'ladigan narxda	5387505	5823507	436002	108,1
2. Tovar mahsulot taqqoslab bo'ladigan narxda	5330740	5757199	426459	108
3. Sotilgan mahsulot hajmi	5246567	5604599	370044	107
4. Yalpi mahsulot tarkibida tovar mahsulotining ulushi	98,9	98,9		
5. Tovar mahsuloti tarkibida sotilgan mahsulotning ulushi	98,4	97,3		

Kulosa: joriy yilning reja ko'rsatkichlarini haqiqiy ma'lumotlar bilan solishtirib aniqlandiki, yalpi mahsulot bo'yicha reja 108,1%ga, tovar mahsulotlari bo'yicha 108%ga va mahsulot sotish bo'yicha 107%ga bajarilgan. Keltirilgan ma'lumotlardan mahsulot va sotilgan mahsulotlar bo'yicha reja ortig'i bilan bajarilgan.

Biroq mahsulot ishlab chiqarishning o'sishi rejaning hamma turlari bo'yicha o'ta yuqori.

Yalpi mahsulot ishlab chiqarish bilan bir qatorda mahsulotni ishlab chiqarish va sotish orasidagi bog'liqlikni shartnoma majburiyatlari asosiga ko'ra o'rganish lozim.

Korxonada tomonidan shartnoma majburiyatlarining bajarilmasligi foydaning kamayishiga, shuningdek, mahsulotni yetkazib bermaganligi uchun jarima to'lovlari bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha xarajatlarga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, raqobatchilik sharoitida korxonada mahsulot sotish bozorini yo'qotishi mumkin. Natijada ishlab chiqarish pasayadi:

Mahsulot sotish assortimentlar bo'yicha hajmining tahlili

6-jadval

Mahsulot turi	Rejadagi baholar bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda				Mahsulot sotish (+/-)			
	Reja	Haqiqatda	(+/-)	Rejaga nisbatan, %da	Reja	Haqiqatda	(+/-)	Rejaga nisbatan, %da
A	894610	929813	35203	103	891340	915210	23870	103
B	540318	531617	-8702	98	53340	-500109	-33091	94
Jami	1434928	1461430	26502	102	1424740	1415319	-9421	99

Kulosa: yuqoridagi hisobotdan ko'rinib turibdiki, hisobot yilida «A» mahsulot bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulot to'lig'icha sotilgan, ya'ni iste'molchiga o'z vaqtida yetkazib berilgan. Biroq «B» guruh bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish hajmi 2%ga, uni sotish hajmi esa 6%ga

bajarilmagan, ya'ni mahsulot realizatsiyasi mahsulot ishlab chiqarishdan 4%ga ortda qolyapti (98–94). Bu esa omborlarda me'yordan ortiq mahsulot qoldig'i ko'payishidan dalolat beradi. Mahsulot qoldig'ining ko'payishiga sotuv ishlari bilan shug'ullanuvchi bo'limning yaxshi ishlamaganligi, transport xo'jaligining yaxshi ishlamaganligi hamda iste'molchilarning to'lov qobiliyati pastligi sabab bo'lishi mumkin.

4.2. Mahsulot ishlab chiqarish dinamikasi tahlili

Korxonada iqtisodiy asosan o'tgan yillarga nisbatan reja va hisobot bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish sur'atiga bog'liq. Tahlilning maqsadi hisobot yilida reja ko'rsatkichlarining sifatini va o'tgan yilga nisbatan haqiqiy o'sish sur'atini belgilashdan iborat.

Mahsulot ishlab chiqarishning o'sish dinamikasi tahlili

7- jadval

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda haqiqatda chiqarilgan mahsulot	Reja	Haqiqatda	O'tgan yilga nisbatan o'zgarishi	Rejaga nisbatan o'zgarishi
1. Yalpi mahsulot	5329630	5387505	5823507	+493877	+436002
2. Tovar mahsulot	5277960	5330740	5757199	+479239	+426459
3. Sotilgan mahsulot	5234555	5246567	5604599	+370044	+358032

Xulosa: hisobot yilining yalpi tovar va sotilgan mahsulot ko'rsatkichlari bilan o'tgan yilgi haqiqatdagi ma'lumotlarni taqqoslash natijasida yalpi mahsulot ishlab chiqarishning reja bo'yicha o'sishini ko'ramiz.

$$5387505 - 5329630 = +57875 \text{ m.s.}$$

Tovar mahsulot bo'yicha

$$5330740 - 5277960 = +52780 \text{ m.s.}$$

Sotilgan mahsulot bo'yicha

$$5234555 - 5246567 = -12012 \text{ m.s.}$$

Agar joriy yilda mahsulot ishlab chiqarishning rejaviy o'sishini haqiqiy o'sishi bilan taqqoslasak, joriy yilda rejaga kiritilmagan quyidagi imkoniyatni ko'rishimiz mumkin.

Yalpi mahsulot bo'yicha: 436002-57875=-378127 m.s.

Tovar mahsulot bo'yicha: 426459-52780=373679 m.s.

Sotilgan mahsulot bo'yicha: 358032-12012=346020 m.s.

Hisobot natijalaridan reja yili uchun mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmini rejalashtirish paytida juda katta imkoniyatlar mavjudligi aniqlanadi.

Yalpi mahsulot bo'yicha - 436002 m.s.

Tovar mahsulot bo'yicha - 426459 m.s.

Sotilgan mahsulot bo'yicha - 358032 m.s.

Biroq imkoniyatlarni bir qismi rejaga kiritilib, qolgan imkoniyatlar esa rejani ortig'i bilan bajarilishidan namoyon bo'ldi. Korxonada hisobot yilida real bo'lmagan, ya'ni yengil rejani qabul qilib uni hech qiyinchiliksiz va rejaga nisbatan ortig'i bilan bajardi. Real bo'lmagan, pasaytirilgan rejani qabul qilish va uni ortig'i bilan bajarish quyidagi salbiy holatlarga olib kelishi mumkin:

1. Rejadan ortiq ishlab chiqarilgan mahsulotga, oldindan o'z iste'molchilariga ega bo'lmagan mahsulot, ya'ni iste'molchilar bilan shartnoma tuzilmagan mahsulot omborlarda yotib qoladi, tovar aylanishida ishtirok etmaydi.

2. Ortiqcha ishlab chiqarilgan mahsulotga oldindan xomashyo va materiallarga ishlab chiqaruvchilar bilan shartnoma tuzilmagan. Agar bu xomashyolar kamchiligi bo'lib qolsa, korxonada to'xtab qolishi mumkin.

Shunday qilib, korxonada mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmini rejalashtirishda iste'molchi ehtiyojini to'laroq e'tiborga olish hamda ishlab chiqarishning yuzaki va chuqur imkoniyatlaridan to'laroq foydalanish uchun sotish bozorini kengaytirish imkoniyatlarini izlash kerak. Undan so'ng iste'molchi bilan shartnomani tuzish kerak.

4.3. Mahsulot assortimenti va tuzilmasi bo'yicha rejaning bajarilishi tahlili

Ishlab chiqarilgan mahsulot ishlab chiqarish assortimenti va tuzilmasi o'zgarishi xo'jalik faoliyati natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Mahsulot ishlab chiqarishni assortimenti va tuzilmasini shakllantirishda korxonada birinchi navbatda, mahsulot turiga talabni, bozor holatini, ikkinchidan, korxonada mavjud bo'lgan mahsulot, xomashyo, texnik-texnologik, moliyaviy va boshqa imkoniyatlardan to'laroq, foydalanishni e'tiborga olishi zarur. Assortimentni shakllantirish tizimida quyidagi asosiy momentlarni o'z ichiga olishi shart:

- a) iste'molchilarning istiqbolli ehtiyojini aniqlash;
- b) chiqarilayotgan mahsulotning raqobatbardoshlik darajasini aniqlash;
- d) mahsulotning bozordagi hayotiylik siklini o'rganish, o'z vaqtida yangi zamonaviy bo'lgan tovarlar turini yaratish bo'yicha choralar ko'rish va ishlab chiqarish dasturidan ma'naviy eskirgan va iqtisodiy jihatdan kam foydali bo'lgan mahsulotni chiqarib tashlash;
- e) iqtisodiy samaradorlik va mahsulot assortimenti o'zgarishida xavf-xatar darajasini baholash.

Assortiment bo'yicha rejaning bajarilishiga faqatgina tovar mahsulot hisobga olinadi. Chiqarilgan mahsulot assortimenti bo'yicha rejani bajarilish ko'rsatkichini hisoblash usulini quyidagi misol orqali ko'rib chiqamiz (ming so'm).

Mahsulot assortimenti bo'yicha rejaning bajarilish tahlili

8- jadval

Mahsulot turi	Reja, ming so'mda	Haqiqatda, ming so'mda			
		Jami	Reja bo'yicha foizlarda	Reja doirasida, haqiqatda	Rejadan ortiq
A	3998055	4317899,2	108	3998055	+319844,2
B	159922 1172763	150270	94	150270	-9652
D	1172763	1289030	110	1172763	+116267
Jami	5330740	5757199	108	5321088	426459

Xulosa: jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, korxonada tovar mahsulot ishlab chiqarish rejasini mahsulotning barcha turlari bo'yicha

108% ga va assortiment bo'yicha 82%ga bajardi (5321088 /5330740) •100.

Tovar mahsulotini assortimentlar bo'yicha ishlab chiqarish rejasini buzilishi eng muhim texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'lgan mehnat unumdorligi, mahsulot tannarxi, realizatsiya va foyda miqdori ta'sir ko'rsatadi.

Tahlil mobaynida tovar mahsulotning assortimenti bo'yicha rejaning bajarilmaslik sabablarini aniqlash kerak.

Bu sabablar tovar mahsulotni ishlab chiqarishni xarakterlovchi hisobot ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi. Bunday sabablarga asosan quyidagilar kiradi: mehnat sig'imi kam bo'lgan mahsulotning rejadan ortiq ishlab chiqarilishi; zarur material va xomashyoni yetishmovchiligi; mahsulot sifati darajasi pastligi; korxonada faoliyatini tashkil qilishdagi yo'l qo'yilgan kamchiliklar, iste'molchini to'lov qobiliyatini pastligi sababli ba'zi bir tovarni ishlab chiqarish kamaytirilgan. Yuqoridagi sabablar aniqlangandan so'ng ularni yo'qotish maqsadida tashkiliy-texnik tadbirlar ishlab chiqish lozim.

Hisobotda mahsulotning alohida turlari bo'yicha bajarilmagan rejani absolut miqdoridan foydalangan holda, assortiment bo'yicha reja bajarilishini tahlil qilishni boshqa usul bilan ham amalga oshirish mumkin. Bunda rejani bajarmaslik absolut miqdorini 100ga ko'paytirib, tovar mahsulot ishlab chiqarishni rejaviy miqdoriga bo'linadi. Bu usul bilan topilgan foiz miqdori assortiment bo'yicha rejani bajarmaslik darajasini ifodalaydi.

Buni quyidagi misolda ko'rish mumkin. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, «B» mahsulot turi bo'yicha rejani bajarmaslik 9652 ming (150270—159922) so'mga bajarilmagan.

Boshqa mahsulot turlari bo'yicha reja ortig'i bilan bajarilgan. Shundan ko'rinib turibdiki, «B» mahsulot bo'yicha reja 0,18 %ga bajarilmagan, demak, «B» mahsulot bo'yicha rejani bajarilishi $99,82 \% = (100 - 0,18)$ ni tashkil etgan.

Yuqorida keltirilgan usul hisobotni ancha yengillashtiradi va ushbu ko'rsatkichni tahlil qilishning barcha hollarida ishlatilishi mumkin.

Mahsulot tuzilmasi bo'yicha rejaning bajarilishi rejada belgilangan mahsulotning alohida turlari orasidagi nisbatni saqlanishini, ya'ni bir tekisda bajarilishini ko'rsatadi.

Mahsulot tuzilmasi bo'yicha rejaning o'zgarishi ishchi kuchidan foydalanish, ish haqi fondi, mahsulot tannarxi va rentabellik ko'rsatkichlariga sezilarli darajada ta'sir qiladi.

Tuzilma bo'yicha reja bajarilishini xarakterlovchi umumiy ko'rsatkichni hisoblash uchun reja bo'yicha mahsulotning alohida

tuzilmasini ishlab chiqarilgan mahsulot umumiy bajarilish foiziga binoan hisoblanadi. Bu usul bilan topilgan ko'rsatkichlar hisobot ma'lumotlari bilan taqqoslanadi.

Bunda ko'paytirilgan rejayiy ko'rsatkichlarida oshmagan haqiqiy mahsulot chiqarish miqdori hisobga olinadi.

Tuzilma bo'yicha rejani bajarish darajasi tuzilma bo'yicha rejaning bajarilishida hisobga olinuvchi mahsulot miqdori bilan tovar mahsulotining haqiqiy ishlab chiqargan miqdorini taqqoslash orqali aniqlanadi.

Mahsulot tuzilmasi bo'yicha rejaning bajarilish tahlili

9- jadval

Mahsulot turi	Reja	Haqiqatda	Rejaning bajarilishi (%)	Rejayiy tuzilmada mahsulot chiqarish	Reja bajarilishi hisobida
A	3998055	4317899,2	108	4317800,2	4317800,2
B	159922	150270	94	200719	150270
D	1172763	1289030	110	5757199	1238680
Jami	5330740	5757199	108	5321088	5706750,2

Xulosa: jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mahsulot ishlab chiqarish tuzilmasi bo'yicha reja 99,12% ($5706750 : 5757199$) • 100 %, ya'ni 0,88 %ga bajarilmagan. Ko'rinib turibdiki, korxonada rejadagi ortiqcha mahsulot ishlab chiqargan bir sharoitda tuzilma bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish rejasini bajarmagan. Haqiqat ishlab chiqarilgan mahsulotni rejadagi ko'rsatkichga qayta hisoblangan bilan solishtirganda umumiy farq $50449 \cdot (5757199 - 5706750)$ ni tashkil qiladi yoki 0,88 • ($5757199 / 5706750$) • 100.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar 10-jadvalda umumlashtirilgan.

10- jadval

Mahsulot turi	Reja	Haqiqatda	Haqiqiy ma'lumotlarni o'zgartirilgan rejadagi farqi	
			Ortiq	Kam
A	4317899,2	4317800	99	—
B	150270	200719	—	50449
D	1289030	1238680	50350	—
Jami:	5757199	5757199	50449	50449

4.4. Mahsulot sifati va unga ta'sir qiladigan omillarning tahlili

Ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatiga doimo katta e'tibor berib kelingan, chunki aynan mahsulot sifati iste'molchilar ehtiyojini yaxshiroq qondirishga imkon beruvchi, tovarlar mo'l-ko'lligi, mahsulot ishlab chiqarish hajmining pul miqdorida ifodasini oshishiga, shuningdek, xalq xo'jaligi tarmoqlarida kapital qo'yilmalardan tejab qolish va foyda miqdorining o'sishiga imkoniyat beradi.

Mahsulot sifatiga quyidagi omillar ta'sir qiladi:

- a) texnika va texnologiya holati va uning progressivligi;
- b) ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishni takomillashtirish;
- d) foydalanilayotgan xomashyo va materiallar sifatiga;
- e) ishchilarning malakasi va texnik tayyorgarlik darajasiga;
- g) ishchi va xodimlarning mahsulot sifatiga javobgarligi va ularni

moddiy rag'batlantirish.

Sifat ko'rsatkichi o'lchovi turli tarmoqlarda ishlab chiqarilgan mahsulotni qanday maqsadda ishlatilishiga ko'ra har xil bo'ladi.

Mahsulot sifatini ifodalovchi eng asosiy ko'rsatkich bu O'zDST ko'rsatkichlaridir.

Asosan xalq iste'moliga ketadigan mahsulot sifati va uning navi yoki tarkibidagi foydali komponentlar darajasi (kolloriyasi, moylilik, oktan soni) bilan o'lchanadi. Ishlab chiqarish vositalarining sifat ko'rsatkichlari bu O'zDST ko'rsatkichlaridir (xizmat qilish muddati, pishiqligi, universalligi, unumdorligi, kam yoqilg'i sarf bo'lishi, suv va issiqlikka chidamliligi).

Ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini belgilovchi o'lchovlardan yana biri, uning navlar bo'yicha taqsimlanishi va sifat darajasi oshishini o'tgan yilga va rejaga nisbatan haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot navini oshirishdir.

Tahlil vazifasi – ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati bo'yicha reja bajarilishi darajasini o'rganish, mahsulot sifatining o'zgarishiga ta'sir qiladigan omillarni aniqlash, mahsulot sifatini korxonada miqdor ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlash, tovar, mahsulot hajmi, mahsulot sotilishidan tushgan tushum va foyda miqdoriga ta'sirini o'rganish.

Dastavval quyidagi 11-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, ishlab chiqarilgan mahsulot sifati bo'yicha rejaning bajarilishini tahlil qilish kerak.

Mahsulot sifati bo'yicha rejaning bajarilish tahlili

11- jadval

Nav	Reja bo'yicha		Hisobot bo'yicha		Cheklanish	
	Miqdori, ming donada	Rejaga nisbatan, %da	Miqdori, ming donada	Rejaga nisbatan, %da	Rejaga nisbatan donada	%da
I	203000	70	220660	74,8	+17660	+4,8
II	58000	20	38350	13.0	-19650	-7
III	29000	10	35990	12.2	+ 6990	+2, 2
Jami	290000	100	295000	100	+5000	-

Xulosa: ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati rejaga nisbatan birmuncha yaxshilangan. Birinchi nav mahsulot 17660 donagacha, ya'ni 4,8%ga oshgan. Biroq mahsulot ishlab chiqarish 16000 donaga ortiq'i bilan bajarilish sharoitida ikkinchi nav mahsulot 19650 donaga, ya'ni 7%ga kamayganligi sababli uchinchi nav mahsulot 6990 donaga, ya'ni 2,2%ga oshgan.

Agar hisobot yilida reja ulushi bo'yicha mahsulot ishlab chiqarilganda, navlar bo'yicha haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi quyidagi miqdorda bo'lar edi:

I. nav: $(295000 \cdot 70) / 100 = 206500$ dona

II nav: $(295000 \cdot 20) / 100 = 59000$ dona

III nav: $(295000 \cdot 10) / 100 = 29500$ dona

Hisobot natijalarini haqiqiy ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori bilan solishtirib quyidagi chetlanishlarni aniqlashimiz mumkin:

I nav: $220660 - 206500 = +14160$ dona

II nav: $38350 - 59000 = -20650$ dona

III nav: $35990 - 29500 = +6490$ dona

Hisobot ko'rsatkichiga, 2-navning 3-navdan ulgurji narxi ancha yuqori va 2-navning 20650 donaga rejadan kamligi sababli korxonada, umuman olganda, mahsulot ishlab chiqarish hajmining pul ko'rinishidagi ifodasida va foyda miqdorini kamayishiga yo'l qo'ygan.

Agarda korxonada mahsulot ishlab chiqarish hajmini 20650 donaga oshirish bilan birgalikda 2-nav ulushini ham oshirganda rejadan ortiq foyda va mahsulot hajmining puldagi ifodasini oshirishga erishgan bo'lar edi.

Xulosadan kelib chiqib, mahsulot sifatini narxiy ko'rsatkichlarga ta'sirini aniqlash kerak.

Hisobot quyidagicha amalga oshiriladi:

$$\Delta VP = (S1 - So) \cdot VVP;$$

$$\Delta V = (S1 - So) \cdot VRP;$$

$$\Delta P = [(S1 - So) \cdot \Delta RP] \cdot [(S1 - So) \cdot VRP].$$

Bu yerda, ΔVP – ortiqcha tovar mahsulot ishlab chiqarish;

ΔP – ortiqcha foyda miqdori;

ΔV – realizatsiyadan tushgan ortiqcha tushum;

So va $S1$ – mahsulot sifati o'zgargandan oldingi va keyingi narx;

So va $S1$ – mos ravishda mahsulot sifati o'zgargandan oldingi va keyingi tannarx darajasi;

VRP – sifati oshgan mahsulotning sotish hajmi.

Ishlab chiqarilgan mahsulot navining o'zgarishi munosabati bilan, birinchi navbatda, o'rtacha narxni va bir dona mahsulot tannarxini o'zgarishi aniqlab undan so'ng navlar o'zgarishi, tovar mahsulotining hajmiga realizatsiyadan keladigan tushum va foyda ta'siri aniqlanadi.

Mahsulot navi tarkibini narxning o'rtacha o'zgarishiga ta'sirini aniqlash

12-jadval

Mahsulot navi	Mahsulot tannarxi, so'mda	Mahsulot tuzilmasi			O'rtacha bahoning o'zgarishi, so'mda
		Reja	Haqiqatda	Cheklanish «+/-»	
I nav	12150	0,70	0,748	0,048	12150·0,048 =583,2
II nav	11050	0,20	0,13	-0,07	11050·0,07 =773,5
III nav	6870	0,10	0,122	+0,22	6870·0,022 =151,4

Xulosa: jadvalda keltirilgan hisobotlar mahsulotning 3-navi ulushini ortishiga sabab 1-nav bo'yicha mahsulot xarajatlari 583,7 so'm, 3-nav bo'yicha esa 151,4 ga ortganligini ko'rsatmoqda. 1- va 3-navlarning ortishi natijasida 2-nav kamaygan.

4.5. Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligi tahlili

Maromiylilik deganda mahsulot ishlab chiqarish rejasini bir me'yorda bajarilishiga aytiladi. Maromiylilik korxonada ishni tashkil qilish sifatini ishlab chiqarishni va mehnatning to'g'ri tashkil qilinganligini, moddiy texnika ta'minat darajasini texnika, texnologiyadan samarali foydalanishni tushuniladi. Bir me'yorda mahsulot ishlab chiqarish deganda ishlab chiqarishni oldindan rejalagan grafikka muvofiq ishlab chiqarish tarkibidagi sex uchastkalar o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlanganligi tushuniladi. Grafikka asosan bir me'yorda mahsulot ishlab chiqarishni tashkil qilinishida ishchi kuchidan, mashina uskunalardan, moddiy resurslardan samarali foydalanishni, mahsulot sifatini oshishini va mahsulot tannarxini kamayishini ta'minlaydi.

Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligini buzilishi ish rejimini buzilishiga, ishlab chiqarish resurslaridan to'la foydalanishga xalaqit beradi, asosiy fondlarni yemirilishini tezlashtiradi va mahsulot ishlab chiqarish hajmini kamaytirishga olib keladi.

Korxonada mahsulot ishlab chiqarish maromiyligini haqiqatan ishlab chiqarilgan kunlik dekada, oylik, kunlik mahsulot hajmini rejadagi mahsulot hajmi bilan taqqoslab aniqlanadi. Ishlab chiqarish maromiyligini oylar bo'yicha o'tkazishda har dekadada ish kunlarini sonini hisobga olish lozim. Bir oy mobaynida dekadalar bo'yicha maromiylilik darajasini tahlili quyidagi 13-jadvaldagi ma'lumotlarga asoslanib, tahlil qilinadi.

Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligi

13-jadval

№	Ko'rsatkichlar	Oylik reja	Bir oylik haqiqiy bajarilish			
			Jami	Shu jumladan		
				1 dek	2 dek	3 dek
1.	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi, m.s	44228	479767	141344	158320	180103
2.	Ish kunlari soni	22	22	7	8	7
3.	O'rtacha bir kunlik ishlab chiqarish hajmi	20192	21808	20192	19790	25729
4.	Rejaga nisbatan har kunlik bajarilishi, %	100	108	100	98	127

Xulosa: keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, kunlik mahsulot ishlab chiqarish rejasini bir maromda bajarilishi ta'minlanmagan. Ya'ni uchinchi dekadada mahsulot ishlab chiqarish rejasini 98%ga bajarilgan xolos. Shu sababdan korxonada to'rtinchi dekadada ish rejimiga rioya qilmasdan

dam olish, bayram kunlari qo'shimcha smenalar tashkil qilish natijasida mahsulot hajmini rejaga nisbatan 3748 ming so'm yoki 7%ga ortiqcha bajardi.

Dekadalar davomida turli xil hajmda tovar mahsulotini ishlab chiqarilishi korxonada mavjud zaxiralar borligidan darak beradi. Ushbu zaxiralarni aniqlash maqsadida maromiylilik koeffitsiyentini aniqlash, ya'ni bir me'yorda tovar mahsuloti ishlab chiqarish rejasini umumlashgan ko'rsatkichini aniqlash lozim. Buning uchun ma'lum vaqt ichida haqiqatan ishlab chiqilgan mahsulot hajmini xuddi shu vaqtda rejadagi mahsulot hajmiga taqsimlash lozim. Ushbu koeffitsiyentni quyidagi ma'lumotlarga asoslanib tahlil qilinadi.

Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligi

14-jadval

Dekada	Reja	Haqiqatda	Haqiqiy reja miqyosida
1	141344	141344	141344
2	161400	158320	158320
3	141484	180103	141484
Jami	444228	479767	441148

Xulosa: maromiylilik koeffitsiyenti 99,3 (441148/444228) tashkil etdi. Bu koeffitsiyent qancha birga yaqinlashsa, shuncha ishlab chiqarish maromiyligi rejaga moslashadi. Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligini o'zgarishini mahsulot hajmiga ta'sirini aniqlash uchun 100%dan maromiylilik koeffitsiyentini ayirish orqali aniqlanadi.

$100 - 99,3 = 0,7\%$ shunga binoan mahsulot ishlab chiqarish hajmi $(444228 \cdot 0,7) / 100 = 3109$ m.s. kamaygan.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi 108%ga bajarilgan sharoitda mahsulot ishlab chiqarish maromiyligi ikkinchi dekadada o'zgarmaganda, mahsulot ishlab chiqarish hajmi 108,7%ni $(108 + 0,7)$ bajarilgan bo'lur edi yoki $(479767 + 3109) = 482876$ m.s.ni tashkil qilar edi. Demak, korxonada mahsulot hajmini 3109 m.s. oshirish imkoniyati mavjud ekan.

Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligini buzilishiga quyidagi omillar ta'sir qilishi mumkin.

1. Korxonani moddiy texnika ta'minot rejasini umumiy holda assortimentlar va muddati bo'yicha buzilishi.

2. Tovar mahsulotini ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilish talab darajasiga javob bermasligi.


3. Faol asosiy fondlardan vaqt bo'yicha va quvvati bo'yicha to'la-to'kis foydalanilmaganligi.

4. Ishchilarni malakasini pastligi.

4.6. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmini oshishiga ta'sir etuvchi omil va zaxiralarni aniqlash va tahlil qilish usuli

Mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishi va uni sotish dinamikasi o'rganilgandan so'ng, mahsulot sotish hajmiga ta'sir qiladigan omillarni aniqlash zarur va bu omillar quyidagi chizmada keltirilgan.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sir qiladigan omillar



4-chizma.

Mahsulot sotishni tahlil qilish uslubi ikki variantdan iborat.

Agar korxonada sotishdan olinadigan daromad jo'natilgan mahsulot hajmidan kelib chiqqan holda aniqlansa, u holda tovar mahsulotining balansi quyidagicha bo'ladi.

$$TM_b + ITM = SM + TM_o \text{ bu yerda, } SM = TM_b + ITM - TM_o$$

Agar korxonada daromadi jo'natilgan mahsulotga to'langan pul hajmidan kelib chiqqan holda aniqlansa, u holda tovar mahsulotining balansi quyidagicha bo'ladi.

$$TM_b + ITM + JM_b = SM + JM_o + TM_o \text{ bu yerda}$$

$$SM = TM_b + ITM + JM_o - JM_b - TM_o$$

Bu yerda, TM_b , TM_o – yil boshiga va oxiriga omborda qolgan tayyor mahsulot zaxirasi.

ITM – joriy yilda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi.

SM – joriy yilda sotilgan mahsulot hajmi.

JM_b , JM_o – yil boshiga va oxiriga qolgan jo'natilgan mahsulot hajmi.

Chizmada keltirilgan omillarni mahsulot sotish hajmiga ta'sirini aniqlash uchun har bir omilni haqiqiy darajasini reja ko'rsatkichi bilan solishtirib, absolut va nisbiy o'zgarishi aniqlanadi.

Mahsulot sotish hajmiga omillar ta'sirining tahlili

15-jadval

№	Ko'rsatkichlar	Mahsulot hajmi, m. s.		Mahsulot sotish hajmini o'zgarishi	
		Reja	Haqiqatda	m.s.	%
1	Yil boshiga qolgan tayyor mahsulot hajmi	43405	52600	9195	121,2
2	Bir yillik ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi	5330740	5757199	426459	108
3	Yil oxiriga qolgan tayyor mahsulot hajmi	127578	152600	25022	119,6
4	Sotilgan mahsulotning hajmi	5246567	5604599	370044	107

Xulosa: keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, tovar mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 108 % ga bajarilgan sharoitda yil oxiriga qolgan tovar mahsulot zaxirasi 119,6 % ni yoki rejaga nisbatan 25022 m.s. ga ortgan, lekin mahsulot sotish rejasini 107 % ga bajarilgan xolos. Sababi yil boshiga sotilmay qolgan mahsulot hajmi rejaga nisbatan 21,2 % oshgan edi. Tahlilchining asosiy vazifasi tahlilni chuqurlashtirib, sotilmay qolgan mahsulot hajmi rejaga nisbatan yil boshiga 21,2 % va yil oxiriga 119,6 % oshishiga ta'sir qilgan omillarni aniqlab, ularni bartaraf qilish maqsadida

chora-tadbirlar ishlab chiqmoq lozim. Kelgusi yili bu zaxiralarni kamaytirib, mahsulot sotish hajmini oshirish hisobiga foyda miqdorini ko'paytirishga erishishni ta'minlashi lozim.

Tahlil jarayonida mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmiga ta'sir qiladigan omillarni o'rganishga alohida ehtibor berish zarur. Sababi, bu omillarni ijobiy va salbiy ta'sirini aniqlamasdan korxonani boshqarish qarorini qabul qilib bo'lmaydi. Bu omillar uch guruhga bo'linadi:

1. Korxonani mehnat resurslari bilan ta'minlash va ulardan samarali foydalanish.

$MICH = I_s \cdot MU$ bu yerda, I_s – ishlovchilarning o'rtacha yillik soni;

MU – bitta ishlovchining o'rtacha yillik unumdorligi;

$SM = I_s \cdot MU \cdot Ya_m^m$ bu yerda, Ya_m^m – yalpi mahsulot tarkibida sotilgan mahsulotning ulishi.

2. Korxonani asosiy fondlar bilan ta'minlanganlik darajasi va ulardan samarali foydalanish.

$MICH = AIF \cdot AF_k$ $SM = AIF \cdot AF_k \cdot Ya_m^m$

Bu yerda AIF – asosiy ishlab chiqarish fondini o'rtacha yillik qiymati;

AF_k – asosiy ishlab chiqarish fondini qaytimi;

3. Ishlab chiqarishni xomashyo va materiallar bilan ta'minlanganlik darajasi va ulardan samarali foydalanish.

$MICH = MR \cdot M_k$ $SM = MR \cdot M_k \cdot Ya_m^m$

Bu yerda, MR – mahsulot ishlab chiqarish uchun sarf qilingan moddiy resurslar hajmi;

M_k – material qaytimi (bir so'm sarf qilingan material xarajatlaridan olingan mahsulot hajmi).

Yuqorida keltirilgan omillarni mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmiga ta'sirini alohida-alohida boblarda chuqur tahlil qilinadi.

Bilimni mustahkamlash va tekshirish uchun savollar

1. Mahsulot ishlab chiqarish va sotishni tahlil qilish uslubiyatini umumiy tarzda ifodalang.

2. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish rejasining bajarilishi hamda o'zgarishi qanday tahlil qilinadi?

3. Mahsulot (xizmat) tuzilmasi nima va u korxonada faoliyati iqtisodiy ko'rsatkichlariga qanday ta'sir ko'rsatadi? Ishlab chiqarish tuzilmasini o'zgartirishdan korxonada qanday manfaat ko'radi?

4. Mahsulot tuzilmasining qiymat ifodasidagi ishlab chiqarish hajmiga ta'sirini hisoblashning asosiy usullarini tushuntiring.

5. Tovarlarining bozordagi mavqei (holati) tahlili qanday amalga oshiriladi?

6. Mahsulot sifatining umumlashtiruvchi, xususiy va bilvosita ko'rsatkichlarini ayting.
7. Mahsulot sifatining qiymat ifodasidagi ishlab chiqarish hajmiga, tushum, foyda va boshqa ko'rsatkichlarga ta'siri summasi qanday hisoblanadi?
8. Korxonada faoliyati maromiyligi tahlilining uslubiyatini tushuntiring.
9. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni ayting.
10. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmini oshirishning asosiy imkoniyatlarini sanang. Ushbu imkoniyatlar kattaligi qanday aniqlanadi?
11. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmini o'zgarishiga ta'sir qiladigan omillarni ayting.
12. Tovar mahsuloti balansini tuzing.
13. Mahsulot hajmini o'stirish zaxiralarini ayting.

**MAHSULOT ISHLAB CHIQRARISH VA SOTISH REJASI
BAJARILISHIGA MEHNAT KO'RSATKICHLARI
TA'SIRINING TAHLILI**

**5.1. Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sir
qiladigan omillar tavsifi**

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish rejasini bajarilishiga juda ko'p texnika iqtisodiy-ijtimoiy omillar ta'sir qiladi va yuqorida aytilganidek, ular uch guruhga bo'linadi.

1. Korxonani mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi va ulardan samarali foydalanish.

2. Korxonani asosiy fondlar bilan ta'minlanganlik darajasi va ulardan samarali foydalanish.

3. Korxonani moddiy resurslar bilan ta'minlanganligi va ulardan samarali foydalanish.

Yuqorida keltirilgan omillar o'zaro bir-biri bilan uzviy bog'langan va bir-biriga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Mehnat qurollari va predmetlari o'tgan davrda sarf qilingan mehnatni natijasi bo'lib, u o'lik mol, moddiy resurslarga aylangan mehnat natijasi, ular ishlab chiqarish jarayonida mustaqil qatnashib o'z funksiyasini, vazifalarini bajara olmaydilar va ulardan olinadigan natija va ishlab chiqarish jarayoni hamda samarali, unumli, tejamkorlik bilan foydalanish darajasi faqatgina inson mehnatiga bog'liq. Ishlab chiqarish jarayoni natijasi, eng avvalo, korxonani ishlab chiqarish xodimlari bilan ayniqsa, asosiy ishchilar bilan ta'minlanganligi ularning qo'nimsizlik darajasiga, malakasini oshishiga, mehnatni asosiy fondlar bilan qurollangan darajasiga, ish vaqtida samarali unumli foydalanish darajasiga, ishlab chiqarish va mehnat sharoitiga, ishchilarni moddiy rag'batlantirilishiga bog'liq va ular o'z aksini mehnat unumdorlik ko'rsatkichida namoyon qiladi. Aynan mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmini shakllanishi va o'sishi mehnat unumdorlik ko'rsatkichiga bog'liq. Mehnat unumdorligining natijaviy va sig'im ko'rsatkichi sabab nafaqat mehnat darajasi, balki unda mehnat qurollari va predmetlaridan foydalanish darajasi ham o'z aksini topadi. Asosiy fondlardan, xomashyo va materiallardan samarali foydalanish


ko'rsatkichlari fond qaytini va material sig'imi, mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmida o'z aksini mehnat unumdorlik ko'rsatkichi orqali namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham korxonani asosiy va aylanma fondlar bilan ta'minlanganlik darajasi va ulardan samarali foydalanish darajasining tahlilini mehnat unumdorlik ko'rsatkichiga ta'siri nuqtayi nazardan ko'rish kerak. Xuddi shuning uchun ham mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmiga omillar ta'sirini o'rganishda mehnat ko'rsatkichlarini bajarilishini tahlil qilishdan boshlanadi.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshishiga, mahsulot tannaxini kamayishiga, foyda miqdorini oshirishga hamda boshqa bir qator texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarining yaxshilanishi korxonani mehnat resurslari bilan ta'minlanish darajasiga bog'liq. Mehnat ko'rsatkichlarining bajarilish darajasi mashina va jihozlardan maksimal foydalanish, ishlab chiqarishni bir maromda amalga oshirilishi mehnat unumdorligini o'sishiga ta'sir ko'rsatadi.

Tahlilning asosiy maqsadi mehnat ko'rsatkichlar rejasini bajarilishini har tomonlama chuqur o'rganib yutuq, kamchilik, xato va imkoniyatlarni ochib tashlab, ularga ta'sir qilgan omillarni aniqlagan holda ularni bartaraf qilish, chora tadbirlarini ishlab chiqib, ishlab chiqarishga tatbiq qilishdir.

Mehnat ko'rsatkichlari tizimi va ularni tahlil qilish tartibi quyidagi chizmada berilgan.

Mehnat ko'rsatkichlari tizimi va ular orasidagi bog'lanish



5-chizma.

Mehnatdan foydalanish birlamchi ko'rsatkichi (o'rtacha mehnat unumdorligi, mehnatni me'yorlash koeffitsiyenti) ishlab chiqarishni mexanizatsiya va avtomatizatsiyalash darajasiga, mehnatni texnik qurollanganlik darajasiga, qo'llanilgan texnika va texnologiyani progressivligiga yangi texnikani joriy etish, eskirgan mashina va jihozlarni almashtirish, mahsulotni ishonchiligi mehnat va ishlab chiqarishni tashkil qilishni takomillashtirish, ish vaqtidan samarali foydalanish ko'rsatkichlari «mehnat resurslaridan foydalanish» blokiga kiruvchi ko'rsatkichlardir.

Bu blokdan chiqadigan va «mahsulot hajmi, strukturasi, sifati» hamda «mahsulot tannarxi» bloklari bilan bog'liqlikni ta'minlaydigan natijaviy chiquvchi ko'rsatkich ishchilarni o'rtacha mehnat unumdorligi va ularni ish haqi fondidir.

5.2. Korxonani ishlab chiqarish xodimlari bilan ta'minlanganlik darajasi tahlili

Ishlab chiqarish korxonasining muvaffaqiyatli faoliyati, avvalo, uni ishlovchilar bilan ayniqsa, moddiy boyliklar yaratish bilan band bo'lgan ishchilar bilan ta'minlanish darajasiga bog'liq. Shuning uchun tahlil korxonani barcha toifadagi xodimlar bilan ta'minlanganlik darajasini o'rganishdan boshlanadi.

Tahlil uchun dastlabki ma'lumotlar «I-T» formasidan olinadi.

Korxonani ishlovchilar bilan ta'minlanish holati tahlili

16-jadval

Ishlovchilar toifasi	Reja bo'yicha	Hisobot bo'yicha	Farqi	
			Absolut	Rejaga nisbatan, % da
1. Ishlab chiqarish xodimlarining o'rtacha ro'yxatdagi soni.	3204	3332	+128	103,0
Shu jumladan:				
- ishchilar	2647	2746	+99	103,0
- injener-texnik xodimlar va xizmatchilar	557	586	+29	105,0

Xulosa: jadval ma'lumotlari korxonada reja bo'yicha 3204 kishi ishlashi ko'zda tutilgan bo'lsa, haqiqatda esa 3332 kishi ishlaganini ko'rsatmoqda, ya'ni rejaga nisbatan 128 kishi ortiqcha ishlatilganini ko'rish mumkin.

Ushbu holat korxonani ishchilar bilan to'la ta'minlanganligini ko'rsatmaydi. Buning uchun ishlovchilar orasidagi nisbiy farqni, ularning malaka darajasini, harakatini va qo'nimsizligini ko'rib chiqish kerak bo'ladi.

Ma'lumki ishchilar mahsulot ishlab chiqarish hajmiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Mehnat unumdorligi rejasi o'zgarmagan holda, mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sishi munosabati bilan ishchilar soniga bo'lgan talab ham oshadi. Shuning uchun ham korxonani ishchilar bilan ta'minlanganlik darajasi alohida tahlil qilinadi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmini o'zgarishini e'tiborga olib, ikki hisob yo'lini qabul qilish mumkin.

1. Ishchilar soni bo'yicha mutlaq ortiqchalik yoki kamlik. Buni haqiqatdagi va rejada belgilangan ishchilar sonini solishtirish orqali aniqlanadi.

$$I_s^r \leftarrow - \rightarrow I_s^x$$

2. Ishchilar soni bo'yicha nisbiy ortiqchalik yoki kamlik. Buni aniqlash uchun ishchilarning rejadagi soni haqiqiy bajarilgan mahsulot hajmiga ko'paytirib ishchilarni o'zgartirilgan rejadagi sonini haqiqiy ishchilar soni bilan solishtirib aniqlanadi.

$$I_s^r \leftarrow - \rightarrow I_s^x$$

$$I_r^{uz} = \frac{I_c^p \cdot \%Q \cdot K}{100}$$

Bu yerda, % Q – mahsulot hajmining bajarilish foizi;

K – mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'sishini e'tiborga olgan holda ishchilar soni o'sish koeffitsiyenti.

Bizning misolimizda, mahsulot ishlab chiqarish hajmini 100% bajarish uchun 2647 ishchi rejalashtirilgan edi. Haqiqatda esa 2747 kishidan foydalanilgan. Mahsulot ishlab chiqarish hajmini 108%ga bajarilganini e'tiborga olganimizda ishchilarning o'zgartirilgan rejadagi soni quyidagiga teng bo'ladi.

$$I_{s.r.}^{uzg} = \frac{2647 \cdot 108,1}{100} = 2861 \text{ kishi}$$

Hisob-kitob natijalari quyidagi 17-jadvalda aks ettiriladi.

Asosiy ishchilar bilan ta'minlanganlik holati tahlili

17-jadval

Ishlovchilar toifasi	Reja bo'yicha	Haqiqatda	O'zgartirilgan reja	Farqi	
				Mutlaq	Nisbiy
Ishchilar	2647	2746	2861	+99	-115

Xulosa: jadval ma'lumotlari haqiqatda ishchilar soni bo'yicha mutlaq farq 99 kishini tashkil etganini ko'rsatmoqda. Korxonada mahsulot ishlab chiqarish hajmini rejaga nisbatan 8,1% ga oshirib bajargan. Rejalashtirilgan mehnat unumdorligi darajasini saqlagan holda mahsulot ishlab chiqarish hajmini 108,1% bajarish uchun 2647 kishi emas, balki 2861 ishchi zarur bo'lar edi. Ya'ni rejaga nisbatan 214 (2861-2647) ishchi ko'p bo'lishi kerak. Korxonada bo'yicha mehnat unumdorligini oshishi hisobiga 214 ishchi o'rniga faqat 99 qo'shimcha ishchidan foydalanilgan xolos. Shunday qilib, mehnat unumdorligining o'sishi hisobiga ishchilar sonini 115 kishiga tejashga erishilgan.

5.3. Ishchilarning malaka darajasini xarakterlovchi ko'rsatkichlar tahlili

Mehnat unumdorligining o'sishi, mahsulot sifati, asosiy fondlardan, xomashyo va materiallardan foydalanish darajasi hamda mehnat intizomi holati, ishchilarning malaka darajasiga bog'liq. Shuning uchun ham korxonalarda ishchilar malakasini oshirishga doimo e'tibor berish zarurdir. Ushbu maqsadda quyidagi 18-jadval ma'lumotlari asosida ishchilarning malaka darajasiga baho beriladi.

Ishchilarning malaka tarkibi tahlili

18-jadval

Malaka darajasi	Tarif koeffitsiyenti	Yil oxiridagi ishchilar soni	
		O'tgan yil	Hisobot yili
1	1	305	292
2	1,3	441	201
3	1,69	509	585
4	1,96	680	710
5	2,27	561	593
6	2,63	305	365
O'rtacha malaka darajasi		3,59	3,80
O'rtacha tarif koeffitsiyenti		1,84	1,90

Xulosa: jadval ma'lumotlari hisobot yilida o'rtacha tarif darajasi 3,80 ga teng bo'lganini ko'rsatmoqda. Bu o'tgan yilga nisbatan 0,21 punktga yuqori bo'lib, o'rtacha tarif koeffitsiyenti ham mos ravishda o'tgan yili 1,84 bo'lsa, hisobot yili 1,90 ni tashkil etgan. Ishchilar o'rtacha tarif razryadining o'sishni mehnat unumdorligini oshishidan, mahsulot sifati yaxshilanishidan, mehnat intizomini mustahkamlanganligidan dalolat bermoqda. Malaka darajasi oshishi natijasida o'rtacha tarif koeffitsiyenti ham oshib, o'rtacha ish haqi o'sishini ta'minlaydi.

Ishchilarning malaka darajasi ko'p jihatdan ishchilarning yoshiga, ish stajiga, ma'lumotiga hamda moddiy rag'batlantirishga bog'liq.

Shuning uchun ishchilar tarkibini ushbu belgilar asosida o'rganishda davom ettiramiz.

Mehnat resurslarining yosh tarkibi tahlili

19-jadval

Ishchilar guruhi	Solishtirma ulushi, %	
	O'tgan yilda	Hisobot yilida
Ishchilar yoshi bo'yicha, yil		
20 yoshgacha	15	16
20 yoshdan 30 gacha	23	24
30 yoshdan 40 gacha	23	20
40 yoshdan 50 gacha	20	18
50 yoshdan 60 gacha	14	15
60 yoshdan yuqori	5	7
JAMI:	100	100

Xulosa: ma'lumotlar korxonada ishchilarning yoshi jihatdan o'zgarishlar yuz berayotganini, ya'ni 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan ishchilarning solishtirma ulushi ortishi bilan 30 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan ishchilarning solishtirma ulushi kamayotganini ko'rsatmoqda. Bunday holat korxonadan yuqori malakaga ega bo'lgan ishchilarning kamaygan va past malakali ishchilarning ishga qabul qilinarayotganligidan dalolat bermoqda. Bu esa mahsulot sifatining pasayishiga va mehnat unumdorligining kamayishiga olib keladi.

Ma'lumki, ishchilar malaka tarkibining o'zgarishi ularning qo'nimsizligi asosida vujudga keladi, shuning uchun ularning qo'nimsizlik ko'rsatkichlarini o'rganish kerak bo'ladi. Buning uchun esa ishchilar harakat dinamikasini tahlil qilamiz va zurrur ko'rsatkichlarni aniqlaymiz.

Ishchilar harakati haqidagi ma'lumotlar

20-jadval

Ko'rsatkichlar	O'tgan yili	Hisobot yili
1. Sanoat ishlab chiqarish xodimlari soni, kishi.	2304	3332
2. Qabul qilinganlar soni.	200	225
3. Ishdan ketganlar (bo'shaganlar) soni. Jumladan:	82	98
-o'z xohishi bilan;	80	97
-mehnat intizomini buzganligi sababli bo'shatilgan ishchilar soni.	2	1
4. Yil oxiridagi sanoat ishlab chiqarish xodimlari soni.	3204	3337
5. Xodimlarning ro'yxatdagi o'rtacha soni.	3204	3332
6. Qabul qilish bo'yicha xodimlarning aylanish koeffitsiyenti.	0,06	0,07
7. Xodimlar ishdan bo'shashi bo'yicha aylanish koeffitsiyenti.	0,06	0,07
8. Xodimlar qo'nimsizligi koeffitsiyenti.	0,02	0,03
9. Xodimlarning turg'unlik koeffitsiyenti.	0,94	0,93

Xulosa: jadval ma'lumotlari hisobot yilida ishchilar soni 123 kishiga (3337: – 3204) oshganligi, shuningdek, xodimlarni ishga qabul qilish bo'yicha aylanish koeffitsiyenti 0,07 ga teng bo'lgani, o'tgan yili esa bu 0,06 ga teng ekanligini ko'rsatadi. Xodimlar ishdan bo'shashi bo'yicha aylanish koeffitsiyenti ham shunga teng bo'lgan. Ushbu holat, o'z navbatida, kadrlar qo'nimsizligi koeffitsiyentini o'tgan yilga nisbatan oshganligiga sabab bo'lgan. Qo'nimsizlik koeffitsiyenti o'tgan yili 0,02 bo'lsa, hisobot yili esa 0,03 ga teng bo'lgan. Bu esa o'z navbatida korxonaning asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarining pasayishiga sabab bo'ladi.

5.4. Ish vaqtidan foydalanish darajasining tahlili

Mehnat resurslaridan samarali foydalanishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri ish vaqtidan to'la, oqilona foydalanish bo'lib hisoblanadi. Ish vaqtidan oqilona foydalanish asosida smenalik koeffitsiyentini va jihozlarni ish vaqtini hamda mehnat unumdorligining yuqori bo'lishi ta'minlanadi. Mehnat resurslaridan samarali foydalanish

darajasini bilish uchun, avvalo, ish vaqtdan foydalanish bo'yicha ma'lumotlarni o'rganish kerak bo'ladi. Ish vaqtdan foydalanishni ifodalash uchun quyidagilar aniqlanadi.

1. Ishlangan odam kun, bu quyidagicha aniqlanadi:

$$I_{ish,k} = H_c \cdot K$$

Bu yerda,

I_s – ishchilar soni,

K – bir ishchi tomonidan yil davomida ishlangan o'rtacha ish kunlari soni.

Lekin bu ko'rsatkich ishlangan ish vaqti bo'yicha aniq ma'lumotni bermaydi, chunki ish kuni davomiyligidan qat'i nazar, u ishlangan odam kuni bo'lib hisoblanadi.

Ish vaqtdan foydalanish darajasiga aniq baho beruvchi asosiy ko'rsatkichlardan biri bu ishlangan odam soati, chunki ishlangan ish soati bo'lib 55 minutdan kam ishlanmagan vaqt hisoblanadi. Ishlangan odam soati quyidagicha aniqlanadi:

$$I_{ish,s} = H_s \cdot K \cdot T_{sm}$$

bu yerda, T_{sm} – smena davomiyligi.

Ish vaqtdan foydalanish tahlili har qaysi toifadagi ishlovchilar hamda korxonaga bo'yicha to'liq olib boriladi.

Ish vaqtdan foydalanish darajasini aniqlash uchun quyidagi ma'lumotlardan foydalaniladi.

Ish vaqtdan foydalanish tahlili

21-jadval

Ko'rsatkichlar	Hisobot yili		Mutlaq farq
	Reja	Haqiqiy	
1. Ishchilarning o'rtacha yillik soni, kishi, (I_s)	2647	2746	+99
2. Bir ishchi tomonidan bir yilda ishlangan ish kunlari soni, (K)	232	229	-3
3. Ish kunining o'rtacha davomiyligi, (T_{sm})	8	7,45	-0,55
4. Jami bir yilda ishlangan odam soat	491283,2	4684813,3	-228,019

Xulosa: ma'lumotlar hisobot yilida ish vaqti bo'yicha yo'qotishlar – 228,019 odam soatni tashkil etganini ko'rsatmoqda. Ish vaqtdan foydalanishga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi. Ular quyidagi tartibda aniqlanadi:

1. Ishchilar sonining o'zgarishi hisobiga

$$\Delta I_{\theta_1} = (I_{cx} - I_{cp}) \cdot K_p \cdot T_{cm,p} = 99 \cdot 232 \cdot 8 = +183744 \text{ odam-soat}$$

2. Ish kunlarining o'zgarishi

$$\Delta I_{\theta_2} = (K_x - K_p) \cdot T_{cm,p} \cdot I_{cx} = (-3) \cdot 8 \cdot 2746 = -65904 \text{ odam-soat}$$

3. Ish kuni davomiyligining o'zgarishi hisobiga

$$\Delta I_{\theta_3} = (T_{cm,x} - T_{cm,p}) \cdot I_{cx} \cdot K_x = (745 - 8) \cdot 2746 \cdot 229 = -345858,7 \text{ odam-soat}$$

Yuqoridagi barcha omillar yig'indisi

$(+183744) + (-65904) + (-345858,7) = 228018,7$ kishi soat yoki 228,019 ming odam soat.

Xulosa: hisob-kitob ishlari korxonada ish kunini davomidagi yo'qotganligi sababli 65,904 ming odam soat, ish kuni davomiyligining qisqarishi sababli 345,858 ming odam soat ish vaqtdan yo'qotilganini ko'rsatmoqda.

Ish vaqti bo'yicha jami yo'qotishlar 411,76 ming odam soatni tashkil etadi $(65,904 + 345,858)$.

Korxonada jamoasi ish vaqti bo'yicha yo'qotishlarni qoplash maqsadida tezkor ravishda yil mobaynida qo'shimcha 99 ishchi ishga qabul qilib, ular hisobiga qo'shimcha 183,749 ming kishi-soat ishlangan.

Qo'shimcha ish kuchidan foydalanish evaziga ish vaqti bo'yicha yo'qotishlarning bir qismini qoplangan holda mahsulot ishlab chiqarish rejasini 108,1%ga bajarishga erishilgan.

Ish vaqti bo'yicha yo'qotishlar, o'z navbatida, mehnat unumdorligi darajasiga ham ta'sir ko'rsatadi. Agar qo'shimcha 99 ishchini jalb qilinmaganda yil mobaynida haqiqiy yo'qotilgan vaqt 228,019 ming odam soat emas, 41676 ming odam soatni tashkil qilardi.

Agar 228,019 ming odam soat yo'qotilmaganda mahsulot ishlab chiqarish rejasini 108,1%ga 99 ta ishchini qo'shimcha jalb qilmay, bajarish mumkin edi. U holda ish haqi fondi tejalib mahsulot tannarxi pasayardi.

Kun bo'yi yo'qotishlar hamda smena ichida yo'qotishlar sababini aniqlash uchun ish vaqtining haqiqiy va reja balansi solishtiriladi.

Ish vaqti balansi tahlili

22-jadval

Ko'rsatkichlar	Bir ishchiga		Rejaga nisbatan mutlaq farq	
	Reja	Haqiqiy	Bir ishchiga	Jami ishchilarga
1	2	3	4	5
1. Kalendar kunlar soni.	365	365	-	+36135
2. Bayram va dam olish kunlari.	101	101	-	+9999
3. Ish vaqtining nominal fondi.	254	254		+25146
4. Ish vaqtidan imtiyozli yo'qotishlar.	22	25	+3	10416
Jumladan:				
- navbatdagi mehnat ta'tillari;	14	15	+1	+4132
- o'qish bilan bog'liq ta'til;	1	1	-	99
- tug'ruq bilan bog'liq ta'til.	2	1	-1	-2548
5. Adminstratsiya ruxsati bilan berilgan qo'shimcha ta'til kunlari.	3	3	-5274	+5247
6. Kasallik kunlari.	2	3	+1	2944
7. Progullar.	-	1,5	+1,5	+4119
8. Tanaffuslar.	-	0,5	+0,5	+1373
9. Haqiqiy ish vaqti fondi.	232	229	-3	+14430
10. Smena davomiyligi (soat).	8	7,45	-0,55	-718,3
11. Ish vaqti budjeti, s.	1856	1706,05	-149,95	-227992,3
12. Bayram oldi qisqariladigan soatlar.	20	20	-	+1980

13. O'smirlar uchun imtiyozli soatlar, s.	1	1,5	+0.5	+1472
14. Bolali ayollarga ish davomida beriladigan tanaffuslar.	3	5	+2	+5789
15. Smena ichidagi tanaffuslar, s.	26,5	42,15	+15.65	+45598,4
16. Ish vaqtining samarali fondi.	1809,5	1637,4	-1721	+21968
17. Ishdan keyingi ishlangan ish soatlari, s.	-	8	+8	+27460
18. Unumsiz ish vaqti. s.	-	10	+10	

Xulosa: jadval ma'lumotlari bir ishchiga to'g'ri keluvchi haqiqiy ish vaqti fondi 3 kunga, barcha ishchilarga esa 14430 odam kunga kamayganini ko'rsatmoqda. Bunga, asosan, kasallik kunlarini barcha ishchilarga hisoblaganda 2944 odam kunga, tanaffuslarning 1373 odam kunga hamda progullarning 4119 odam kunga oshib ketishi sabab bo'lgan. Shuningdek, ish vaqti davomiyligini 0,05 soatga qisqarishi ish vaqti budjetini ham kamayishiga sabab bo'lib, bu esa jami 228,019 ming odam soatni yo'qotilishiga olib kelgan.

Yuqorida keltirilgan vaqtdan yo'qotishga sabab bo'lgan ko'rsatkichlarni chuqur tahlil qilib, ularga ta'sir qilgan omillarni aniqlab, bartaraf qilish maqsadida chora-tadbirlar ishlab chiqilsa va ishlab chiqarishga tatbiq etilsa, texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarni o'sishiga erishish mumkin.


5.5. Mehnat unumdorligi rejasining bajarilishi tahlili

Mehnat resurslaridan intensiv va samarali foydalanishning yakuniy natijasi sifatida qiymat shaklida bir ishchiga va bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha soatlik, o'rtacha kunlik hamda o'rtacha yillik mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari hisoblanadi. Mehnat unumdorligi esa o'z navbatida, ishchilarning umumiy ishlovchilar tarkibidagi ulushiga, ishlangan ish kunlari, smena davomiyligiga hamda ishchilar malakasiga bog'liqdir. Mehnat unumdorligi darajasiga ta'sir qiluvchi omillar quyidagi chizmada beriladi.

Chizmadan ko'rinib turibdiki, mehnat unumdorlik ko'rsatkichiga ishlab chiqarish resurslaridan samarali intensiv foydalanish natijaviy

ko'rsatkichlari o'z aksini topgan. Ya'ni mehnat unumdorlik ko'rsatkichi korxonani ko'p qirrali faoliyatini aks ettiradi.

Mehnat unumdorligiga ta'sir qiluvchi omillar



6-chizma.

O'rtachi yillik ish unumdorligining shakllanishi o'rtachi kunlik va o'rtacha soatlik ish unumdorligiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun o'rtacha soatlik ish unumdorligini chuqur tahlil qilish talab etiladi. O'rtacha soatlik ish unumdorligini tahlil qilishda mehnatni asosiy fondlar bilan qurollanganlik darajasi, ishchilarning o'rtacha malaka darajasi, jihozlarni xizmat qilish muddatlari alohida o'rganiladi.

Quyidagi 23-jadval ma'lumotlari asosida mehnat unumdorligi darajasiga baho berish mumkin.

Mehnat unumdorligi rejasining bajarilish tahlili

23-jadval

Ko'rsatkichlar	Ishchilar tomonidan ishlangan ish soatlari, ming kishi soat	Ishchilarning o'rtacha ro'y-hatdagi soni, kishi	Xodimlarning o'rtacha ro'y-hatdagi soni, kishi	Tovar mahsulot hajmi, ming so'm	Bir ishchining ish unumi		Bir xodimning o'rtacha yillik ish unumi, ming so'm
					Yilda, ming so'm	Bir soatda, ming so'm	
1. O'tgau yilda	4780,000	2697	3301	5277960	1957	1,10417	1599
2. Hisobot yilining rejasi bo'yicha	4912,832	2647	3204	5330740	2014	1,08506	1664
3. Hisobot yili haqiqatda	4684,813	2746	3332	5757199	2097	1,22	1728
4. O'tgan yilga nisbatan o'sish foizi					107	111	108
5. Rejaga nisbatan o'sish foizi					104	113	104

Xulosa: jadval ma'lumotlari korxonada bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha bir soatlik mehnat unumdorligi o'tgan yilga nisbatan 111% ga, rejaga nisbatan esa 113%ga bajarilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, korxonada joriy yilgi reja bo'yicha o'tgan yilga nisbatan mehnat unumdorligini past rejalagan, ya'ni 1,10417 1,08506 so'm korxonada yengilgina reja qabul qilib, uni osongina ortig'i bilan bajargan. Mehnat unumdorligini rejalashda

imkoniyatlar hisobga olinmagan. Bu mavjud imkoniyatlar yengil rejani 113% bajarishda o'z aksini topdi.

Tahlilni mehnat unumdorligini o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganishda davom ettiramiz.

Ma'lumki, mehnat unumdorligiga bir ishchi tomonidan yilda ishlangan ish kunlari, ish kuni davomiyligi va soatli ish unumi ta'sir ko'rsatadi. Bu bog'lanishni quyidagicha ifodalash mumkin.

$$M_{u,y} = K \cdot T_{sm} \cdot M_{u,s}$$

Bu yerda, $M_{u,y}$ – o'rtacha yillik mehnat unumdorligi;

$M_{u,s}$ – o'rtacha soatli mehnat unumdorligi.

Bu bog'lanish tarkibidagi omillar ta'sirini alohida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hisoblar quyidagi tartibda olib boriladi:

1. Ishlangan ish kunlarining o'zgarishi

$$\Delta M_{y_1} = \Delta K \cdot T_{sm,r} \cdot M_{u,s,r} = -3 \cdot 8 \cdot 1,085 = -26,04 \text{ ming so'm.}$$

2. Ish kuni davomiyligi

$$\Delta M_{y_2} = K_x \cdot \Delta T \cdot M_{u,s,r} = 229 \cdot (-0,55) \cdot 1,085 = 136,66 \text{ ming so'm.}$$

3. O'rtacha soatli mehnat unumdorligining o'zgarishi

$$\Delta M_{y_3} = K_x \cdot \Delta T_u \cdot \Delta M_{u,s} = 229 \cdot 7,45 \cdot (1,22891 - 1,08506) = 245,41 \text{ ming so'm.}$$

Jami: $(-26,04) + (-136,66) + (+245,41) = 82,0$ ming so'mga oshgan.

Xulosa. Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, bir ishchining yillik mehnat unumdorligiga ish kunlarini 3 kunga qisqarishi hisobiga 26,04 m.s. ish kunining davomiyligini qisqarishi hisobiga 136,66 m.s. jami 162,7 m.s. ga yillik mehnat unumdorligi kamaygan. Lekin joriy yili korxonada ishlab chiqilgan tashkiliy-texnikaviy va iqtisodiy chora-tadbirlarni ishlab chiqarishga tatbiq qilganligi tufayli bir soatlik mehnat unumdorligi rejaga nisbatan (1,08506 1,22891) o'sganligi tufayli yillik mehnat unumdorligi 245,41 m.s. ga oshgan. Lekin bu ijobiy natijani bir qismi yuqorida keltirilgan yo'qotishlarni qoplashga sarf qilingan va haqiqatda bir ishchining yillik mehnat unumdorligi rejaga nisbatan 82 m.s. ga oshgan. Agar joriy yili yuqoridagi omillar ta'sirida bir ishchining yillik unumdorligi 162,7 m.s. ga pasaymaganda, haqiqiy yillik unumdorlik 2097 m.s. emas,

(2097+245.41)= 2342.41 m.s. ni tashkil qilar edi. U vaqtda mahsulot ishlab chiqarish hajmi rejaga nisbatan 108,1 % ga emas, undan yuqori bo'lib, mahsulot sotish hajmi ko'payib, daromadni va foydani o'sishi ta'minlanar edi.

5.6. Mehnat ko'rsatkichlarini mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sirini aniqlash

Korxonaning ishchi kuchi bilan ta'minlanganlik holati, ish vaqtdan foydalanish hamda mehnat unumdorligi darajasi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lgan holda ularni mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sirini aniqlaymiz. Ma'lumki mahsulot hajmi 108,1 %ga yoki 426459 ming so'mga oshirib bajarilgan. Bunga quyidagilar sabab bo'lgan:

1. Rejadan ortiq ishchilar sonini qabul qilinishi natijasida 199577 ming so'mlik qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarilgani.

$$+183744 \cdot 1,08506 = +199577 \text{ ming so'm.}$$

2. Jami ishchilar tomonidan bir yilda ishlanmagan ish kunlari hisobiga 71509 ming so'mlik mahsulot ishlab chiqarilmagan.

$$-65904 \cdot 1,08506 = -71509 \text{ ming so'm.}$$

3. Ish kuni davomiyligining o'zgarishi hisobiga jami 375277 ming so'mlik mahsulot ishlab chiqarilmagan.

$$-345858,7 \cdot 1,08506 = -375277 \text{ ming so'm.}$$

4. Mehnat unumdorligining o'sishi hisobiga 673650 ming so'm qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarilgani.

$$(1,22891 - 1,08506) \cdot 4684,813 = 673650 \text{ ming so'm.}$$

$$\text{Jami: } (-71509) + (-375277) + 673650 + 199577 = 426420 \text{ ming so'm.}$$

Agar korxonada joriy yili 228,019 odam soat yo'qotilmaganda korxonada haqiqatda rejadan ortiqcha 426459 m.s. mahsulotni 99 ta ishchini ortiqcha qabul qilmasdan faqatgina mehnat unumdorligini oshishi hisobiga 426459 m.s. o'rniga 673650 m.s. lik ortiqcha mahsulotni ishlab chiqarar edi va natijada ish haqi fondini tejab, mahsulot tannarxini pasaytirishga erishgan bo'lar edi.

Xulosa: demak, mahsulot ishlab chiqarish hajmi ishchilar soni va mehnat unumdorligi o'zgarishi hisobiga 87227 m.s. ortiqcha mahsulot ishlab chiqarilgan. Lekin ish kuni davomiyligining qisqarishi va ish kunlarining o'zgarishi hisobiga 446786 ming so'mlik mahsulot yo'qotilgan.

Tahlilni ish kuni davomiyligini qisqarishi va ish kunlarining to'liq ishlanmasligi sabablarini aniqlashda davom ettirish mumkin.

5.7. Mehnat resurslaridan samarali foydalanish ko'rsatkichlari tahlili

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarda mehnat resurslaridan samarali foydalanishga baho beradigan xodimlar rentabelligi katta ahamiyatga ega va bu ko'rsatkich mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda miqdorini o'rtacha ro'yxatdagi sanoat ishlab chiqarish ishlovchilar soniga bo'lish orqali aniqlanadi.

$$R_{six} = \frac{\Phi^s}{six}$$

Bu yerda, R_{six} – o'rtacha sanoat ishlab chiqarish xodimlar soni;

Φ^s – mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda miqdori.

Bu ko'rsatkichni omillar bo'yicha modeli quyidagicha ifodalanadi

$$\frac{\Phi}{six} = \frac{\Phi}{sod} * \frac{sod}{imx} * \frac{imx}{six} = SMR * SMU * MU$$

Bu yerda, Φ – mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda miqdori;

six – sanoat ishlab chiqarish xodimlari soni;

sod – mahsulot sotishdan olingan daromad;


imx – ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi;

SMR – sotilgan mahsulot rentabelligi;

SMU – ishlab chiqarilgan mahsulot tarkibida sotilgan mahsulotni ulushi;

MU – o'rtacha bitta ishlovchini ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi pul miqdorida.

Formulada keltirilgan bog'lanishni quyidagi chizmada ko'rish mumkin



7-chizma.

Bu model ishlovchiga to'g'ri keladigan foyda miqdori sotilgan mahsulot rentabelligi, ishlab chiqarilgan mahsulot tarkibida sotilgan mahsulot tarkibida sotilgan mahsulot ulushini va mehnat unumdorligi ta'sirini aniqlash mumkin.

Xodimlar rentabelligiga ta'sir qiladigan omillar tahliliga ma'lumotlar

24-jadval

№	Ko'rsatgichlar	Reja	Haqiqiy	O'zgarish ±
1.	Sotilgan mahsulotdan olingan foyda m.s.	8287	8596	+279
2.	Ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmi m.s.	5387505	5823507	+436002
3.	Sotishdan olingan yalpi daromad m.s.	5246567	5604599	+358032
4.	Ishchilarni o'rtacha ro'yxatdagi soni	3204	3332	+128
5.	Sotilgan mahsulotni rentabelligi %	17,3	17,5	+0,2
6.	Ishlab chiqarilgan mahsulot tarkibida sotilgan mahsulot ulushi	0,9738	0,9624	-0,44
7.	Bitta ishchini o'rtacha yillik ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi	1664	1728	+64
8.	Bitta ishlovchiga to'g'ri keladigan foyda miqdori m.s.	2,5867	2,5650	21

Bitta ishlovchiga to'g'ri keladigan foyda miqdori 21 ming so'mga kamaygan, shu jumladan,

a) Mehnat unumdorligi o'zgarishi hisobiga.

$$\Delta R_{six} = \frac{\Delta MU \cdot \Delta SMU \cdot SMR'}{100} = \frac{64,0 \cdot 0,9738 \cdot 17,3}{100} = +108$$

b) Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmida sotilgan mahsulot ulushi hisobiga.

$$\Delta R_{six} = \frac{\Delta MU^x \cdot \Delta SMU \cdot SMR'}{100} = \frac{17,28 \cdot (-0,114) \cdot 17,43}{100} = -133 \text{ m.s}$$

d) Sotilgan mahsulot rentabelligi hisobiga.

$$\Delta R_{six} = \frac{MU^x \cdot SMU^x \cdot SMR}{100} = \frac{17,28 \cdot 0,9624 \cdot 0,2}{100} = +45 \text{ m.s}$$

Xulosa: keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, bitta ishlovchiga to'g'ri keladigan foyda miqdori 21 m.s. ko'paygan. Bunga sotilgan mahsulot ulushini 0,44 % kamayishi hisobiga 133 m.s. kamaygan. Agar mehnat unumdorligi 64 m.s. va sotilgan mahsulot rentabelligi 1728 m.s. oshmaganda, bu yo'qotish yana ham ko'payar edi. Shuning uchun bu yo'qotishlar sababini aniqlash maqsadida tahlilni chuqurlashtirib, salbiy omillarni aniqlab, ularni bartaraf qilish maqsadida chora-tadbirlar ishlab chiqish lozim.

Bilimni tekshirish va mustahkamlash uchun savollar

1. Korxonaning mehnat resurslari bilan ta'minlanishi holati tahlilining asosiy mohiyati, maqsadi, vazifalari.

2. Ish vaqtidan kun bo'yi yo'qotishlar va smena ichidagi yo'qotishlar qanday aniqlanadi?

3. Ish vaqtidan yo'qotishlarning asosiy sabablarini sanab o'ting.

4. Mehnat unumdorligining asosiy ko'rsatkichlar tahlili uslubiyatini tavsiflang.

5. Mehnat unumdorligiga ta'sir qiluvchi omillarni tavsiflang.

6. Mehnat unumdorligining oshirish yo'nalishlarini tavsiflang.

7. Ish vaqti balansi tahlili uslubiyatining tavsiflang.

8. Bir ishchining o'rtacha yillik, o'rtacha kunlik, o'rtacha soatlik ish unumdorligiga ta'sir qiluvchi omillarni tavsiflang.

**KORXONANING ASOSIY FONDLAR BILAN
TA'MINLANISH DARAJASI VA ULARDAN SAMARALI
FOYDALANISH TAHLILI**

6.1. Korxonaning asosiy fondlar bilan ta'minlanish darajasi tahlili

Asosiy fondlar sanoat korxonalarining moddiy-texnika bazasi hisoblanadi. Texnik qurollanishning oshishi, asosiy fondlardan samarali foydalanish mahsulot ishlab chiqarish hajmiga, mehnat unumdorligining oshishiga, mahsulot tannarxining kamayishiga olib keladi.

Jihozlardan foydalanishni yaxshilash katta ahamiyatga ega, o'ziga xos barcha turdagi ta'mirlash ishlarining va sodir etiladigan baxtsiz hodisalarning oldini olishdan iboratdir.

Doimiy harakatdagi asosiy fondlarni modernizatsiya qilish muhim ahamiyatga ega bo'lib, u orqali jihozlardan foydalanishning yaxshilanishi va asosiy fondlar yeyilishining kamayishiga erishish mumkin.

Mashina va jihozlar asosiy vositalarning faol qismi bo'lib hisoblanadi, ular mahsulot tayyorlash texnologik jarayonida bevosita qatnashadi va ularning ko'payishi bilan mahsulot hajmi ham ko'payadi.

Asosiy vositalardan foydalanishni tahlil qilishdan maqsad:

1. Korxonaning asosiy fondlar bilan ta'minlanganlik darajasi va asosiy fondlar tarkibi, foydalanish darajasi ko'rsatkichlarini umumlashgan holda o'rganish.


2. O'sish darajasining o'zgarish sabablarini aniqlash.

3. Asosiy fondlardan foydalanish darajasining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga va boshqa ko'rsatkichlarga ta'sirini tahlil qilish.

4. Asosiy fondlardan samarali foydalanishning oshishi yo'nalishlarini, imkoniyatlarni belgilash va ulardan to'laroq foydalanish choratadbirlarini ishlab chiqish.

Tahlil uchun №3-f «Asosiy fondlar harakati hisobi», statistik ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Jihozlardan va asosiy fondlardan foydalanish ko'rsatkichlari tahlili



8-chizma.

Jihozlardan va asosiy fondlardan foydalanish blokiga kiruvchi ko'rsatkichlar quyidagilar:

A). Ishlab chiqarish ilmiy-texnika darajasi va ishlab chiqarishni avtomatizatsiyalash ko'rsatkichlari.

B). Texnologik jarayonlarni mahsulot konstruksiyasini va yangi texnikani progressivlik ko'rsatkichlari.

D). Yangi texnikani joriy qilish va ularni o'zlashtirish.

Asosiy fondlar blokidan chiqadigan natijaviy ko'rsatkichlarga asosiy fondlar qaytimi va asosiy fondlar amortizatsiya ajratmasi bo'lib, shu ko'rsatkichlar orqali «mahsulot ishlab chiqarish va uni tarkibi va sifati» va «mahsulot tannarxi» bloki bilan bog'lanishni ta'minlaydi.

Korxonani mehnat ko'rsatkichlari bilan ta'minlanganlik darajasini tahlili ularni o'tgan yil ma'lumotlari bilan solishtirib, o'sish dinamikasini tahlil qilishdan boshlaymiz.

Korxonaning asosiy fondlar bilan ta'minlanganligi va tarkibi tahlili

25-jadval

№	Asosiy vositalar turlari	O'tgan yil		Joriy yil		O'zgarishi(+/-)	
		Ming so'mda	Salmog'i, %	Ming so'mda	Salmog'i, %	Ming so'mda	%
1	2	3	4	5	6	7	8
1	Binolar va inshootlar	210826	40	201913	38	-8213	-2
2	Kuch mashinalari	5271	1	4782	0.9	-789	-0.01
3	Ishchi mashinalar	2635330	50	274177	51.6	+10644	+1.6
4	O'lchov asboblari	5271	1	5314	1	43	-
5	Hisoblash texnikasi	13176	2.5	14346	2.7	+1170	+0.2
6	Transport vositalari	15812	3	16472	3.1	+660	+0.1
7	Asbob va uskunalar	13176	2.5	14346	2.7	+1170	+0.2
8	Jami:	527666	100	531350	100	+4284	

Xulosa: keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, jami asosiy ishlab chiqarish fondlari 4284 ming so'mga oshgan. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining oshishida asosiy o'rinni ishlab chiqarish jihozlari va hisoblash texnikasi egallagan, ya'ni ishlab chiqarish jihozlari 10644 m.so'm yoki 1,6%, hisoblash texnikasi 1170 m.so'm., 0,2%ga oshgan. Bu o'sish mahsulot sifatining yaxshilanishi va mehnat unumdorligining oshishiga

sabab bo'lib, jihozlar umumdorligining o'sishi tovar mahsulotlari ishlab chiqarishni rejasini ortig'i bilan bajarishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Korxonada asosiy ishlab chiqarish fondi umumiy miqdorining o'sishi ular tuzilmasidagi o'zgarish bilan birgalikda ro'y bergan, ya'ni bino va inshootlar 40 foizdan 38 foizga kamaygan, mashina va jihozlar esa 50 foizdan, 51 foizga oshgan, bu ijobiy o'zgarish hisoblanadi.

6.2. Ishlab chiqarish fondlarining holati tahlili

Korxonani asosiy fondlar bilan ta'minlanganlik darajasini tahlil qilish bilan bir qatorda aktiv asosiy fondlarni yangilanish masalalarini ham tahlil qilish lozim. Har yili korxonani sotsial iqtisodiy rivojlantirish rejasini tuzganda ishlab chiqarishni yangi texnika bilan jihozlash tashkiliy texnikaviy rivojlantirish rejasi tuziladi. Korxonada asosiy fondlarini yangilanishi, takomillashuvi, ayniqsa, aktiv asosiy fondlarni jismoniy va ma'naviy yemirilishi bilan bog'liq.

Tahlilning asosiy vazifasi va maqsadi oxirgi besh yil mobaynida korxonada qanday yangilanish, kengaytirish, mavjud uex va uchastkalarni rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirilish darajasi va bu tadbirlarni korxonada texnik iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlashdir.

Korxonaning aniq ma'lumotlariga asoslanib, korxonada texnika va texnologiyani yangilanish darajasi tahlil qilinadi.

26-jadval

Yillar	Joriy yili keltirilgan jihozlar, m.s.	Yil oxiriga mavjud jihozlar, m.s.	Yangilanish, %
1998	20400	407746	
1999	21800	429476	
2000	23000	446086	
2001	22680	479956	
2002	39644	514600	
Jami	127524	455937	24

Xulosa: keltirilgan ma'lumotlardan ma'lum bo'ldiki, korxonada har yili yangi texnika xarid qilib olinadi va besh yil mobaynida 127524 ming so'mni tashkil qilgan, ya'ni 24 % mavjud aktiv asosiy fondlar yangilandi. O'rtacha har yili yangilanish 5 %ni tashkil etsa, korxonani, jihozlarni to'la-to'kis yangilash uchun yaqin 20 yil talab etiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, korxonada ilmiy-texnika taraqqiyoti natijalarini tatbiq qilish juda sust bormoqda. Bu albatta, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarga salbiy ta'sir qiladi.

Korxonada asosiy fondlarni holatiga ularni unumdorligiga va emirilish darajasiga ta'sir qiladigan omillardan biri harakatdagi mashina uskunalari, jihozlarni modernizatsiya qilish, ya'ni mashina va uskunalarni qismi detallari va uzellarini yangi konstruksiyasini o'rnatish.

Mashina va uskunalarni modernizatsiyalash deganda kapital ta'mirlash jarayonida korxonada ratsionalizatorlarini, ijodkorlarini, taktifini qo'llash natijasida jihozlarni yemirilishini kamaytirish, unumdorligini oshirish, yoqilg'i va elektroenergiya sarfini kamaytirish, mahsulot sifatini yaxshilash, chiqindilarni kamaytirish natijasida iqtisodiy samara olishdir.

Quyidagi 27-jadval ma'lumotlariga asoslanib, modernizatsiya rejasini bajarilishini va olinadigan iqtisodiy samarani tahlil qilinadi.

27-jadval

Mashina va uskunalari nomi	Reja bo'yicha	Hisobot yilida	Yillik shartli samara m.s.
1. Paxtani savalash mashinasi	15	14	13,6
2. Yo'g'on pillik mashinasi	4	2	11,2
3. Pilik mashinasi	-	10	120
4. Yigiruv mashinasi	-	3	80
Jami			224,8

Xulosa: tahlil natijasidan ko'rinib turibdiki, joriy yili bir necha turdagi to'qimachilik mashinalarini modernizatsiya qilish natijasida 224,8 ming so'm iqtisodiy samara olindi. Lekin ba'zi bir jihozlarni bo'yicha modernizatsiya rejasini har xil sabablarga ko'ra bajarilmadi va ko'zda tutilgan iqtisodiy samaraga erishilmadi. Ammo joriy yili korxonada rejada ko'rilgan modernizatsiya ishlarini tezkor holda bajardi va 200 ming so'mlik iqtisodiy samara olishga erishdi. Albatta o'tkazilgan modernizatsiya ishlari texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarni o'sishiga va jihozlarning holatini yaxshilanishiga olib keldi.

Yuqorida ko'rilgan korxonani asosiy fondlar, ayniqsa, aktiv asosiy fondlar bilan ta'minlanganlik masalalari korxonani texnik ta'minlanganlik darajasiga aniq javob berolmaydi.

Korxonaning texnik ta'minlanganlik darajasini aniq ifodalaydigan ko'rsatkich mehnatni fondlar bilan ta'minlanganlik darajasidir. Bu ko'rsatkich asosiy fondlarni yil oxiridagi qiymatini eng katta smenadagi ishchilar soniga bo'lish orqali aniqlanadi. Mehnatni asosiy fondlar bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichi ishchilarni texnik ta'minot darajasini ko'rsatadi va ishlab chiqarish jarayonida qo'l mehnatini kamayishidan dalolat beradi.

va mehnat unumdorligini o‘shirishga olib keladi. Tahlilning asosiy maqsadi ishchilarni o‘tgan yilga nisbatan bitta ishchiga to‘g‘ri keladigan hamma asosiy fondlar, ayniqsa, aktiv asosiy fondlar bilan ta‘minlanlik darajasini tahlil qilib, bu ko‘rsatkichni mehnat unumdorlik ko‘rsatkichiga, mahsulot hajmiga, uni sifatiga ta‘sirini aniqlashdir.

Quyidagi ma‘lumotlarga asoslanib, mehnatni fondlar bilan qurollanganlik darajasi tahlil qilinadi.

28-jadval

Davr	Hamma asosiy fondlar bilan ta‘minlanganlik			Aktiv asosiy fondlar bilan		
	Yil oxiriga m.s.	Eng katta smentadagi ishchilar soni	Bitta ishchiga to‘g‘ri keladigan asosiy fondlar m.s.	Yil oxiriga m.s.	Eng katta smentadagi ishchilar soni	Bitta ishchiga to‘g‘ri keladigan aktiv asosiy fondlar m.s.
O‘tgan yilda	527066	1570	335,6	263533	1570	168,0
Joriy yilda	531350	1494	356,0	274177	1494	183,6
O‘zgarish, %	+0,8	-4,8	+6,2	+4,0	-4,8	+9,3

Xulosa: ikki yillik ma‘lumotlarni taqqoslash natijasida ma‘lum bo‘ldiki, mehnatni hamma asosiy fondlar bilan ta‘minlanganligi $335,7 - 356 = 21,7$ m.s. yoki $106,2\%$ ga, aktiv asosiy fondlar bilan ta‘minlanganlik darajasi esa $(183,6 - 168) = 15,6$ m.s. yoki $109,3\%$ ga oshgan. Mehnatni aktiv asosiy fondlar bilan ta‘minlanganlik darajasini o‘shirishga sabab joriy yilda o‘tgan yilga nisbatan aktiv asosiy fondlar $274177 - 263533 = 10645$ m.s. yoki 104% ga oshganligi.

Demak, korxonada joriy yili kapital mablag‘ni maqsadga yo‘naltirilgan holda sarflangan natijada bir soatlik mehnat unumdorligi $5220 - 3240 = 280$ so‘mga yoki 109% ga oshgan va shuning hisobiga joriy yilda korxonada 115 ta ishchini tejashga erishgan.

6.3. Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi tahlili

Korxonani asosiy fondlar bilan ta‘minlanganlik darajasini, holatini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar tahlilidan so‘ng, korxonada ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi o‘rganiladi. Korxonada ishlab chiqarish quvvati deganda erishilgan yoki mo‘ljallangan texnika darajasi, korxonada

texnologiyasi, ishlab chiqarishni tashkil etish natijasida ishlab chiqarilgan eng ko'p mahsulot miqdori tushuniladi.

Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi quyidagicha ifodalanadi ($K_{i,q}$):

$$K_{i,q} = \frac{\text{haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi}}{\text{ishlab chiqarish korxonasiining o'rtacha yillik quvvati}}$$

Ishlab chiqarish quvvati miqdorining o'zgarish omillarini korxonada ishlab chiqarish quvvatining hisobot balansi asosida taqqoslama narxlarda mahsulot turlari bo'yicha aniqlanadi.

$$M_o = M_b + M_s + M_r + M_{o.t.m} + \Delta M_{as} - M_v$$

bunda, M_o, M_b – mos ravishda yil boshidagi va yil oxiridagi ishlab chiqarish quvvatlari;

M_s – yangi qurilayotgan va amaldagi korxonalarni kengaytirish hisobiga ishlab chiqarish quvvatlarining o'sishi;

M_r – amaldagi korxonalarni rekonstruksiya qilish hisobiga ishlab chiqarish quvvatlarining o'sishi;

$M_{o.t.m}$ – tashkiliy-texnik tadbirlar hisobiga quvvatning o'sishi;

ΔM_{as} – mehnat sig'imining turli darajasida mahsulot assortimentini o'zgarishi hisobiga quvvatning o'zgarishi;

M_v – mashina, jihoz va boshqa resurslarni chiqarib tashlash hisobiga quvvatning kamayishi.

Korxonada ishlab chiqarish quvvati quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$K_{im} = K_{ro} \cdot KPV$$

bunda, K_{im} – quvvatdan foydalanish koeffitsiyenti;

K_{ro} – ishlatilayotgan jihozlar koeffitsiyenti, ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashuvchi jihozning haqiqiy soni.

$$K_{ro} = \frac{P_o}{P_u}$$

bunda, P_u – sexlarda o‘rnatilgan jihozlar soni;

P_o – ayni davrdagi ishlayotgan jihozlar soni;

KPV – jihozning foydali vaqt koeffitsiyenti, ya’ni jihozning ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etgan foydali vaqt koeffitsiyenti:

$$KPV = \frac{T - P}{T}$$

bunda, T – jihoz ishlashining rejayiv davri;

P – jihozning rejadagi yoki haqiqatdagi har xil tanaffuslari.

Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish tahlili

29-jadval

Ko‘rsatkich	Reja	Haqiqatda	O‘zgarish
1. Taqqoslama narxlardan mahsulot ishlab chiqarish hajmi, ming so‘m.	5330740	5757199	+426453
2. Taqqoslama narxlarda ishlab chiqarish quvvati, ming so‘m.	6130351	6678350	547999,8
3. Quvvatdan foydalanish darajasi, %	87	86,2	-0,8

Korxonada quvvatiga smenalik koeffitsiyentini o‘zgarishi, jihozlar takomillashuvi, jihozlar unumdorligining o‘shishi hamda ish vaqtidan samarali foydalanishga bog‘liq. Shuning uchun bu ko‘rsatkichni o‘zgarishga kattalik deb qabul qilib bo‘lmaydi.

Bundan tashqari, korxonada quvvati ishlatilgan xomashyo sifati va ishlab chiqarish sharoitlarining o‘zgarishiga ham bevosita bog‘liq. Korxonaning ishlab chiqarish quvvati yakunlovchi sexlar quvvati bilan o‘lchanadi, ya’ni har bir mahsulot ishlab chiqarilgandan so‘ng, qayta ishlov berish ishlari olib borilmaydi va qolgan sexlar quvvati jihatidan yakunlovchi sex quvvatiga mos tushishi kerak.

Keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, hisobot davrida mahsulot ishlab chiqarish hajmi o‘tgan yilga nisbatan 426453 ming so‘mga oshgan. Shu bilan birga asosiy ishlab chiqarish fondlari 4284 ming so‘mga, ishchi mashina va jihozlar esa 10646 ming so‘mga oshgan.

Hisobot davrida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi o'tgan yilga nisbatan 0,8%ga kamaygan. Bu shundan dalolat beradiki, hisobot davrida 10646 ming so'mlik kiritilgan yangi jihozlar o'z vaqtida o'rnatilmagan, sozlanmagan, tayyorgarlik ishlari olib borilmagan, jihozning loyihadagi unumdorligiga erishilmagan, ish vaqtdan yo'qotishlarga yo'l qo'yilgan shuning uchun quvvatdan foydalanish darajasi kamayib ketgan.

Korxonani texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarini o'sishi birinchi navbatda ishlab chiqarish fondlaridan vaqt bo'yicha foydalanish darajasini ifodalovchi smena koeffitsiyentiga va har xil sabablar bilan jihozlarni to'xtab qolish vaqtini kamayishiga bog'liq.

Bizga ma'lumki, joriy yilda korxonada ishchilar bilan ta'minlangan va 99 ta ishchi ortiqcha ishlatilgan. Buning sababi joriy yili 228,019 ming odam soat yo'qotilgan va shu yo'qotilgan vaqtni qoplash maqsadida, ayniqsa, yil oxirida qo'shimcha ishchi qabul qilishga majbur bo'lgan. Ish vaqtdan yo'qotish davrida mashina va uskunalar ham to'xtagan. Sababi korxonada moddiy texnika ta'minoti 1,3 %ga bajarilmagan, ba'zi bir assortimentlar bo'yicha 6 %ga bajarilmagan va eng asosiysi xomashyo va materiallar birinchi, uchinchi kvartallarda bajarilmagan va nihoyat to'rtinchi kvartalda ta'minot 103 %ga ortig'i bilan bajarilishi hisobiga yillik ta'minotni 98,7 %ga bajarishga erishilgan va bu to'rtinchi kvartalda keltirilgan xomashyoni qayta ishlash maqsadida 99 ta ishchini ortiq qabul qilib, smena koeffitsiyentini oshirish hisobiga ortiqcha mahsulot ishlab chiqilgan. Agar bu tadbir amalga oshirilmaganda mahsulot ishlab chiqarish 108,1 %ga bajarilmagan bo'lar edi va ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish 86,2 % ni emas, undan ham past bo'lar edi.

6.4. Asosiy fondlardan samarali foydalanish darajasiga ta'sir qiladigan omillar tahlili

Korxonaning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini o'sishi eng avvalo asosiy fondlardan vaqt bo'yicha foydalanish darajasiga, smenalilik koeffitsiyentini oshishiga va jihozlarni to'xtab qolishini kamaytirishga bog'liq.

Asosiy fondlardan intensiv va samarali foydalanish ko'rsatkichlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- fond rentabelligi (foydalanish miqdorining asosiy ishlab chiqarish vositalari qiymatiga nisbati);
- fond qaytimi (ishlab chiqarilgan tovar mahsulotning asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymatiga nisbati);

– aktiv fondlar qismining rentabelligi (ishlab chiqarilgan tovar mahsulot qiymatini asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv qismiga nisbati);

– fond sig‘imi (asosiy ishlab chiqarish fondlarining qiymatining tovar mahsuloti hajmiga nisbati);

– asosiy fondlar qiymati bo‘yicha nisbiy iqtisodni, quyidagicha ifodalash mumkin:

$$I_{af} = AF_b - AF_q \cdot T_a$$

bunda,

AF_b va AF_q – asosiy fondlarning yil boshi va oxiridagi qiymati;

T_a – tovar mahsuloti hajmi indeksi.

Tahlil jarayonida yuqoridagi ko‘rsatkichlar holati o‘rganiladi. Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligiga to‘laroq baho beruvchi ko‘rsatkich bu fond rentabelligi bo‘lib, uning darajasiga fond samarasi va mahsulotning rentabelligi ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatkichga ta’sir qiladigan omillar 6-chizmada berilgan. Ushbu ko‘rsatkichlarning o‘zaro ta’sirini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$R_{af} = FS_{af} \cdot R_{mt}$$


bunda,

R_{af} – asosiy fondlar rentabelligi;

FS_{af} – fond qaytimi;

R_{mt} – mahsulot rentabelligi.

Fond rentabelligiga ta'sir qiladigan omillar



9-chizma.

**Fond rentabelligiga ta'sir qiladigan omillarning tahlili quyidagi
ma'lumotlarga asosanib bajariladi**

30-jadval

No	Ko'rsatkichlar	Reja	Haqiqatda	O'zgarishi
1	2	3	4	5
1	Mahsulotni sotishdan tushgan foyda, m.s.	746304	795400	49096
2	Tovar mahsuloti, m.s.	5330740	5757199	426459
3	Asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm.	530700	533420	+2720
	a) Asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv qism	299845	314184,4	+14339,4
	b) Haqiqatda ishlab chiqarishda qatnashayotgan harakatdagi jihozlar ($A_{hj}F$)	268657	273378	+4721,4
	d) Bir jihozning o'rtacha qiymati (Q_{ms})	335,82	337,5	+17,037
4	Asosiy fondlarning tarkibida aktiv fondlar ulushi (U_{ak})	0,565	0,589	+0,024
5	Aktiv asosiy fondlar tarkibida harakatdagi jihozlar ulushi (U_{xi})	0,896	0,87	-0,026
6	Fond rentabelligi (R_{af})	140	183	+43
7	Mahsulot rentabelligi (R_m)	14	17	+3
8	Asosiy fond qaytimi (Af_k)	10,045	10,793	+0,748
9	Aktiv fondlar samaradorligi (A_qF_s)	17,778	18,324	+0,546
10	Harakatdagi jihozlar qaytimi ($A_{hj}F_k$)	19,842	21,059	+1,217
11	Harakatdagi jihozlarning o'rtacha yillik miqdori (HJ_m)	800	810	+10
12	Jihozlar tomonidan yil davomida ishlangan ish soatlari mashina – soat (T)	3091200	2661214,5	429988,5
	Jumladan: bir jihozning – ishlangan ish soatlari (T_b)	3864	3285,45	-518,55
	– smenalar soni (S_s)	483	441	-42
	– kunlar soni (K)	254	245	-9
13	Jihozning smenalik koeffitsiyenti (K_{sm})	1,9	1,8	-0,1
14	Smenaning o'rtacha davomiyligi, soat (T_{sm})	8	7,45	-0,55
15	Bir mashinaning soat davomida ishlab chiqargan mahsulot hajmi (Q_{ms}) so'm	1724	2153	+429

Xulosa: jadval ma'lumotlariga ko'ra, asosiy ishlab chiqarish fondlar rentabelligi haqiqatda 43 %ga oshgan.

Bunga qanday omillar ta'sir etganini aniqlash uchun quyidagi hisob ishlarini amalga oshiramiz.

Fond rentabelligining o'zgarishi:

– asosiy ishlab chiqarish fondlari fond qaytimining o'zgarishi hisobiga

$$\Delta R_{af} = \Delta A F_k \cdot R_{m(reja)} = (10,793 - 10,045) \cdot 14 = 10,47\%$$

– mahsulot rentabelligining o'zgarishi hisobiga

$$\Delta R_{af} = A F_k \cdot \Delta R_{mf} = 10,793(17 - 14) = 32,38$$

JAMI: 43%

Asosiy ishlab chiqarish fondlarining samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillardan bo'lib, asosiy ishlab chiqarish fondlar tarkibidagi aktiv qismining o'zgarishi, aktiv qismidagi jihozlar ulushining o'zgarishi hamda harakatdagi jihozlarning fond qaytimini o'zgarishi hisoblanadi. Buni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$A F_k = U_{ak} \cdot U_{hj} \cdot A_{hj} F_k$$

Jadval ma'lumotlaridan foydalangan holda hisob ishlarini olib boriladi:

$$\Delta A_a F_{ku} = \Delta U_{hj} \cdot U_{hj(reja)} \cdot A_{hj} F_{k(reja)} = 0,024 \cdot 0,89 \cdot 19,842 = 0,426$$

$$\Delta A_a F_{uh} = \Delta U_{ak} \cdot U_{ak(h)} \cdot A_{hj} F_{k(reja)} = 0,589 \cdot (-0,026) \cdot 19,842 = -0,305 \text{ m.s.}$$

$$\Delta A F_k = U_{ak(h)} \cdot U_{hj(h)} \cdot \Delta A_{hj} F_k = 0,589 \cdot 0,87 \cdot 1,217 = 0,624 \text{ m.s.}$$

JAMI: 0,748 ming so'm.

Tovar mahsulotini ishlab chiqarishga ushbu omillar ta'sirini aniqlash uchun asosiy ishlab chiqarish fondlarining yuqoridagi har bir omil ta'siridagi o'zgarishi asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik haqiqiy miqdoriga ko'paytiriladi. Shuningdek, asosiy ishlab chiqarish fondlari o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi reja bo'yicha belgilangan fond samaradorligiga ko'paytiriladi.

A) $\Delta T M_{af} = \Delta A F \cdot A F_{k(r)} = 2720 \cdot 10,045 = 27322 \text{ m.s.}$

B) $\Delta T M_{mak} = A F_h \cdot \Delta A_a F_{ku} = 533420 \cdot 0,426 = 227237 \text{ m.s.}$

D) $\Delta T M_{mx} = A F_h \cdot \Delta A_a F_u^h = 533420 \cdot (-0,305) = -102693 \text{ m.s.}$

E) $\Delta T M_{afx} = A F_h \cdot \Delta A F_k = 533420 \cdot 0,624 = 332854 \text{ m.s.}$

JAMI: 424720 ming so'm.

Shundan so'ng harakatdagi jihozlarning fond qaytimini o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar o'rganiladi. Buning uchun quyidagi modeldan foydalanish mumkin:

$$A_{hj} F_k = (H J_m \cdot Q \cdot Q_{ms}) / A_{hj} F$$

Ushbu modelni kengaytirilgan holda ham ko'rish mumkin:

$$A_{hj}F_k = (HJ_m \cdot Q_{sm} \cdot T_{sm} \cdot Q_{ms}) / HJ_m \cdot Q = (K \cdot Q_{sm} \cdot T_{sm} \cdot Q_{ms}) / Q$$

1. Harakatdagi jihozlarning fond qaytimiga ta'sir qiluvchi omillarini zanjirli almashtirish asosida aniqlash mumkin.

$$A_{hj}F_k = (K_r \cdot Q_{sm}^r \cdot T_{sm}^r \cdot Q_{ms(r)}) / Q_{(r)} = (254 \cdot 1,9 \cdot 8 \cdot 1,724) / 335,82 = 19,820 \text{ ming so'm}$$

2. Ushbu model asosida rejadagi har bir omil haqiqiy ko'rsatkich omil bilan almashtiriladi.

$$A_{hj}F_k = (K_r \cdot Q_{sm(r)} \cdot T_{sm(r)} \cdot Q_{ms(r)}) / Q_{(h)} = (254 \cdot 1,9 \cdot 8 \cdot 1,724) / 337,5 = 19,722 \text{ ming so'm}$$

3. Jihoz qiymatining o'zgarishi natijasida fond qaytimi quyidagicha o'zgaradi.

$$A_{hj}F_{k2} = (K_h \cdot Q_{sm(h)} \cdot T_{sm(r)} \cdot Q_{ms(r)}) / Q_{(h)} = (254 \cdot 1,8 \cdot 8 \cdot 1,724) / 337,5 = 18,021 \text{ ming so'm}$$

4. Ish kunlarining o'zgarishi fond qaytimini ham o'zgarishiga sabab bo'ladi

$$A_{hj}F_{k3} = (Q_h \cdot Q_{sm(h)} \cdot T_{sm(h)} \cdot Q_{ms(r)}) / Q_{(h)} = (245 \cdot 1,8 \cdot 7,45 \cdot 1,724) / 337,5 = 21,056 \text{ ming so'm}$$

5. Smenali koeffitsiyentning o'zgarishi fond samaradorligini ham o'zgarishiga olib keladi.

$$A_{hj}F_{k4} = (Q_h \cdot Q_{sm(h)} \cdot T_{sm(h)} \cdot Q_{ms(h)}) / Q_{(h)} = (45 \cdot 1,8 \cdot 7,45 \cdot 2,163) / 337,5 = 21,056 \text{ ming so'm}$$

Har bir omilning fond samaradorligiga ta'sirini aniqlash uchun yuqorida aniqlangan har bir natijani texnologik jihozlarning umumiy asosiy fondlar tarkibidagi ulushiga ko'paytiramiz.

Fond samaradorligining o'zgarishi:

- jihoz bahosining o'zgarishi: $0,098 \cdot 0,51 = - 0,049$ ming so'm
- kun bo'yi yo'qotishlar: $0,699 \cdot 0,51 = - 0,356$ ming so'm
- smena ichidagi uzilishlar: $- 1,239 \cdot 0,51 = - 0,632$ ming so'm
- o'rtacha soatli ish unumi: $+ 4,27 \cdot 0,51 = 2,178$ ming so'm
- smena koeffitsiyenti: $- 1,001 \cdot 0,51 = - 0,511$ ming so'm
- JAMI: $+ 1,23 \cdot 0,51 = 0,627$ ming so'm.

Fond qaytimining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni bilgan holda ularni fond rentabelligiga ta'sirini aniqlash mumkin bo'ladi. Bu esa har bir

omil ta'sirida o'zgargan fond qaytimining absolut miqdorini mahsulot rentabelligining rejadagi darajasiga ko'paytirish yo'li bilan bajariladi.

Fond rentabelligiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili natijalari

31-jadval

Omillar	Fond samaradorligining o'zgarishi, so'm	Omillar ta'sirini hisoblash	Fond rentabelligining o'zgarishi, %
I bosqich			
1. Asosiy fondlarning aktiv qismi ulushi	+0,426	+0,426•14	+5,964
2. Harakatdagi aktiv asosiy fondlar ulushi	-0,305	-0,305•14	-4,27
3. Aktiv fondlar samaradorligi	+0,624	+0,624•14	+8,736
Jami:			10,43
II bosqich			
1. Jihoz bahosi	-0,049	-0,049•14	-0,68
2. Kun bo'yi yo'qotishlar	-0,0356	-0,356•14	-4,984
3. Smena koeffitsiyenti	-0,511	-0,511•14	-7,154
4. Smena ichidagi yo'qotishlar	-0,632	-0,632•14	-8,848
5. Bir mashina soat davomidagi ish unumi	+2,178	+2,178•14	+30,492
Jami:			8,82

Xulosa: aktiv fondlar tarkibidagi harakatda fondlar ulushining oshishi, kun bo'yi va smena ichidagi yo'qotishlarning qisqarishi hamda smena koeffitsiyentining oshishi asosiy fondlar rentabelligini oshirishda bo'lib hisoblanadi, ya'ni $(4,27+4,984+7,154+8,848) = 25,256\%$

6.5. Aktiv asosiy fondlardan foydalanish darajasining tahlili

Texnologik jihozlardan foydalanish darajasining tahlili.

Jihozlarning ishlash darajasini tavsiflovchi, ularning sonini, ish vaqtini va quvvatini quyidagi ko'rsatkichlar tizimidan foydalanib, tahlil qilinadi. Jihozlar quyidagi guruhlar bo'yicha farq qiladi.

- A) mavjud (o'rnatilgan va o'rnatilmagan jihozlar);
- B) o'rnatilgan (foydalanishga topshirilgan jihozlar);
- D) haqiqatan ishlab chiqarishda foydalanilayotgan jihozlar;
- E) tahmirlash va modernizatsiya qilish uchun to'xtatilgan jihozlar;
- F) zaxiradagi jihozlar.

Oʻrnatilgan jihozlarni ishlab chiqarishga jalb qilish darajasini ifodalovchi koʻrsatkichlar quyidagilar:

A) Mavjud jihozlardan foydalanish koeffitsiyenti (K_m).

$$K_m = \frac{\text{Harakatdagi jihozlar soni}}{\text{Mavjud jihozlar soni}}$$

B) Oʻrnatilgan jihozlardan foydalanish koeffitsiyenti (K_u).

$$K_u = \frac{\text{Harakatdagi jihozlar soni}}{\text{Oʻrnatilgan jihozlar soni}}$$

Mavjud va oʻrnatilgan jihozlar oʻrtasidagi farqni, ularni rejadagi oʻrtacha yillik unumdorligiga koʻpaytirsa, bu harakatdagi jihozlarni mahsulot ishlab chiqarishni potensial zahira hisoblanadi.

Jihozlarning ekstensiv bandlik darajasini ifodalash uchun vaqt balansi oʻrganiladi va ular quyidagilar:

1. Kalendar vaqt fondi – jihozlarni maksimal ishlash vaqti (kalendar ish kunlarini 24 soatga koʻpaytirib aniqlanadi).

2. Rejim (nominal) vaqt fondi (oʻrnatilgan jihozlar sonini ish kunlari va ish vaqtini davomiylikiga koʻpaytirib aniqlanadi).

3. Jihozlarning haqiqiy ishlagan vaqt fondi.

Jihozlarni ish vaqtidan foydalanish darajasini ifodalash uchun quyidagi koʻrsatkichlardan foydalaniladi.

a) Kalendar vaqt fondidan foydalanish koeffitsiyenti (K_{kvf})

$$K_{kvf} = \frac{T_x}{T_k}$$

b) Nominal vaqt fondidan foydalanish koeffitsiyenti (K_{nvf})

$$K_{nvf} = \frac{T_x}{T_n}$$

d) Rejadagi vaqt fondidan foydalanish koeffitsiyenti (K_{rvf})

$$K_{\text{mf}} = \frac{T_x}{T_r}$$

Jihozlarning intensiv bandligi deganda, o'rtacha bitta jihozga vaqt birligi ichida to'g'ri keladigan mahsulot ishlab chiqarish hajmi tushuniladi va bular ikki xil bo'ladi:

1. Jihozlarni intensiv bandlik koeffitsiyenti (K_{ib})

$$K_{ib} = \frac{JU_x}{JU_r}$$

Bu yerda, JU_x – jihozlarning haqiqiy unumdorligi;

JU_r – jihozlarning rejadagi unumdorligi.

2. Jihozlardan foydalanishni kompleks tarzda ifodalovchi, umumlashtiruvchi ko'rsatkich jihozdan foydalanishning integral koeffitsiyenti, ularning ekstensiv va intensiv bandlik koeffitsiyentlarini ko'paytmasi sifatida aniqlanadi (K_{ig}).

$$K_{ig} = K_c \cdot K_{in}$$

Tahlil jarayonida bu ko'rsatkichlarning dinamikasini, rejasini bajarilishini va ularning o'zgarish sabablari aniqlanadi.

Bir xil guruhdagi jihozlar bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish hajmini o'zgarishiga jihozlar soni, intensiv va ekstensiv foydalanish ta'sirini quyidagi formula orqali hisoblash mumkin:

$$ICHM = J_s \cdot K \cdot K_{sm} \cdot D_{sm} \cdot J_u$$

bu yerda, $ICHM$ – ishlab chiqarilgan mahsulotning hajmi;

J_s – jihozlar soni;

K – bitta jihozning ishlagan kuni;

K_{sm} – smenalilik koeffitsiyenti;

D_{sm} – smenaning o'rtacha davomiyligi;

J_u – jihozlarning bir soatlik unumdorligi.

Yuqorida keltirilgan omillarni mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sirini detemirlangan usul bilan hisoblanadi.

$$IM^r = JS^r \cdot K^r \cdot K_{sm}^r \cdot D^r \cdot J_u^r = 800 \cdot 254 \cdot 1,9 \cdot 0,8 \cdot 1,724 = 5324815 \text{ m.s.}$$

$$IM_{1sh}^x = JS^x \cdot K^x \cdot K_{sm}^x \cdot D^x \cdot J_u^x = 810 \cdot 254 \cdot 1,9 \cdot 0,8 \cdot 1,724 = 5391375 \text{ m.s.}$$

$$IM_{2sh}^x = JS^x \cdot K^x \cdot K_{sm}^x \cdot D^x \cdot J_u^x = 810 \cdot 245 \cdot 1,9 \cdot 0,8 \cdot 1,724 = 5200342 \text{ m.s.}$$

$$IM_{3sh}^x = JS^x \cdot K^x \cdot K_{sm}^x \cdot D^x \cdot J_u^x = 810 \cdot 245 \cdot 1,8 \cdot 0,745 \cdot 1,724 = 4587944 \text{ m.s.}$$

$$IM_{4sh}^x = JS^x \cdot K^x \cdot K_{sm}^x \cdot D^x \cdot J_u^x = 810 \cdot 245 \cdot 1,8 \cdot 0,745 \cdot 1,724 = 4587793 \text{ m.s.}$$

$$IM^x = JS^x \cdot K^x \cdot K_{sm}^x \cdot D^x \cdot J_u^x = 810 \cdot 245 \cdot 1,8 \cdot 0,745 \cdot 2,153 = 5729595 \text{ m.s.}$$

Hisob-kitob natijalaridan kelib chiqqan holda har bir omilni mahsulot hajmiga salbiy yoki ijobiy ta'sirini aniqlash lozim.

A) jihozlarning sonini o'zgarishi hisobiga

$$5391375 - 5324815 = +66560 \text{ m.s.}$$

B) jihozlarni o'rtacha ish kunini o'zgarishi hisobiga

$$5200342 - 5391375 = -191033 \text{ m.s.}$$

D) Smena koeffitsiyentini o'zgarishi hisobiga

$$4587934 - 5200342 = -612408 \text{ m.s.}$$

E) Ish kunini davomiyligini o'zgarishi hisobiga

$$4587793 - 4587934 = -141,0 \text{ m.s.}$$

F) Jihozlarni o'rtacha bir soatlik unumdorligini o'zgarishi hisobiga
 $5729595 - 4587793 = +114180 \text{ m.s.}$

Xulosa, keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, joriy yili jihozlar sonini $810 - 800 = 10$ oshishi va jihozlarni bir soatlik unumdorligini $2153 - 1724 = 429$ so'mga oshishi hisobiga $66560 + 114180 = 180790 \text{ m.s.}$ mahsulot ortiqcha ishlab chiqilgan.

Lekin joriy yili ish kunini $(254-145)= 9$ kunga qisqarishi hisobiga 191033 m.s. , smenalilik koeffitsiyentini $1.9-1.8=0.1$ ga kamayishi hisobiga, ish kunini davomiyligini $(8-7.45)=0,15$ ga qisqarishi hisobiga 141.0 m.s. va jami $191033+612408+141.0=803582$ ming so'mlik mahsulot hajmi kamaygan.

Bilimni tekshirish va mustahkamlash uchun savollar

1. Asosiy vositalardan foydalanish tahlilining vazifalari nimalardan iborat?

2. Asosiy vositalar harakati va texnik holatini qaysi ko'rsatkichlar ifodalaydi?

3. Asosiy vositalardan samarali va intensiv foydalanishni qaysi ko'rsatkichlar ifodalaydi va ular qanday hisoblanadi?

4. Fond rentabelligining omil modelini hamda omillar ta'sirini algoritim hisobini yozing.

5. Fond qaytimi omil modelini hamda omillar ta'sirini algoritim hisobini yozing.

6. Texnologik jihozning fond qaytimi qaysi omillarga bog'liq va ular ta'sirini hisoblash uslubiyati qanday?

7. Korxonada ishlab chiqarish quvvatlari deganda nimalar tushuniladi?

8. Ishlab chiqarish quvvati kattaligi nima hisobiga o'zgarishi mumkin?

9. Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni qaysi ko'rsatkichlar ifodalaydi?

**KORXONANI MODDIY RESURLAR BILAN
TA'MINLANISH DARAJASI VA ULARDAN SAMARALI
FOYDALANISH TAHLILI**

7.1. Korxonani moddiy resurslar bilan ta'minlanish darajasi tahlili

Korxonada ishlab chiqarish dasturi bajarilishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan yana biri, korxonani doimo material resurslar bilan ta'minlab borish va ulardan to'liq, samarali, ratsional hamda tejamkorlik bilan foydalanish hisoblanadi.

Korxonada moddiy texnik ta'minot rejasiga umumiy hajmdagi materiallar, ularni bir me'yorda ta'minlash muddati, belgilangan holdagi turlari, ko'rinishi va sifati bo'yicha hajmi kiritiladi. Ushbu reja mahsulot birligidan kelib chiqqan holda, uning miqdori, sifati, assortimentlari ishlab chiqarish dasturida belgilanganidek mos tushishi lozim.


Bu ko'rsatkichlar blokiga kiruvchi ko'rsatkichlarga asosiy materiallardan foydalanish koeffitsiyenti, foydalanilgan bir so'm xomashyo materiallaridan chiqqan mahsulot hajmi, texnika va texnologiyani progressivligi, mehnatni tashkil qilish va me'yorlashtirish, ish vaqtidan to'la-to'kis foydalanish, boshqarishni takomillishtirishga bog'liq ko'rsatkichlardir.

Bu ko'rsatkichlar blokidan chiqadigan mahsulot hajmi, assortimenti, mahsulot tannarxi bilan bog'liqlikni ta'minlaydigan natijaviy ko'rsatkich sarflangan mehnat predmetlar qiymati, bir so'm mehnat predmetlaridan chiqqan tayyor mahsulot va material sig'imidir.

Tahlil davomida materiallarning qaerdan keltirilayotgani, ta'minotning doimiylik darajasi, ta'minot rejasining assortimentlar bo'yicha bajarilishi, iste'molchi va ta'minotchi o'rtasidagi shartnomaga mosligini o'rganish lozim. Shuningdek, tahlil davomida korxonaga kelib tushayotgan materiallarning miqdori, sifati, joylashtirilishi va saqlash tartibi bo'yicha ham ishlarni tashkil qilinganligi o'rganiladi.

Ta'minotchilar bilan tuzilgan shartnomada ta'minot rejasi, ta'minotchilar bilan hisob-kitoblar tartibi, tomonlar huquqi va mas'uliyatlari aniqlab olinadi.

Moddiy texnika ta'minotining asosiy ko'rsatkichlari ushbu chizmada keltirilgan



10-chizma.

Shartnomaning bajarilishi moddiy texnik ta'minot bo'limining tezkor ma'lumotlari hamda material resurslarining kelib tushishi, ishlatilishi, qoldig'i to'g'risida buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga asosan tahlil qilinadi.

Ta'minot rejasini umumiy holda bajarilishi tahlili

32 -jadval

Ko'rsatkichlar	Miqdor (m.s.)
A. Reja bo'yicha kerakli miqdor	
1. Materiallarning rejadagi sarfi	2353005
2. Yil oxiriga me'yoriy zaxira	10280
3. Yil boshidagi haqiqiy qoldiq	11829
Reja bo'yicha jami keltiriladigan resurslar hajmi:	2351456
B. Hisobot davridagi keltirilgan materiallar miqdori	
1. Materiallarning haqiqiy sarfi	2321340
2. Yil oxiridagi haqiqiy qoldiq	10300
3. Yil boshidagi haqiqiy qoldiq	11840
Hisobot bo'yicha jami keltirilgan resurslar hajmi:	2319800

Korxonaga kelib tushadigan material miqdori reja va haqiqatan quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$P = R + T_2 - T_1$$

P – tovarning kelib tushishi;

R – reja bo'yicha yoki hisobot bo'yicha sarflanayotgan material miqdori;

T_1 – yil boshidagi haqiqiy qoldiq;

T_2 – rejalashtirilgan yil oxiriga materiallarning zaxirasi.

Yuqoridagi formulalarga asosan ta'minot:

a) reja bo'yicha: $P=2353005+10280-11829=2351456$ m.s.

b) haqiqatda: $P=2321340+10300-11829=2319800$ m.s.

Ta'minot rejasining %dagi bajarilishi: $2319800 \cdot 100 / 2351456 = 98,7\%$

Xulosa: jadvaldan ko'rinib turibdiki, mahsulot ishlab chiqarish dasturini 100 % ga bajarish uchun tashqaridan 2351456 ming so'mlik moddiy resurslar rejalashtirilgan edi va tashqaridan keltiriladigan moddiy

resurslar hajmini aniqlashda korxonaga ichki imkoniyatlaridan foydalanib ombordagi zaxirani $(11840 - 10280) = 1560$ ming so'mga qisqartirishni hisobga olgan edi. Shunday qilib, korxonaga tashqaridan keltiriladigan moddiy resurslar miqdori ichki imkoniyatlarni hisobga olgan holda rejadagi sarfga to'g'ri keladi. $(2351456 + 1560) = 2353005$ m.s.

Korxonaga joriy yili mahsulot ishlab chiqarish hajmini 108,1 %ga bajarilgan sharoitda haqiqatda tashqaridan 2351456 m.s. o'rniga 2319800 m.s. oldi. Ichki imkoniyatlardan esa 1560 m.s. o'rniga 1540 m.s. ishlatdi xolos. Shundan ko'rinib turibdiki, joriy yili korxonaga mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan moddiy resurs miqdori $2319800 + 1540 = 2321340$ ming so'mni tashkil etdi. Demak, korxonaga xo'jalik yilini $(2351456 - 2319800) = - 316556$ m.s. xomashyo va materiallar yetishmagan holda mahsulot hajmini 108,1 %ga bajarish bilan yakunladi.

7.2. Moddiy-texnika ta'minot ko'rsatkichlarini bajarilish tahlili

Korxonaga moddiy-texnika ta'minotini quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha rejaning bajarilishini tahlil qilmasdan ishlab chiqarish jarayonini bir tekisda borganligiga baho berib bo'lmaydi.

A). Korxonaga ta'minot rejasini bajarilishi yaxlit holda tekshirilgandan so'ng, ushbu rejaning assortimentlar bo'yicha bajarilishini o'rganish lozim bo'ladi.

Ko'pincha ta'minot rejasini bajarilganda, hatto ortig'i bilan bajarilayotgan holda ham, assortiment bo'yicha ta'minlash rejasini bajarilmasligi mumkin.

Ta'minot rejasining ortig'i bilan bajarilgani holda kerakli tarkibiy qismlarning yo'qligi ishlab chiqarishni uzilishiga, son va sifat ko'rsatkichlarining pasayishiga olib keladi. Assortiment bo'yicha ta'minot rejasining bajarilishi nomenklatura bo'yicha kelgan materiallar tahlilidan boshlanadi.

Assortimentlar bo'yicha materiallar ta'minoti tahlili

33-jadval

Turi	Reja bo'yicha	Hisobot bo'yicha	Bajarilish %
A	987612	974316	98,6
B	917068	924722	101
D	446776	420762	94
Jami:	2351456	2319800	98,7

Xulosa: jadvaldan ko'rinib turibdiki, materiallar turlari bo'yicha ta'minot faqat «B» assortimenti bo'yicha 101 %ga bajarilgan, qolgan materiallar turlari bo'yicha reja bajarilmagan. Korxonada bo'yicha umumiy holda ta'minot rejasini 31656 ming so'mga bajarilmagan sharoitda ikki assortiment bo'yicha reja 39310 ming so'm miqdorga bajarilmagan.

Korxonada material ta'minotidagi bunday uzulishlar, miqdor jihatidan kattaligini inobatga olsak, ishlab chiqarishda va xususan mahsulot assortimenti rejasining bajarishida o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Bundan tashqari, A va V assortimentlar bo'yicha xomashyo va materiallarning 39310 ming so'm miqyosida yetishmasligi bir yilda har bir ishchining ish kunlarini o'rtacha ish kunini qisqarishiga sabab bo'lgan, bu esa uskunalarning to'xtab qolishiga olib kelgan.

Bu hol, albatta, mehnat unumdorligini pasayishiga tannarxni oshishiga olib kelgan. Tahlilni chuqurlashtirib, A va V materiallar bo'yicha rejani bajarilmasligiga ta'sir qilgan omillarni aniqlab chora-tadbirlar tuzish lozim.

Assortimentlar bo'yicha ta'minot rejasini bajarilmasligiga quyidagi omillar ta'sir qilishi mumkin.

1. Ta'minotchini bir me'yorda mahsulot ishlab chiqarilmasligi.
2. Transport xo'jaligini noto'g'ri tashkil qilinishi.
3. Iste'molchini to'lov qobiliyatini yo'qligi sababli ta'minot to'xtatilishi va hokozolar.

Bu omillarni ta'sirini aniqlash uchun moddiy-texnika ta'minot bo'limining tezkor ma'lumotlaridan foydalanish kerak.

B). Ishlab chiqarishning bir maromda borishida materiallar ta'minoti muddatiga rioya qilinishi katta ahamiyatga ega. Ba'zida, yillik ta'minot rejasini umumiy holda bajarilayotganida ham, yilning alohida davrlarida ayrim materiallar ta'minot muddati uzilishi kuzatiladi.

Materiallar keltirish muddatini uzilishi ta'sirini aniqlash uchun ta'minot maromiyligini tahlil qilib, jihozlar to'xtab turishiga mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'siri aniqlanadi.

Materiallarning muddatida kelishini oylik, kvartal, dekada davomida o'rganish mumkin.

34-jadval

Materiallar assortimenti	I kvartal		II kvartal		III kvartal		IV kvartal	
	Reja	Hisobot	Rejaga	Hisobot	Rejaga	Hisobot	Rejaga	Hisobot
«A»	37500	33500	37500	34500	40500	38500	4750	5040

							0	0
«B»	30700	37100	30700	37500	38000	39000	3910	4040
							0	0
«D»	16500	16500	16000	16500	15700	16500	1620	1600
							0	0
JAMI	91000	86600	91000	87700	85000	93700	1030	1068
							00	00
Bajarilishi,%	95,2		96,4		98,6		103,0	

Xulosa: yuqoridan bizga ma'lumki, umumiy ta'minot 98,7 %ni bajarilgan sharoitda ta'minot I kvartalda 95,2 %ni, II kvartalda 96,4 %ni, III kvartalda 98,6 %ni, faqatgina IV kvartalda 103,0 %ni bajarilgan.

Ta'minot rejasining 98,7 %ni bajarilishi ta'minotning 4-kvartalda 103,0 %ni bajarilishi evaziga erishilgan va 4-kvartalda ta'minotning ortig'i bilan bajarilishi yuzaki bo'lib, iste'molchi rejadān ortiq materialni qayta ishlashga jismonan qodir emas, chunki korxonā quvvati chegaralangandir. Kvartallardagi ta'minot rejasining bajarilmaganligi, shubhasiz ish vaqtining 228,19 ming kishi/soatga yo'qotilishiga, jihozlarning turib qolishiga olib keladi, buning natijasida asosiy fondlar qaytimi kamayadi. Materiallar kelishi muddatlarining o'zgarishi, sabablarini aniqlash uchun ta'minotchi va iste'molchi o'rtasidagi shartnomalarni chuqur o'rganishni talab qilinadi.

D). Zaxira me'yoriga rioya qilish zaruriyati, ishlab chiqarish jarayonining uzluksiz amalga oshirilishi, aylanma mablag'larning aylanish tezligini tezlashuvi, uni saqlashga ketayotgan chiqimlarning kamayishi, aynan zaxiraning optimal kattaligiga bog'liqligidan kelib chiqadi.

Moddiy-texnika ta'minoti rejasini ishlab chiqishda materiallar assortimenti zaxiralari ham yil boshiga va yil oxiriga rejalashtiriladi. Zaxiralar ham joriy ham mavsumiy va sug'urta turlariga bo'linadi.

Xomashyo va materiallar joriy miqdori ta'minot oraliq'iga, materiallarning kundalik sarflariga, iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilar orasidagi masofaga, transport turlariga bog'liq bo'ladi. Tahlil davomida xomashyo va materiallar zaxiralarining miqdori me'yoriy miqdor bilan solishtiriladi. Quyidagi 35-jadval asosida materiallar zaxiralari me'yori tahlil qilinadi.

Materiallar zaxiralari me'yori tahlili

35-jadval

Assortimenti	Material fondlari			Sarf-langani	Yil oxiridagi qoldiq		
	Yil boshiga qolgan qoldiq	Yil davomida keltirilgan ta'minot miqdori	Mavjud moddiy resurslar hajmi		Reja bo'yicha	Hisobot bo'yicha	O'zgarish (- +)
«A»	3901	773270	777171	773780	4000	4116,7	+116,7

«B»	3946	773300	777246	780600	3000	2900	-100
«D»	3993	773230	777223	766360	3280	3283,3	+3,3
JAMI	11840	2319800	2331640	2321340	10280	10300	+20

Xulosa: umumiy holda korxonada xo'jalik yilini rejadani ortiq 20000 ming so'm material zaxiralari bilan tamomlagan. Zaxiralarning haqiqiy miqdori 10300 ming so'm bo'lib, reja bo'yicha esa 10280 ming so'mni tashkil etishi kerak edi. Zaxiralarning ortiqcha miqdorini paydo bo'lishiga quyidagi chetlanishlar sabab bo'lgan, ya'ni «A» materiali bo'yicha 116,7 ming so'm, «D» materiali bo'yicha 3,3 ming so'm rejadani ortiq zaxira yuzaga kelib «B» materiali bo'yicha 100 ming so'm zaxira me'yoridan kam. Bu esa ishlab chiqarish jarayonidagi uzilishlarga sabab bo'ladi. Yangi xo'jalik yilida korxonani normal faoliyat ko'rsatishi uchun yetarli material zaxirasi mavjud bo'lishi kerak, lekin material zaxiralarning rejadani ortiq miqdorida paydo bo'lishi aylanma vositalarning aylanishini sekinlashtiradi, materiallar turgan sari sifati yomonlashadi va ularni saqlash uchun ortiqcha xarajat talab qilinadi.

7.3. Moddiy resurslardan samarali foydalanish ko'rsatkichlari tahlili

Moddiy resurslarni tejash katta ahamiyatga egadir. Materiallarni tejash ishlab chiqarishni kengaytirish, ishlab chiqarish quvvatini ta'minlash, mehnat unumdorligini oshirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini pasaytirishga olib keladi.

Respublika iqtisodiyotida materiallar sarfini 1 %ga tejash milliy daromadning 3-4 mlrd. so'mga oshishiga olib keladi.

Sanoat korxonalarida sifatsiz mahsulot ishlab chiqarishga qarshi kurashni kuchaytirish, materiallarning ortiqcha sarflanishini kamaytirish, moddiy resurslarni ahamiyatli qismini tejashni ta'minlashi lozim.

Moddiy resurslardan oqilona foydalanish uchun, avvalo, xomashyoning tejamon turlarini tatbiq qilish, mahsulot sifatiga zarar yetkazmasdan arzonroq tarkibiy qismlarni keng ko'lamda joriy qilish va chiqindisiz texnologiyalarni qo'llash zarur.

Tejamonkorlikka erishish sharti va manbalari turlicha bo'lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Yangi texnikani qo'llash.
2. Ishchilarning texnik madaniyat darajasini oshirish.
3. Xizmat ko'rsatish madaniyatini oshirish.
4. Xomashyo va materiallar sifatini oshirish.

5. Mashina va jihozlarning hajmini (konstruktiv tuzilishlarini yaxshilash evaziga) ixchamlashtirish.

6. Moddiy resurslarni sarflashni qat'iy hisob va nazorat ostiga olish.

7. Moddiy boyliklarni tejagan xodimlarni qiziqтира oladigan miqdorda moddiy rag'batlantirish.

Material resurslardan samarali foydalanishni xarakterlovchi umumlashtiruvchi va shaxsiy ko'rsatkichlar sistemasi mavjud.

Umumlashtiruvchi yakunlovchi ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

a) 1 so'mlik moddiy xarajat foydasi;

b) material qaytimi;

d) material sig'imi;

e) ishlab chiqarish hajmi o'sishi va moddiy xarajatlar nisbati ko'effitsiyenti;

f) mahsulot tannarxidagi moddiy xarajatlar ulushi;

g) moddiy xarajatlar ko'effitsiyenti.

Material sig'imining shaxsiy ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

a) xomashyo sig'imi;

b) metall sig'imi;

d) yoqilg'i sig'imi;

e) energiya sig'imi.


Tahlil davomida materiallardan samarali foydalanishning haqiqiy darajasi rejadagisi bilan solishtiriladi, ular dinamikasi o'rganilib keltirilgan chizmadagi o'zgarish sabablari tushuntiriladi.

Quyida keltirilgan chizmaga binoan material sig'imi, material qaytimi ko'rsatkichlari birinchi navbatda ishlab chiqarilgan mahsulot umumiy hajmi va ularni ishlab chiqarishga ketgan moddiy xarajatlar sarfiga bog'liq.

Ishlab chiqarilgan tovar mahsulotining puldagi umumiy hajmi (MVu), ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmi tarkibi (As), ulgurji narx darajasiga (Mn) bog'liq. Mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan moddiy xarajatlar hajmiga ham xuddi yuqorida keltirilgan omillar ta'sir qiladi va quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$M_s = \frac{MV_x \cdot \sum (MV_u \cdot A_s \cdot S_n \cdot M_n)}{\sum (MV_u \cdot A_s \cdot M_n)}$$

Material sig'imi omillari tahlilining strukturaviy chizmasi



11-chizma.

Materiallarni me'yorlari bo'yicha iste'mol tahlili

36- Jadval

Mahsulotlar nomi	Mahsulot birligi sarf normasi, (so'm)			Ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori	Jami mahsulot bo'yicha chetlanishlar ming so'm	
	Normativ bo'yicha	Haqiqatda	Chetlanish		Iqtisod	Ortiqcha sarf
«A»	19000	18700	-300	118000	35400	
«B»	17100	17200	+100	103250		10325
«D»	35000	34500	-500	73750	36876	
JAMI				295000	72275	10325

Xulosa: jadval ma'lumotlari hisobot yilida korxonada material resurslarni iqtisod qilish bo'yicha ma'lum bir ishlar olib borilganidan dalolat bermoqda, ya'ni «A» turdagi mahsulot birligiga sarf qilinayotgan material resurslar bo'yicha 300 so'm, jami mahsulot bo'yicha 35400 ming so'mlik iqtisod, «D» turdagi mahsulot birligi bo'yicha 500 so'm jami mahsulot bo'yicha 36876 ming so'mlik iqtisodga erishilgan. Umumiy holda yuqoridagi ikki tur mahsuloti bo'yicha 72276 ming so'mlik resurslar tejalgan. «B» mahsuloti bo'yicha esa 10325 ming so'mlik material resurslari sarflarining ortiqcha xarajatiga yo'l qo'yilgan. Erishilgan iqtisodning bir qismi yo'l qo'yilgan ortiqcha xarajetni qoplash uchun yo'naltirilib umumiy holda yakuniy iqtisod 61950 ming so'mni tashkil etdi (72276-10325).

Korxonani moddiy-texnika ta'minotini umumiy holda bajarilishini tahlili natijasidan ma'lumki ta'minot rejasi joriy yili 31656 m.s. ga kam keltirilganiga qaramay, mahsulot ishlab chiqarish hajmi 108,1 %ga bajarilgan, buning asosiy sababi bo'lib, joriy yili xomashyo materiallardan 61950 m.s. tejalgan va bu tejalgan xomashyoni 31656 m.s. hisobiga ortiqcha mahsulot ishlab chiqarishga sarf qilingan bo'lsa, (61950-31656)=30294 n.s. omborda ortiqcha zaxira bo'lib qolgan. Natijada, mahsulot tannarxini pasaytirish va foyda miqdorini oshirishga erishilgan.

«B» mahsulot bo'yicha yo'l qo'yilgan ortiqcha xarajatlarni kelib chiqishiga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

- a) ishlov berilayotgan xomashyoning sifatsizligi;
- b) material resurslar bo'yicha sarf me'yorlarining ilmiy asoslanmaganligi;
- d) mashina va jihozlarning qoniqarsiz holati;
- e) ishchilar malakasining pastligi;

- f) xomashyo materiallar baholarining o'zgarishi;
- g) mehnat intizomining pastligi;
- h) xomashyo va materiallardan foydalanishda moddiy javobgarlik mas'uliyatining pastligi.

Bilimni tekshirish va mustahkamlash uchun savollar

1. Korxonada material resurslari bilan ta'minlanish holatini tahlil qilishdan asosiy maqsad va vazifalar.
2. Material resurslar me'yorlarini tahlil qilish uslubiyati, mohiyati.
3. Material resurslari zaxiralarini aniqlash ahamiyati.
4. Material resurslardan foydalanishda ularni iqtisodiy bo'yicha olib boriladigan tadbirlar mohiyati.

MAHSULOT TANNARXINING TAHLILI

8.1. Mahsulot tannarxi tahlilining maqsadi va vazifasi

Respublika xalq xo'jaligining yuqori darajada rivojlanishi va davlat budjetini o'sishini ta'minlaydigan asosiy manbalaridan biri mahsulot tannarxini tizimli ravishda pasayishidir. Mahsulot tannarxi ishlab chiqarishning eng asosiy samaradorlik ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi. Bu ko'rsatkichda xo'jalik faoliyatining hamma tomoni o'z aksini topgan, sababi mahsulot tannarxi sintez ko'rsatkich bo'lib, xo'jalik faoliyatining hamma tomonini umumiy holda ifodalaydi. Korxonada faoliyatini moliyaviy natijalari, kengaytirilgan ishlab chiqarish tempi, xo'jalik subyekting moliyaviy holati hamda mahsulotni ulgurji va shartnomaga asoslangan narxi, xususan tannarx darajasiga bog'liq. Xarajatlarni boshqarish tizimida mahsulot tannarxining tahlili katta ahamiyatga ega. Tahlil tufayli tannarx tendensiyasi o'zgarishini, reja bajarilishi darajasini, o'sish darajasiga omillar ta'sirini hamda imkoniyatlarni aniqlash, tannarxni pasaytirish yo'llarini ko'rsatib beradi.


Mahsulot tannarxini tahlil qilish uchun statistik hisobotlar ma'lumoti «mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya xarajatlari haqidagi hisobot», «mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi va hisoboti» hamda «asosiy va yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarini sintetik va analitik hisobi» axborot manbai bo'lib xizmat qiladi.

Mahsulot tannarxini pasaytirish manbalariga quyidagilar kiradi:

- 1) kichkina hajmdagi yuqori umumli progressiv texnika-texnologiyani joriy etish;
- 2) chiqindisiz texnologiyani qo'llash;
- 3) jihozlardan foydalanishni yaxshilash va uning vaqt bo'yicha yo'qotishlarini kamaytirish;
- 4) mehnatni tashkil qilish va me'yorlashtirishni takomillashtirish;
- 5) xomashyo va materiallardan maksimal va samarali foydalanish maqsadida yaroqsiz mahsulotlarni, chiqindilarni kamaytirish, mahsulot sifatiga shikast keltirmay, arzon xomashyolardan foydalanishni kengaytirish;

- 6) ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlarni kamaytirish;
 7) xomashyo va materiallarni tejash maqsadida ishchilarni qiziqitira oladigan miqdorda moddiy rag'batlantirishni rivojlantirish va takomillashtirish;
- 12-chizmada mahsulot tannarxini ko'rsatkichlarini tahlil qilish keltirilgan.

Mahsulot tannarxini tahlil qilish ko'rsatkichlari



12-chizma.

Bu blokka kiradigan ko'rsatkichlar, ya'ni mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari mehnat qurollari, mehnat predmetlari va mehnat xarajatlari yig'indisidan iborat. Ya'ni resurslardan foydalanish ko'rsatkichlaridan chiqadigan natijaviy ko'rsatkichlar mahsulot tannarxi blokiga kiruvchi ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi va ular orasidagi bog'liqlikni ta'minlaydi. Ma'lumki ammortizatsiya ajratmasi (mehnat qurollari xarajatlari), «moddiy xarajab», (mehnat predmetlari xarajati), ish haqi fondi «mehnat xarajatlari», mahsulot tannarxini elementlari bo'yicha xarajatini tashkil qiladi. Shu ma'noda bu ko'rsatkichlarni «Mahsulot tannarxi», «mehnat qurollaridan foydalanish», «mehnat predmetlaridan foydalanish», «mehnat va ish haqidagi foydalanish» va «mahsulot tannarxi» bloklarini ko'rsatkichlari bir-biri bilan o'zaro bog'langan.

«Mahsulot tannarxi» blokidan chiqadigan natijaviy ko'rsatkich «Sotilgan mahsulotni to'la tannarxi» bir so'm tovar mahsulotiga sarflangan xarajat va shu natijaviy ko'rsatkich orqali «mahsulot tannarxi» bloki bilan «foйда va rentabellik» hamda moliyaviy holat bloklari orasidagi bog'liqlik ta'minlanadi.

8.2. Haqiqatan ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxini umumiy holda, elementlari va tarkibi bo'yicha tahlili

Haqiqatan ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxining tahlili birinchi navbatda, umumiy holda undan so'ng elementar va moddalar bo'yicha o'tkaziladi.

Haqiqatan ishlab chiqilgan tovar mahsulotining umumiy holdagi tahlili

37-jadval

Ko'rsatkichlar	Haqiqatan ishlab chiqarilgan tovar mahsulotini to'la tannarxi			Tannarxni o'zgarishi	
	O'tgan yilgi tannarx	Reja bo'yicha tannarx	Haqiqiy tannarx	O'tgan yilga nisbatan	Rejaga nisbatan
Tovar mahsulotini to'la tannarxi	4584436	4584436	4778475	-	+194039,1
Shu jumladan					
a) taq-qoslab bo'ladigan tovar	3346600	3346638	3488287	141687	+141649

mahsuloti tannarxi					
b)taqqoslab bo'lmaydigan tovar mahsulot tannarxi	1237798	1237798	1290188	-	+52390

Xulosa: keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, jamoa hisobot yilida korxonada ishlab chiqarilgan tashkiliy texnikaviy tadbirlarni, maslahat va takliflarni amalga oshira olmagan, natijada, haqiqatan ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi 194039 mln. so'mga oshgan. Tannarxning oshishini 141649 mln. so'mga taqqoslab bo'ladigan va 52390 mln. so'mga taqqoslab bo'lmaydigan mahsulot tannarxi tashkil qilingan. Bundan tashqari, haqiqatan ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi o'tgan yilga nisbatan 141687 mln. so'mga ko'paygan. Demak, yildan yilga taqqoslab bo'ladigan, ya'ni bir necha yildan buyon takroran ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini oshishiga yo'l qo'yilmoqda va bundan xulosa qilish mumkinki, korxonada shu kungacha yechimini topmagan muammolar mavjud ekan.

Mahsulot tannarxini rejalashtirishda yo'l qo'yilgan kamchiliklardan biri reja bo'yicha tannarxni pasaytirish ko'zda tutilmagan, ya'ni reja tuzishda korxonada mavjud imkoniyatlar hisobga olinmagan. Bundan kelib chiqadiki, jamoa mahsulot tannarxini rejalashtirishda uni pasaytirish maqsadida tashkiliy-texnikaviy chora-tadbirlar ishlab chiqilmagan yoki ishlab chiqarilgan bo'lsa, uni amalga oshirilmagan. Shuning uchun ham mahsulot tannarxini pasaytirish maqsadida har tomonlama chuqur tahlil o'tkazilib, xato kamchilik, muammo, imkoniyatlarni aniqlab ularni bartaraf qilish maqsadida mutaxassis va ilg'or ishchilar ishtirokida tashkiliy-texnikaviy, iqtisodiy chora-tadbirlar ishlab chiqib, izchillik bilan ularni ishlab chiqarishga tatbiq etishni ta'minlash lozim.

Mahsulot tannarxini oshib ketishiga ta'sir qilgan omillarni aniqlash maqsadida tahlilni davom ettirib, tannarx elementlari va tarkibi bo'yicha xarajatni oshib ketganligini hisobga olib, unga ta'sir qiladigan omillarni aniqlash maqsadida tahlilni chuqurlashtirish lozim.

Mahsulot tannarxini asosiy xarajat elementlari bo'yicha tahlili

38 -jadval

Xarajatalar elementlari	Jami ming so'm			Xarajatlarni tuzilmasi % da		
	Reja	Haqiqat	Farq. «+»	Reja	Haqiqat	Farq «+»
I. Ish haqi	756432	812341	+55909	16,5	17	+0,5


2. Sotsial himoya fondiga ajratma	302573	324936	+22363	6,6	6,8	+0,2
3. Materiallar xarajati	2383907	2532592	+148685	52	53	+1
Shu jumladan:						
a) xomashyo materiallar	2097834	2213828	+115994	40	40,5	+0,5
b) yoqilg'isi	166873	187069	+20196	7	7,3	+0,3
d) elektro-energiya	119195	131695	+12500	5	5,2	+0,2
4. Amortizatsiya ajratmasi	412599	477847	+65248	9	10	+1
5. Boshqa xarajatlar	728925	630759	-98166	15,9	13,2	-2,7
To'la tannarx	4584436	4778475	194039,1	100	100	—
Shu jumladan:						
a) o'zgaruvchan xarajatlar	3254950	3440502	+185552	71	72	+1
b) o'zgarmas xarajatlar	1329486	1337973	+8487	29	28	-1

Xulosa: jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, hamma xarajat elementlari bo'yicha sarf oshgan, ayniqsa, xomashyo va materiallarga ketgan xarajat bir foizga oshgan. O'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlar sarfi ham oshgan. Boshqa xarajatlardan tashqari hamma xarajatlar tuzilmasi oshgan. Ishlab chiqarilgan mahsulotning umumiy xarajat miqdoriga quyidagi ko'rsatkichlar ta'sir qiladi:

1. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi va uni tuzilmasi.
2. Bir dona mahsulotga ketgan bevosita xarajatlar darajasi.
3. Bir dona mahsulotga ketgan bilvosita xarajatlar darajasi.

Bevosita xarajatlar (ishlab chiqarishdagi ishchilarni ishbay ish haqi, xomashyo va materiallar sarfi) o'zgarishi faqat mahsulot hajmini o'zgarishiga bog'liq, bilvosita xarajatlar (amortizatsiya ajratmasi, ijara to'lovlari, ishchilarning ishbay ish haqi, mashina va uskunalaridan foydalanish va ularning holatini yaxshilash bilan bog'liq xarajatlar), ya'ni mahsulot hajmining o'zgarishiga bog'liq emas.

Umumiy xarajatlar sarfini mahsulot hajmi bilan bog'liqligi



13-chizma.

Keltirilgan rasmdan ko'rinib turibdiki, mahsulot hajmining oshishi bilan bevosita xarajatlar sarfi ham oshadi, aksincha, mahsulot hajmi kamaygan sari, bu xarajatlar kamayadi va o'zgarmas xarajatlar chizig'iga yaqinlashadi.

8.3. O'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlarga omillar ta'sirini tahlili

O'zgarmas va o'zgaruvchan xarajatlar mavjudligi sharoitida xarajatlar chizig'i birinchi darajadagi tenglik ifodasida aks ettiriladi.

$$UX = \Sigma (MVu \cdot bi) + \Sigma (MVu \cdot Udi \cdot bi) + A,$$

bu yerda,

UX – mahsulot ishlab chiqarishga ketgan umumiy xarajat;

A – hamma ishlab chiqarilgan mahsulotga ketgan o'zgarmas xarajatlar yig'indisi;

bi – bir dona mahsulotga ketgan o'zgaruvchan xarajat darajasi;

Udi – ishlab chiqarilgan tovar mahsulotining ulishini o'zgarishi;

MVu – umumiy ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi.

Mahsulot assortimentlari bo'yicha o'zgarmas va o'zgaruvchan xarajatlar tablili

39-jadval

Mahsulot assortimenti	Reja bo'yicha			Haqiqatda			Mahsulot hajmi, donada	
	Jami	Shu jumladan		Jami	Shu jumladan		Reja	Haqiqatda
		O'zgaruvchan	O'zgarimas		O'zgaruvchan	O'zgarimas		
A	1833774	1301980	531794	1911390	1376201	535189	116500	118000
B	1604553	1139233	465320	1672466	1204176	468290	101780	103250
D	1146109	813737	332372	1194620	860126	334494	71720	73750
Jami	4584436	3254950	1329486	4778476	3440503	1337973		

1. Xarajatlar ham mahsulot hajmi ham reja bo'yicha:

$$UX_r = \Sigma (MV \cdot dr) + A = (5330740 \cdot 0,645) + 1329486 = 4584436 \text{ m.s.}$$

2. Xarajatlar reja bo'yicha, mahsulot hajmi haqiqatda, rejadagi tuzilmani saqlagan holda:

$$UX_r = (MV_x \cdot dr) \cdot K_{uvp} + A = (5757199 \cdot 0,645) \cdot 1,08 + 1329486 = 5339950 \text{ m.s.}$$

3. Xarajatlar reja bo'yicha, mahsulot hajmi esa haqiqatda:

$$UX_r = (MV_h \cdot dr) + A = (5757199 \cdot 0,645) + 1329486 = 5042879 \text{ m.s.}$$

4. Xarajatlar haqiqiy, o'zgaruvchan xarajatlar reja bo'yicha:

$$UX_h = \Sigma (MV_h \cdot dh) + A = (5757199 \cdot 0,599) + 1329486 = 4778048 \text{ m.s.}$$

5. $UX_x = \Sigma (MV_x \cdot dx) + A_x = (5757199 \cdot 0,599) + 1337973 = 4786535 \text{ m.s.}$

Mahsulot tannarxi yuqorida keltirilgan omillardan tashqari mahsulot resurslar sig'imi darajasiga bog'liq (mehnat sig'imi, materiallar sig'imi, fond sig'imi, energiya sig'imi) hamda foydalanilgan resurslarni inflatsiya natijasida narxini o'zgarishiga bog'liq.

Korxonada faoliyatiga obyektiv baho berish maqsadida hamda mahsulot tannarxini tahlil qilib, imkoniyatlarni to'laroq aniqlashda tashqi inflatsion jarayon ta'sirini ham aniqlash lozim. (ΔX_i) Buning uchun haqiqatan sarf qilingan resurslar miqdorini (R_x) har bir resursning o'rtacha narxini o'zgarishiga (ΔN) ko'paytirib va natijalarini jamlab chiqish lozim.

$$\Delta X = \Sigma (\Delta N \cdot R_x)$$

Mahsulot ishlab chiqarishga ketgan umumiy xarajatlarni omillar bo'yicha tahlil qilish uchun birlamchi ma'lumotlar

40-jadval

Xarajatlar	Jami, ming so'm	Xarajatlarni haqiqatda o'zgarishi			
		Mahsulot hajmi	Mahsulot tuzilmasi	O'zgaruvchan xarajatlar	O'zgarimas xarajatlar
Reja bo'yicha mahsulot hajmi $\Sigma (MVr \cdot dr) + X^{O'G}_r$	4584436	R	R	R	R
Reja bo'yicha haqiqatdan ishlab chiqarish mahsulot hajmiga va rejadagi tizim o'zgartirilganda $\Sigma (MVx \cdot dr \cdot Nr) + X^{O'G}_r$	5339950	Haq	R	R	R
Reja bo'yicha haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga $\Sigma (MVx \cdot dr) + X^{O'G}_r$	5042879	Haq	Haq	R	R
Haqiqiy xarajat rejadagi o'zgarimas xarajatlar hisobda $\Sigma (MVx \cdot dx) + X^{O'G}_r$	4778048	Haq	Haq	Haq	R
Haqiqiy xarajat $\Sigma (MVx \cdot dx) + X^{O'G}_x$	4778475	Haq	Haq	Haq	Haq

Xulosa: keltirilgan ma'lumotlardan mahsulot ishlab chiqarish rejasi 8,1 % ($Kuvp=1,08$) oshgani tufayli xarajat ($5339950-4584436$)= $+75551$ ming so'mga oshgan.

Mahsulot strukturasi o'zgarishi munosabati bilan xarajat ($5042879-5339950$)= -297071 ming so'mga kamaygan. O'zgaruvchan xarajatlar darajasini kamayishi hisobiga umumiy xarajat $5042879-4778048=264831$ m.s. ga kamaygan. O'zgarimas xarajatlar ko'paygani munosabati bilan umumiy xarajatlar $4786535-4778048=8847$ m.s. ga kamaygan. Shunday qilib, mahsulot umumiy tannarxi rejaga nisbatan $4778475-4584436=194039$ m.s.ga oshgan. Shu jumladan, mahsulot hajmini oshishi va uni tarkibini o'zgarishi hisobiga $5042879-4584436=458443$ m.s. ga oshgan.

8.4. Ishlab chiqarilgan mahsulotni bir so'miga ketgan xarajatlar tahlili

Ishlab chiqarilgan tovar mahsulotining 1 so'miga ketgan xarajat bu aniq umumlashgan ko'rsatkich bo'lib, korxonaga bo'yicha mahsulot tannarxi darajasini va uni dinamikasini ifodalaydi. Bu ko'rsatkich universal, sababi

har bir ishlab chiqarish tarmog'ida qo'llanishi mumkin va tannarx bilan foyda orasida bog'liqlikni aniq ko'rsatadi.

Bir so'mlik ishlab chiqarilgan va realizatsiya qilingan mahsulotga ketadigan xarajat quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$X_s = TN / TV;$$

TN – tovar mahsulotning tannarxi;

TV – tovar mahsulotini shartnomada belgilangan narxdagi hajmi.

Agar uni darajasi bir birlikdan kam bo'lsa u foydalilikni, agar ko'p bo'lsa, zararlikni ko'rsatadi. Tahlil jarayonida bir so'mlik tovar mahsulotiga ketgan xarajat dinamikasini boshqa korxonalar va o'rtacha tarmoq ko'rsatkichlar bilan taqqoslab o'rganilsa, korxonada jamoa tannarxini pasaytirish bo'yicha qilinayotgan xatti-harakatiga baho berish mumkin.

Bir so'mlik tovar mahsulotiga ketgan xarajat dinamikasining tahlili

41-jadval

Yillar	Tahlil qilinayotgan korxonada		Raqobatdagi korxonada		O'rtacha tarmoq bo'yicha	
	Ko'rsatkich darajasi, miqdorda	O'sish sur'ati, %	Ko'rsatkich darajasi, miqdorda	O'sish sur'ati, %	Ko'rsatkich darajasi, miqdorda	O'sish sur'ati, %
1	84,2	100	85,2	100	90,4	100
2	83,6	99,3	85	99,7	88,2	97,6
3	82,5	98	84	98,6	86,5	95,7
4	82	97,4	83,8	98,9	85,7	94,8
5	81,25	96,5	82	96,2	84,5	93,5

Xulosa: yuqorida keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, tahlil qilinayotgan korxonada tannarx pasayishi faqatgina oxirgi yili sustlashgan, ammo o'rtacha tarmoq bo'yicha olganda korxonada tannarx pasayishi tempi ancha orqada. Mavjud korxonada bir so'm tovar mahsulotiga ketgan xarajat besh yil mobaynida $(100 - 96,5) = 3,5$ % kamaygan bo'lsa, raqobatdagi korxonada $(100 - 96,2) = 3,8$ %, tarmoq bo'yicha esa $(100 - 93,5) = 6,5$ % ga pasaygan.

Bir so'm tovar mahsulotiga ketgan xarajatni va uni dinamikasini tahlil qilgandan so'ng, unga ta'sir qilgan omillarni aniqlash lozim, buning uchun quyidagi omillar modelidan foydalaniladi:

$$x_{\partial} = \frac{yX}{MV} = \frac{\sum (MV \cdot y_{\partial_i} \cdot b_i) + A}{\sum (MV \cdot y_{\partial_i} \cdot H_i)}$$

U_x – umumiy xarajat;

MV – ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi;


U_{d_1} – mahsulot tuzilmasi;

A – bir dona mahsulot sarf qilishga o'zgarmas xarajatlarni darajasi;

b_i – o'zgaruvchan xarajatlar darajasini o'zgarishi;

N_i – xomashyo va materiallar narxini o'zgarishi.

Omillar tahlili tarkibining mantiqiy modeli



14-chizma.

Zanjirsimon uslubda jadvalda keltirilgan mahsulot hajmi haqidagi ma'lumotlarga asoslanib, bir so'm tovar mahsulotiga ketgan xarajatlarga omillarning ta'siri aniqlanadi.

Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi:

Reja bo'yicha $\Sigma (MVr \cdot Nr) = 5330740$.

Mahsulot tarkibi va narxi reja bo'yicha haqiqiy mahsulot hajmi.

$\Sigma (MVx \cdot Nr) - \Delta MVtar - 5321088$

Haqiqiy mahsulot hajmi rejadagi narxda – 5706750

$\Sigma (MVx \cdot Nr)$

Haqiqiy mahsulot hajmi narxi, haqiqatda

$\Sigma (MVx \cdot Nx) - 5757199$

Ishlab chiqarilgan bir so'mlik mahsulotga ketgan xarajatning o'zgarishiga omillar ta'siri hisobi

42-jadval

I so'mlik mahsulotga ketgan xarajat	Hisobi	OMILLAR				
		Mahsulot hajmi	Mahsulot tarkibi	O'zgaruvchan xarajatlarning darajasi	O'zgarish xarajatlarning yig'indisi	Mahsulotni sotiladigan narxi
1	2	3	4	5	6	7
REJA	4584436:5330740=0.86	REJA	REJA	REJA	REJA	REJA
Shart-1	5339950:5321088=1,0	HAQ	REJA	REJA	REJA	REJA
Shart-2	5042879:5706750=0.88	HAQ	HAQ	REJA	REJA	REJA
Shart-3	4778048:5706750=0.84	HAQ	HAQ	HAQ	REJA	REJA
Shart-4	4778475:5706750=0.84	HAQ	HAQ	HAQ	HAQ	REJA
Haq	4778475:5757199=0.83	HAQ	HAQ	HAQ	HAQ	HAQ

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, bir so'm tayyor mahsulotga ketgan xarajat darajasiga quyidagi omillar ta'sir qiladi.

1. Mahsulot hajmining o'sishi hisobiga: $1 - 0,86 = +0,14$
2. Ishlab chiqarilgan mahsulot tarkibining o'zgarishi hisobiga $0,88 - 1,0 = -0,12$
3. O'zgaruvchan xarajatlarning hajmi hisobiga: $0,84 - 0,88 = -0,04$
4. O'zgarish xarajatlarning hajmi hisobiga: $0,83 - 0,84 = -0,01$
5. Mahsulot narxining oshishi hisobiga: $0,83 - 0,86 = -0,03$

Yuqorida keltirilgan hisob-kitob natijalariga asoslanib bir so'm mahsulotga ketgan xarajati o'zgarishini omillar bo'yicha foyda miqdoriga ta'sirini aniqlash mumkin. Buning uchun bir so'm mahsulotga ketgan

xarajatni har bir omil bo'yicha o'zgarishini haqiqatan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga ko'paytirib aniqlanadi.

$$\Delta P_x = \Delta U Z_x \cdot \sum (R M V_i \cdot S_i)$$

Har bir omilning foyda miqdoriga ta'siri hisobi

43-jadval

Omillar	Ta'sir hisob-kitobi	Foyda miqdorini o'zgarishi m.s.
1. Mahsulot hajmi	+0,14·5604599/100	-7846,0
2. Mahsulot tarkibi	-0,12·5604599/100	+6725,0
3. Bir dona mahsulotga o'zgaruvchan xarajatlar ta'siri	-0,04·5604599/100	+2241,0
4. Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga o'zgarish xarajatlar ta'siri	-0,01·5604599/100	+560,4
5. Mahsulotni o'rtacha tannarxini o'zgarishining ta'siri	-0,03·5604599/100	+1681,3
Jami		+3361,7

Bajarilgan hisob-kitob natijasidan shunday xulosaga kelish mumkin: foyda miqdorini oshishi asosan tayyor mahsulot narxini oshishi, yuqori rentabellik mahsulot tarkibini oshishi va resurslardan yana ham tejamli foydalanishga bog'liq bo'ladi.


9-BOB

O'ZGARUVCHAN MODDIY VA MEHNAT XARAJATLARI TAHLILI

9.1. O'zgaruvchan moddiy xarajatlarga ta'sir qiladigan omillar tahlili

Mahsulot tannarxiga bevosita moddiy xarajatlar ulushi juda katta. Bevosita moddiy xarajatlar umumiy qiymati ishlab chiqariladigan mahsulot hajmiga (MV), uning tarkibiga (Ud), har bir mahsulot bo'yicha moddiy xarajatlar (UMx) bir dona mahsulotga sarf darajasini o'zgarishi (Ur) va bir birlik moddiy resurslar narxini (N) o'zgarishiga bog'liq. Bu bog'lanishni quyidagi 15-chizmada ko'rish mumkin.

Bevosita moddiy xarajatlar mantiqiy tarkibini tahlil qilish omillar modeli



15-chizma.

Tahlilni bir dona mahsulotga moddiy xarajatlar o'zgarishiga ta'sir qiladigan omillardan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu maqsadda quyidagi omillar modeli qo'llaniladi.

$$M_x = \sum (UR_i \cdot N_i)$$

Yuqorida keltirilgan omillarni ta'sirini zanjirsimon usul bilan hisob-kitob qilinadi:

a) $UMX_r = \sum (UR_{ir} \cdot N_{ir})$

b) $UMX_{sh1} = \sum (UR_{ix} \cdot N_{ix})$

d) $UMX_x = \sum (UR_{ix} \cdot N_x)$

$$\Delta UMX_r = UMX_{sh1} - UMX_r$$

$$\Delta UMX_n = UMX_x - UMX_{sh1}$$

Bir dona mahsulotga sarflangan o'zgaruvchan xarajatlarga ta'sir qiladigan omillarni hisobi quyidagi 44-jadvalda keltirilgan.

44-jadval

Xomashyo materiallar turi	Bir dona mahsulotga ketgan xomashyo metr		Bir metr matoning narxi so'm		Bir dona mahsulotga sarflangan xarajat so'm			Bir dona mahsulotga ketgan xomashyo sarfi		
	Reja	Xaqiqat	Reja	Xaqiqat	Reja	Umum mod har shart 1	Xaqiqat	Umumiy	Shu jumladan:	
									Sarf normasi	Narxi
A mahsuloti bo'yicha										
Astari	2.8	2.7	500	650	1400	1350	1755	+355	-50	+405
Avrasi	2.5	2.5	100	120	250	250	300	+50	-	+50
Bashqa har xil materiallar	-	-	-	-	50	54	60	-	+4	+6
Jami	-	-	-	-	1700	1654	2115	+415	-46	+461

B mahsuloti bo'yicha										
Astari	2.6	2.5	250	300	650	625	750	+100	-25	+125
Avrasi	2.5	2.6	50	60	125	130	156	+31	+5	+26
Bashqa har xil mate- riallar	-	-	-	-	25	25	34	+9	-	+9
Jami	-	-	-	-	800	780	940	+140	-20	+160

Qilingan hisob-kitobdan ko'rinib turibdiki, A va B mahsuloti bo'yicha material sarfi normasini pasayishi hisobiga A mahsuloti 46 so'mga, B mahsuloti 20 so'mga xarajat kamaygan. Demak, bir dona mahsulotga ketadigan material normaga nisbatan kamaygan. Sababi material sifati talab darajada, texnika holati va ishchilarning malaka darajasi qoniqarli darajada. Ikkala mahsulot bo'yicha materiallar xarajati A – 461 so'mga, B – 160 so'mga xarajat narxni o'zgarishi hisobiga ko'paygan. Demak, xomashyo bozorida bu materiallar miqdori talabdan kam va raqobatni pastligi tufayli narx oshgan.

Yuqorida keltirilgan hisob-kitoblardan so'ng har bir mahsulot turi bo'yicha umumiy mahsulot hajmiga ketgan bevosita moddiy xarajatlar o'zgarishiga ta'sir qiladigan omillarni quyidagi formula bilan tahlil qilish mumkin:

$$Mx_i = MV_i \cdot \sum UR_i \cdot N_i$$

A mahsulotiga sarf qilingan moddiy xarajatlar

45-jadval

Ko'rsatkichlar	Algoritm hisobi	Hisob-kitob tartibi	Yig'indi, ming so'mda
a) reja bo'yicha	$MV_r \cdot \sum Sd_{ir} \cdot N_{ir}$	10000 · 1,7	17000
b) haqiqiy mahsulot hajmi, sarf va narx reja bo'yicha	$MV_x \cdot \sum Sd_{ir} \cdot N_{ir}$	13300 · 1,7	22610
d) hamma ko'rsatkich faqat narx reja bo'yicha	$MV_x \cdot \sum Sd_{ix} \cdot N_{ix}$	13300 · 1,654	21998
e) haqiqiy	$MV_x \cdot \sum Sd_{ix} \cdot N_{ix}$	13300 · 2,115	28130

Omllarning moddiy xarajatlar o'zgarishiga ta'sirini aniqlaymiz:

- mahsulot hajmi 22610–17000=5610 ming so'm;
- mahsulotga ketgan moddiy xarajat 21998–22610=–612 ming so'm;
- moddiy resurslar qiymati 28130–21998=6132 ming so'm.

Xulosa: keltirilgan hisob-kitobdan ko'rinib turibdiki, A mahsulotga ketgan moddiy xarajatlar rejaga nisbatan $11130 = (5610 + 6132) - 612$ ortiq.

Hamma mahsulotga yuqoridagi omillar hisob kitobi quyidagi 46-jadvalda bajarilgan.

Moddiy xarajatlar tahlili

46-jadval

Mahsulot-lar turi	Moddiy xarajatlar m.s.				Moddiy xarajatlar omillar bo'yicha			
	Reja bo'yicha	Ham-ma omil-lar rejada, mahsulot hajmi haqiqat-da	Ham-ma omil-lar haqiqiy mahsulot hajmi rejada	Haqiqatda	Umumiy	Shu jumladan:		
						Mahsulot hajmi hisobiga	Sarf me'yori hisobiga	Material narxi hisobiga
A	17000	22610	21998	28130	+11130	+5610	-612	+6132
B	8000	4550	4446	5358	-2642	-3440	-114	+912
Jami	25000	27170	26444	33488	+8488	+2170	-726	+7044

Xulosa: ishlab chiqarilgan umumiy mahsulot hajmi bo'yicha o'zgaruvchan moddiy xarajatlar 2170 so'mga oshgan, materiallar sarf normasini kamayishidan 726 m.s. ga xarajat kamaygan, xomashyo materiallar narxini oshishi hisobiga sarf 7044 m.s. ga ko'paygan.

Har bir mahsulot bo'yicha yuqorida o'tkazilgan hisob-kitobga asoslanib ishlab chiqarilgan hamma mahsulot hajmiga ketgan bevosita moddiy xarajatlar aniqlanadi. Buning uchun keltirilgan omillardan tashqari ishlab chiqarilgan mahsulot tarkibiga bog'liq bo'ladi.

$$Mx_u = \sum (MV_{ir} \cdot M_{ir} \cdot Sd_i \cdot N_i)$$

Bu omillarni ta'sirini aniqlash uchun quyidagi ma'lumotlarni jamlash lozim.

Mahsulot ishlab chiqarishga ketgan jami moddiy xarajatlar

47-jadval

Ko'rsatkichlar	Algorithm hisobi	Hisob-kitob	Yig'indi ming so'm
Mx_r	$\sum (MV_{ir} \cdot Sd_i \cdot N_i)$	$10000 \cdot 1,7 + 10000 \cdot 0,8$	25000
Mx_{shl}	$Mx_r \cdot K_{MV}$	$25000 \cdot 0,95$	23750

Mx_{sh2}	$\sum(MV_{ij} \cdot Sd_{ir} \cdot N_{ir})$	13300·1,7+5700·0,8	27170
Mx_{sh3}	$\sum(MV_{ix} \cdot Sd_{ik} \cdot N_{ir})$	13300·1,654+5700·0,78	26444
Mx_x	$\sum(MV_{ix} \cdot Sd_{ik} \cdot N_{ix})$	13300·2,115+5700·0,94	33488

Xulosa: keltirilgan hisob-kitob natijasidan kelib chiqib ishlab chiqarilgan mahsulotga ketgan bevosita moddiy xarajat 8488=(33488–25000) ko‘paygan va shu jumladan:

- mahsulot hajmining o‘zgarishidan 23750–25000= -1250
 - mahsulot tarkibining o‘zgarishidan 26170–23750= +1320
 - mahsulot material sig‘imi o‘zgarishidan 26444–27170= -726
 - moddiy resurslar narxining o‘zgarishidan 33488–26444= +7044
- Jami 33488–25000= +8488

Shunday qilib, joriy yili bevosita moddiy xarajatlar rejaga nisbatan mahsulot tarkibini o‘zgarishi hisobiga – 3420 ming so‘m va mahsulot sarfini o‘zgarishi hisobiga 7044 ming so‘mga ko‘paygan.

9.2. O‘zgaruvchan mehnat xarajatlariga ta’sir qiladigan omillar tahlili

Bevosita mehnat xarajatlari mahsulot tannarxining sezilarli ulushini tashkil etadi va uning darajasini shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham ish haqini dinamikasi tahlili mahsulot hajmi tannarxi ulushiga omillarni o‘rganishiga va ularni ish haqi hajmiga ta’sirini, uni tayyorlash maqsadida imkoniyatlarni aniqlashda salmoqli ahamiyatga ega.

Bevosita ish haqining umumiy yig‘indisi (IXu) (16-chizma) mahsulot hajmiga (MVu), mahsulot tarkibiga (Mt), alohida mahsulotga ketadigan ish haqi xarajati (IHB) darajasi o‘z navbatida, mahsulot mehnat sig‘imiga (MS) va bir odam soatga to‘lanadigan ish xaqi darajasiga bog‘liq (IXD).

Omillar modeli:

- a) korxonada bo‘yicha umumiy ish xaqi yig‘indisi:

$$IX_u = \sum(MV_u \cdot Mt_i \cdot IHB_i \cdot IXD_i);$$


- b) ma’lum holdagi mahsulotni umumiy hajmiga sarf qilingan bevosita ish haqi yig‘indisi:

$$IX_A = MV_i \cdot MS_i \cdot IHB_i$$

- d) bir dona mahsulotga sarf qilingan bevosita ish xaqi yig‘indisi:

$$IHB_i = MS_i \cdot IHV_i$$

Mahsulot ishlab chiqarishga ketgan ish haqini omillar bo'yicha tahlilini tarkibiy-mantiqiy modeli



16-chizma.

Birinchi navbatda, har bir turdagi mahsulotni bir donasini tannarxi o'zgarishiga mahsulotni mehnat sig'imini, o'rtacha bir soatlik mehnatga haq to'lash darajasini ta'sirini aniqlash kerak. Hisob-kitob ishlari absolut farq usuli bilan amalga oshiramiz:

$$\Delta IHB_i = \Delta MS_i \cdot IHV_{ir}; \quad \Delta IHB_i = MS_{ih} \cdot \Delta IHV_i$$

Bir dona mahsulot birligiga sarf qilingan ish haqining omillar bo'yicha tahlili

48-jadval

Mahsulot turi	Mehnat sig'imi ulushi, %		Bir odam soatga to'lanadigan ish haqi, so'm		Bir dona mahsulotga to'lanadigan ish haqi, so'm		Rejaga nisbatan o'zgarishi		
	Reja	Haq	Reja	Haq	Reja	Haq	Umu-miy	Shu jumladan:	
								Mehnat sig'imi hisobiga	Ish haqi darajasi hisobiga
A	16	15	35	45	560	675	+115	-35	+150
B	12	11,5	32	40	384	460	+76	-16	+92

Xulosa: olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, ikkala mahsulot bo'yicha bir dona mahsulotga sarf qilingan ish haqi mehnatga haq to'lash darajasini o'sishi hisobiga o'sgan. Bir vaqtni o'zida o'tkazilgan inovatsion tadbirlar munosabati bilan mehnat sig'imini kamayishi hisobiga ish haqi tejalgan.

Shundan so'ng umumiy ish haqini har bir mahsulot turi va hajmi bo'yicha o'zgarishiga omillarni ta'sirini aniqlash kerak, shu maqsadda yana absolyut farq usulini qo'llash kerak:

$$\Delta I_{i(MV)} = \Delta MV_i \cdot MS_{ir} \cdot IHV_{ir} = (13300 - 10000) \cdot 16 \cdot 35 = +1848 \text{ ming so'm};$$

$$\Delta I_{iMS} = \Delta MV_i \cdot MS_{ir} \cdot IHV_{ir} = 13300 \cdot (15 - 16) \cdot 35 = -465,5 \text{ ming so'm};$$

$$\Delta I_{iHV} = \Delta MV_h \cdot MS_h \cdot \Delta IHV = 13300 \cdot 15 \cdot (45 - 35) = +1995 \text{ ming so'm}.$$

Korxonada bo'yicha ish haqini umumiy yig'indisiga yuqoridagi keltirilgan omillardan tashqari mahsulot turiga ham bog'liq. Ish haqi miqdori mehnat sig'imi katta mahsulot ulushi ko'paygan sari oshadi, aks holda kamayadi.

Ishlab chiqarilgan mahsulotga sarf qilingan ish haqi miqdori

49-jadval

Ko'rsatkichlar	Hisob-kitob algoritmi	Hisob-kitob	Umumiy ish haqi ming so'm
I_{hr}	$\sum(MV_{ir} \cdot MS_{ir} \cdot IHD_{ir})$	$10000 \cdot 16 \cdot 35 + 10000 \cdot 12 \cdot 32$	9440
$I_{hstari1}$	$I_{hr} \cdot K_{sh1}$	$9440 \cdot 1,08$	10195
$I_{hstari2}$	$\sum(MV_{ix} \cdot MS_{ir} \cdot IHD)$	$13300 \cdot 16 \cdot 35 + 5700 \cdot 12 \cdot 32$	9637
$I_{hstari3}$	$\sum(MV_{ix} \cdot MS_{ix} \cdot IHB)$	$13300 \cdot 15 \cdot 35 + 5700 \cdot 11,5 \cdot 32$	9080
I_{hh}	$\sum(MV_{ix} \cdot MS_{ix} \cdot IHB_{ix})$	$13300 \cdot 15 \cdot 45 + 5700 \cdot 11,5 \cdot 40$	11600

Umumiy ishlab chiqarilgan mahsulot bo'yicha ortiqcha sarf qilingan bevosita ish haqi sarfi 2160 ming so'm (11600-9440) tashkil qiladi.

Shu jumladan:

mahsulot hajmining kamayishi hisobiga;

$$\Delta IH = 10195 - 9440 = +755 \text{ ming so'm}$$

mahsulot tarkibini o'zgarishi hisobiga,

$$\Delta IH_{tr} = 9637 - 10195 = -558 \text{ ming so'm}$$

mehnat sig'imini kamayishi hisobiga;

$$\Delta IH_{MS} = 9080 - 9637 = -557 \text{ ming so'm}$$

ish haqi darajasini oshishi hisobiga;

$$\Delta IH_{IH} = 11600 - 9080 = +2520 \text{ ming so'm}$$

Xulosa: qilingan hisoblardan aniq bo'ldiki, mahsulot hajmini ko'payishi hisobiga va ish haqini darajasini oshishi hisobiga o'zgaruvchan mehnat xarajatlari $755 + 2520 = 3275$ m.s. ga ko'paygan. Lekin mahsulot tarkibini o'zgarishi hisobiga, ya'ni mehnat sig'imi kam assortimentli mahsulotdan ko'p chiqargan va mehnat sig'imini kamayishi hisobiga o'zgaruvchan mehnat xarajatlari $558 + 557 = 1115$ m.s. ga kamaygan. Shuni hisobiga haqiqatan o'zgaruvchan mehnat xarajati $3275 - 1115 = 2160$ m.s. ga ko'paygan xolos.

Mahsulot mehnat sig'imi va mehnatga haq to'lash darajasi yangi progressiv texnika-texnologiyani joriy qilish, ishlab chiqarishni mexanizatsiya-avtomatizatsiya qilish, mehnatni tashkil qilish, ishchilarning malakasini oshirishga bog'liq. Keltirilgan omillarni miqdoriga ta'sirini quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$\Delta IX_i = MV_x \cdot \Delta MS_i \cdot IXV; \quad \Delta IX = MV_x \cdot MS_x \cdot \Delta IXV$$

Masalan, eski uskunani qismini o'zgartirish hisobiga A mahsulot mehnat sig'imi 0,5 odam/soatga kamayadi. Natijada, bir dona mahsulotdan ish haqi 17,5 so'mni tashkil etadi. $(0,5 \cdot 35)$ haqiqatan hamma ishlab chiqarilgan mahsulot hajmidan esa $- 232750$ so'm. $(17,5 \cdot 13300)$ tejaladi.

Bilimni tekshirish va mustahkamlash uchun savollar

1. Mahsulot ishlab chiqarishga xarajatlar umumiy summasi tahlili uslubiyatini bayon etish.
2. Resurslar sig'imi va resurslar bahosini o'zgarishi hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxining o'zgarishi qanday aniqlanadi?
3. 1 so'mlik mahsulot uchun xarajat ko'rsatkichi qanday aniqlanadi va tahlil qilinadi?
4. Alohida mahsulot turlari tannarxini tahlil qilish uslubiyatini bayon eting.
5. a) to'g'ri (bevosita) material xarajatlar;
b) xodimlar to'g'ri (bevosita) ish haqi;
d) asosiy vositalarni saqlash xarajatlari;
e) ustama va tijorat xarajatlari miqdori o'zgarishining omillarini modelini tuzing.
6. Mahsulot tannarxini pasaytirish imkoniyatlarining asosiy manbalarini va aniqlash tartibini ayting.

**KORXONA FAOLIYATINING MOLIVAVIY NATIJALARI
TAHLILI**

10.1. Foyda tarkibi va dinamikasining tahlili

Foyda o'zining iqtisodiy mohiyati nuqtayi nazaridan korxonada daromadning bir qismi bo'lib, u korxonada ixtiyorida qolgan holda uning ehtiyojlarini moliyalash va soliq to'lovlari uchun yo'naltiriladi.

Hozirgi davrda foydaning roli va ahamiyati yanada oshib bormoqda, chunki u korxonada faoliyatini kengaytirish, texnikaviy rivojlanish va modernizatsiya qilishning yagona manbasi bo'lib qolmoqda. Shuningdek, korxonada jamoasining ijtimoiy hamda iqtisodiy masalalarini hal qilishda foydaning ahamiyatiga keng o'rin beriladi. Hozirgi sharoitlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarda foyda, kapital qo'yilmalar va aylanma mablag'lar shakllanishining bosh manbasi sifatida xizmat qilmoqda. Foyda korxonada faoliyatining barcha tomonlarini aks ettiruvchi ko'rsatkich bo'lib, uning miqdoriga mahsulot hajmi va sifati, mahsulot turi, tannarx darajasi, shtraxlar va bir qancha omillar ta'sir qiladi.

O'z o'rnida foyda, rentabellik ko'rsatkichi, korxonaning o'z aylanma mablag'lariga, to'lov qobiliyatiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Foyda hamda rentabellik ko'rsatkichlarining iqtisodiy mohiyatini e'tiborga olib ularni korxonada faoliyati samaradorligini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlar tizimiga kiritish kerak bo'ladi.

Foyda va rentabellik darajasini oshirish imkoniyatlarini aniqlash korxonada faoliyatining eng asosiy vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Buni faqatgina korxonada faoliyatini har tomonlama o'rganish, tahlil qilish asosida erishiladi. Foyda va rentabellik darajasini oshirish imkoniyatlari iqtisodiy tahlilning o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar tizimi asosida aniqlanadi. Tahlilning asosiy vazifasi bo'lib, foydaning umumiy miqdoriga va tarkibiga baho berish hisoblanadi. Bunga esa quyidagilarni amalga oshirish asosida erishiladi:


a) foyda va rentabellik darajasi bo'yicha qabul qilingan reja topshiriqlarini bajarilishini o'rganish, haqiqiy darajasidan farq qilish sabablarini hamda ushbu farqqa ta'sir qiluvchi iqtisodiy omillarni aniqlash;

b) foyda va rentabellikni oshirish imkoniyatlarini aniqlash.

Foyda va rentabellik darajasi tahlil uchun boshlang'ich ma'lumotlar bo'lib, umumiy foyda miqdori, rentabellik darajasi va mahsulot tannarxi to'g'risidagi reja topshiriqlari, buxgalteriya balansi, qabul qilingan reja topshiriqlarini bajarilishi haqidagi haqiqiy statistik ma'lumotlar hisoblanadi. Foydani tahlil qilishda uni xarakterlash uchun bir qator ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Balansda aks ettiriluvchi va yakuniy moliyaviy natija bo'lib hisoblanuvchi foyda ma'lum bir davrda barcha xo'jalik operatsiyalaridan olingan yalpi foyda hamda zarar miqdori orasidagi farqdir.

Tahlil jarayonida quyidagi mantiqiy ketma-ketlikdagi ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foyda va rentabellik ko'rsatkichlarini tahlil qilishning mantiqiy ketma-ketlik chizmasi



17-chizma.

Bu blokka kiradigan iqtisodiy ko'rsatkichlar sotilgan tovar mahsulotining hajmi («Sotilgan mahsulot hajmi, strukturasi va sifati») blokidan; sotilgan tovar mahsulotini to'la tannarxi («mahsulot tannarxi») blokidan; sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlari o'rtacha qiymati, («asosiy fondlardan foydalanish») blokidan; mehnat predmetlarini qimmati («aylanma fondlardan foydalanish») blokidan.

Yuqorida keltirilgan kiruvchi ko'rsatkichlar «foyda va rentabellik» blokini tashkil etadi, ya'ni sotilgan mahsulotdan olingan foyda va ishlab chiqarish rentabelligini shakllantiradi, «foyda va ishlab chiqarish rentabelligi» blokidan chiqadigan natijaviy ko'rsatkich yalpi foyda miqdori, korxonada ixtiyorida qoladigan foyda va ishlab chiqarish rentabellik darajasidir.

Umumiy foyda mahsulotni sotishdan tushgan foydadan hamda boshqa xo'jalik operatsiyalaridan olinadigan foydadan tarkib topadi. Ma'lumki, mahsulotni sotish hajmi ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga teng bo'lmaydi. Chunki unga bir qator omillar ta'sir qilishi mumkin.

Ularga quyidagilar kiradi:

- a) omborxonada tovarlarni ortiqcha to'planib qolishi;
- b) puli to'lanmagan yuklangan mahsulotning miqdori;
- d) mahsulot sifatining pasayishi;
- e) narxlarning o'zgarishi.

Sotilmagan mahsulot hajmining qancha kam bo'lishi sotiladigan mahsulot hajmidan olinadigan foyda bilan mahsulot ishlab chiqarishdan olinadigan foydaning mos bo'lishini ta'minlaydi.

Moliyaviy natijalarni boshqarishda iqtisodiy tahlilga katta e'tibor qaratiladi. Iqtisodiy tahlilning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:


- a) moliyaviy natijalarni shakllantirish ustidan muntazam nazorat olib borish;
- b) moliyaviy natijalarga obyektiv omillar ta'sirini aniqlash;
- d) foyda summasi va rentabellik darajasini oshirish imkoniyatlarini aniqlash va ularni prognozlashtirish;
- e) korxonaning foyda va rentabelligini ko'paytirish imkoniyatlaridan foydalanish borasidagi korxonada faoliyatiga baho berish;
- f) aniqlangan imkoniyatlarni ishlab chiqarishga joriy qilish maqsadida tashkiliy-texnikaviy va iqtisodiy tadbirlarni ishlab chiqish.

Tahlil uchun axborotlar manbai bo'lib natijalar hisobi bo'yicha buxgalterlik hisobi ma'lumotlari: «Foyda va zararlar bo'yicha hisobot», «Kapital xarakati haqidagi hisobot». Shuningdek, biznes-rejaning mos jadvallari xizmat qiladi.

Tahlilda yalpi foyda, mahsulot sotishdan olinadigan foyda, balans foyda, soliqqa tortiladigan foyda, sof foyda, taqsimlanmagan foyda kabi

ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ushbu ko'rsatkichlarni shakllantirish 18-chizmada keltirilgan.

Foydani shakllantirishning tizimli-mantiqiy modeli



18-chizma.

Yalpi foyda – tushum va sotilgan mahsulot bo'yicha to'g'ri ishlab chiqarish xarajatlari orasidagi farq.

Mahsulot sotishdan foyda – yalpi foyda va doimiy xarajatlar orasidagi farq.

Balans foyda – mahsulot, ish, xizmatni sotishdan moliyaviy xarajatlar; moliyaviy va investitsion faoliyati daromad va sarflari, sotish bilan bog'liq bo'lmagan daromad va xarajatlardan tashkil topadi.

Soliqqa tortiladigan foyda – balans foyda va daromad solig'iga tortiladigan foyda summasi, shuningdek, qonunchilik doirasida foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar summasidan tashkil topadi.

Sof foyda – barcha soliqlar, iqtisodiy sanksiyalar, turli fondlarga ajratmalarni to'lagandan so'ng korxonaga ixtiyorida qoladigan foydadir.

Taqsimlanmagan foyda – jamg'arma va iste'mol fondiga taqsimlangandan so'ng qolgan sof foydadir.

Hisobot yilida foyda rejasining bajarilishi borasidagi ma'lumotlarga asosan balans foydaning har bir tashkil etuvchisining o'zgarish omillarini asosli tahlil qilish zarur. Tahlil davrida balans foyda tarkibi, uning strukturasi, dinamikasi va rejaning bajarilishi o'rganilishi zarur (50-jadval). Foyda o'zgarishini o'rganishda inflatsiya omillarini ham hisobga olish zarur. Buning uchun tovar sotishdan olingan tushumni korxonaga mahsuloti bahosining tarmoq bo'yicha o'sish indeksiga tuzatiriladi. Tahlil qilinayotgan davrdagi resurslar iste'mol bahosining oshishi hisobiga sotilgan mahsulot bo'yicha xarajatlar kamayadi.

Hisobot yili uchun foyda rejasining tarkibi, o'zgarishi va bajarilishi tahlili

50-jadval

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil		Hisobot yili			
	Miqdori ming so'm	Sal-mog'i, %	Reja		Haqiqat	
			Miqdori, ming so'm	Sal-mog'i, %	Miqdori, ming so'm	Sal-mog'i, %
Mahsulot sotishdan foyda	7950	85,80	8287	85,0	85,46	85,9
Boshqa operatsion daromadlar	1350	14,6	1556,5	18,3	1581,0	18,6


Boshqa operatsion xarajatlar	-296	-3,2	-339,8	-4,1	-504,2	-5,9
Sotish bilan bog'liq bo'lmagan daromad	780	8,4	836,9	10,1	888,8	10,4
Sotish bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar	-520	-5,6	-621,0	-7,5	-769,1	-9,0
Foydaning umumiy summasi	9264	100	9679,6	100	10042,5	100
Foydadan soliqlar	3390,6	36,6	3542,7	36,6	3565,1	35,5
Sof foyda	5873,4	63,4	6136,9	63,4	6477,4	64,5
Ishlatilgan foyda	3186,8	34,4	1785,8	29,1	3414,5	34
Taqsimlanmagan foyda	2686,6	290	4351,1	44,95	3062,9	30,5

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, balans foyda bo'yicha reja 10,4 %ga oshirib bajarilgan. Solishtirma narxdagi o'sish sur'ati 1,1 %ga teng. Balans foydaning katta qismini, ya'ni 85,9 %ini tovar mahsulotni sotishdan olinadigan foyda tashkil qiladi. Boshqa operatsiyadan moliyaviy natijalar salmog'i faqat 12,7 % (18,6—5,9)ni tashkil qiladi, lekin bozor munosabatlarining rivojlanishi bilan asosiy yo'nalishlariga nisbatan ko'payadi.

10.2. Mahsulot sotishdan olingan foyda tahlili

Korxonalar foydaning asosiy qismini mahsulot va xizmatlarni sotishdan oladilar. Shu sababdan tahlil davomida mahsulot sotishdan olinadigan foyda rejasining bajarilishi, o'zgarishi o'rganiladi, foyda summasiga ta'sir etuvchi omillar aniqlanadi.

Foydaga ta'sir qiladigan omillarning mantiqiy-tarkibiy modeli



19-chizma.

Korxonada miqyosida olingan foyda miqdoriga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- a) mahsulot sotish hajmi (SM_{um});
- b) sotilgan mahsulot strukturasi (U_{gi});
- d) sotilgan mahsulot tannarxi (T_n);
- e) o'rtacha sotish bahosi darajasi (B_i).

$$F = \Sigma [SM_{um} \cdot U_{gi} \cdot (B_i - T_n)]$$

Mahsulot sotish hajmi foyda summasiga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Agar mahsulot zarar keltiruvchi bo'lsa, mahsulot sotish hajmining oshishi bilan foyda summasi kamayadi. Tovar mahsulot strukturasi ham foyda summasiga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Agar umumiy sotuv hajmida rentabelli mahsulot turi ko'paysa, foyda summasi ham o'sadi. Aksincha, past rentabelli mahsulot salmog'ining ko'payishi bilan foyda umumiy summasi kamayadi.

Mahsulot tannarxi va foyda o'zaro teskari proporsional bog'liqlikdadir, ya'ni tannarxning pasayishi foyda summasining ko'payishiga olib keladi va aksincha.

O'rtacha sotish baholari darajasining o'zgarishi va foyda kattaligi to'g'ri proporsionallikda bog'langan: baho darajasining oshishi bilan foyda summasi o'sadi va aksincha. Ushbu omillarning foyda summasiga ta'sirini hisoblash zanjirli almashtirish usuli bilan amalga oshirilishi mumkin. Buning uchun 5-jadval ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Mahsulot sotishdan foydani omilli tahlil uchun boshlang'ich ma'lumotlar

51-jadval

Ko'rsatkichlar	Reja	Haqiqiy hajmga qayta hisoblangan reja	Haqiqatda
Tovar, xizmatlar sotishdan tushum	$\Sigma(SM_{ip} \cdot B_{ip})=5246567$	$\Sigma(SM_{ix} \cdot B_{ip})=5504599$	$\Sigma(SM_{ir} \cdot B_{ip})=5604599$

Sotilgan mahsulot to'la tannarxi	$\Sigma(SM_p \cdot T_{np})=4584436$	$\Sigma(SM_{ix} \cdot T_{np})=4484436$	$\Sigma(SM_{ix} \cdot T_{ix})=4778475$
Foyda (F)	8287	8531	8546

Birinchi navbatda, haqiqiy hajm va boshqa omillarning reja ko'rsatkichi bo'yicha foyda summasini aniqlash lozim. Bu uchun mahsulot sotish rejasining bajarilishi foizini hisoblash, so'ngra foydalanish to'liq summasini ushbu foizga qayta hisoblash lozim. Bu misolimizda natural ifodadagi mahsulot sotish rejasining bajarilishi quyidagiga teng:

$$K_{sm} = \frac{4540}{4126} = 1,1$$

Agar boshqa omillar miqdori o'zgarmaganda edi, foyda summasi 11 %ga o'sgan va 9115,7 ming so'm ($8287 \cdot 1,1$)ni tashkil etgan bo'lar edi.

Keyingi bosqichda haqiqiy tuzilmadagi sotilgan mahsulot hajmi, rejaviy tannarx va narxlarda hisoblangan foyda summasini aniqlash lozim. Buning uchun shartli tushumdan shartli xarajat miqdori ayrib tashlanadi:

$$\Sigma(SM_{ix} \cdot B_{ip}) - \Sigma(SM_{ix} \cdot T_{np}) = 5504599 - 4484436 = 8531 \text{ m.so'm.}$$

Shuningdek, haqiqiy sotuv hajmi tuzilma va baholarda, lekin rejaviy tannarxda korxonada olish mumkin bo'lgan foyda miqdorini aniqlash lozim.

Buning uchun tushumning haqiqiy miqdoridan shartli xarajat miqdori ayrib tashlanadi:

$$\Sigma(SM_{ix} \cdot B_{ix}) - \Sigma(SM_{ix} \cdot T_{np}) = 5604599 - 4484436 = 1120163 \text{ m.so'm.}$$

Korxonada bo'yicha mahsulot sotishdan foyda summasining o'zgarishiga birinchi darajali omillar ta'sirini hisoblash

52-jadval

	Omillar				Hisob tartibi	Foyda, ming so'm
	Mahsulot hajmi	Mahsulot tuzilmasi	Bahosi	Tannarxi		
Reja	Reja	Reja	Reja	Reja	Vr-Xr	8287
Sh-1	Haqiqat	Reja	Reja	Reja	Fr-Krm	9115,7
Sh-2	Haqiqat	Haqiqat	Reja	Reja	Vsh-Xsh	8531
Sh-3	Haqiqat	Haqiqat	Haqiqat	Reja	Vx-Xsh	1120163
Haqiqat	Haqiqat	Haqiqat	Haqiqat	Haqiqat	Vx-Xx	8546

52-jadval ma'lumotlaridan kelib chiqib, har bir omil ta'sirida foyda miqdori qanday o'zgarishini aniqlash mumkin:

$$\text{Mahsulot sotish hajmi: } \Delta F_{sm} = F_{sh1} - F_r = 9115,7 - 8287 = +828,7$$

$$\text{Tovar mahsulot tuzilmasi: } \Delta F_{tuz} = F_{sh2} - F_{sh1} = 8531 - 9115,7 = +584,7$$

$$\text{Baho: } \Delta F_b = F_{sh3} - F_{sh2} = 11201,6 - 8531 = +2670,6$$

$$\text{Sotilgan mahsulot tannarxi: } \Delta F_t = F_{x1} - F_{sh3} = 8546 - 1120163 = -1111,6$$

$$\text{Jami: } 9959 \text{ ming so'm.}$$

Hisob natijalaridan ko'rinib turibdiki, foyda bo'yicha reja asosan o'rtacha sotish baholarini oshishi hisobiga oshirib bajarilgan. Tovar mahsulot tuzilmasining o'zgarishi hisobiga foyda 584,7 ming so'mga kamaygan. Mahsulot tannarxini oshishi hisobiga foyda miqdori 1103086 m.s. ga kamaygan.

10.3. Korxonada rentabellik darajasi tahlili

Rentabellik-biznesning daromadlilik darajasining nisbiy ko'rsatkichidir. Rentabellik ko'rsatkichlari korxonaning umumiy faoliyati samaradorligini, turli yo'nalishdagi faoliyatlari daromadlilikini tavsiflaydi. Ular xo'jalik yuritishning yakuniy natijalarini foydaga nisbatan to'laroq aks ettiradi, chunki ularning kattaligi samara va mavjud yoki iste'mol qilingan resurslar o'zaro nisbatini ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkichlarni investitsiya siyosati va baholash quroli sifatida korxonada faoliyatini baholashda ham qo'llaniladi.

Rentabellik ko'rsatkichini bir necha guruhga birlashtirish mumkin:

a) ishlab chiqarish xarajatlari va investitsion loyihalarning qoplanishini ifodalovchi ko'rsatkichlar;

b) sotish rentabelligi ko'rsatkichlari;

d) kapital va uning qismlari daromadlilikini belgilovchi ko'rsatkichlar.

Ishlab chiqarish faoliyati rentabelligi (xarajatlar qoplanishi) - R_x mahsulot sotishdan yoki asosiy faoliyatdan foydani sotilgan mahsulot yoki

ishlab chiqarilgan mahsulot bo'yicha xarajatlar summasiga nisbati orqali hisoblanadi.

$$R_x = \frac{F_{sm}}{X} \quad \text{yoki} \quad R_x = \frac{SF}{X}$$

Ushbu ko'rsatkich, korxonada sarflangan har bir so'm xarajatga to'g'ri keluvchi foyda miqdorini ko'rsatadi va korxonada bo'yicha umumiy hamda alohida mahsulot turlari bo'yicha hisoblanishi mumkin.

Sotish rentabelligi – R_{ay} mahsulot sotishdan olinadigan foyda miqdorini tushum miqdoriga ishlab chiqarish va tijorat faoliyati samaradorligini xarakterlaydi; har bir so'mga to'g'ri keluvchi foyda miqdorini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkich, ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida keng qo'llanilmoqda.

Korxonada miqyosida va alohida mahsulot turlari bo'yicha hisoblanishi mumkin.

$$R_{ay} = \frac{SR}{B} \quad \text{yoki} \quad R_{ay} = \frac{SF}{B}$$

Kapital rentabelligi (R_k) balans yoki sof foydasi jami investitsiya kapitalining o'rtacha yillik qiymatiga yoki uning ayrim tashkil etuvchilari: shaxsiy, qarz, asosiy, permanent, aylanma, operatsiya kapitalga nisbati bilan aniqlanadi.

$$R_k = \frac{BF}{\sum K} \quad \text{yoki} \quad R_k = \frac{SF}{\sum K}$$

Tahlil jarayonida sanab o'tilgan rentabellik ko'rsatkichlarining o'zgarishini, reja ko'rsatkichlarining bajarilishini o'rganish, raqobatchi ko'rsatkichlar bilan solishtirish lozim.

Korxonada bo'yicha hisoblangan ishlab chiqarish rentabelligi darajasi I tartibli 3 ta asosiy omilga bog'liq bo'ladi:

- a) sotilgan mahsulot tuzilmasining o'zgarishi;
- b) sotilgan mahsulotning tannarxini o'zgarishi;
- d) o'rtacha sotish baholarining o'zgarishi.

Ushbu ko'rsatkichning omillari tahlili quyidagi formula asosida amalga oshiriladi:

$$R_x = \frac{F_{sm} = \int (SM_{um} \cdot U_{\partial_i} \cdot B_i \cdot T_i)}{X_r = \int (SM_{um} \cdot U_{\partial_i} \cdot T_i)}$$

Yuqorida sanalgan 1-darajali omillarning rentabellik darajasining o'zgarishiga ta'sirini zanjirli almashtirish usuli bilan, foyda va tannarx borasidagi ma'lumotlardan foydalanib hisoblash mumkin.

$$R_p = \frac{F_p \cdot (SM_{yap} \cdot U_{\partial p} \cdot B_p \cdot T_p)}{X_p \cdot (SM_{yap} \cdot U_{\partial p} \cdot T_p)} = \frac{8287}{4778475} \cdot 100 = 17,3;$$

$$R_{u1} = \frac{F_{u1} \cdot (SM_{yax} \cdot U_{\partial x} \cdot B_p \cdot T_p)}{X_{u1} \cdot (SM_{yax} \cdot U_{\partial x} \cdot T_p)} = \frac{8247}{5048438} \cdot 100 = 16,3;$$

$$R_{u2} = \frac{F_{u2} \cdot (SM_{yax} \cdot U_{\partial x} \cdot B_p \cdot T_p)}{X_{u2} \cdot (SM_{yax} \cdot U_{\partial x} \cdot T_p)} = \frac{8531}{5051368} \cdot 100 = 16,9;$$

$$R_{u3} = \frac{F_{u3} \cdot (SM_{yax} \cdot U_{\partial x} \cdot B_x \cdot T_p)}{X_{u3} \cdot (SM_{yax} \cdot U_{\partial x} \cdot T_p)} = \frac{29403}{4778048} \cdot 100 = 61,3;$$

$$R_x = \frac{F_x \cdot (SM_{yax} \cdot U_{\partial x} \cdot B_x \cdot T_x)}{X_{u3} \cdot (SM_{yax} \cdot U_{\partial x} \cdot T_x)} = \frac{8546}{4886401} \cdot 100 = 17,5.$$

$$\Delta R_{um} = R_x - R_r = 17,5 - 17,3 = 0,2\%$$

$$\Delta R_{sm} = R_{sh1} - R_r = 16,3 - 17,3 = -1\%$$

$$\Delta R_{ud} = R_{sh2} - R_{sh1} = 16,9 - 16,3 = 0,6\%$$

$$\Delta R_B = R_{sh3} - R_{sh1} = 61,3 - 16,9 = 44,4\%$$

$$\Delta R_t = R_x - R_{sh3} = 17,5 - 61,3 = -43,2\%$$

Hisob natijalaridan xulosa qilish mumkinki, rentabellik darajasi reja o'rtacha baho darajasining oshishi, yuqori rentabelli mahsulot salmog'ining ko'payishi hisobiga oshirib bajarilgan. Sotilgan mahsulot tannarxining 194039,1 ming so'mga ko'payishi rentabellik darajasi – 44,4 %ga pasayishiga sabab bo'lgan. Xuddi shu tartibda har bir mahsulot turi bo'yicha omilliy tahlil amalga oshiriladi.

Alohida mahsulot turlari rentabelligiga baho va tannarx o'zgarishining ta'sirini 53-jadval ma'lumotlari asosida ko'rib chiqamiz.

Alohida mahsulot turlari rentabelligining omillar bo'yicha tahlili

53-jadval

Mahsulot turlari	Baho, so'm		Tannarx, so'm		Rentabellik, %			Rentabellikning o'zgarishi		
	Reja	Haq	Reja	Haq	Reja	Shart	Haq	Jami	Jumladan hisobiga	
									Baho	Tannarx
A	5,0	6,0	4,0	4,8	25	44	25	-	+19	-19
B	3,1	3,7	2,6	3,1	19,2	42,3	19,4	0,2	+23,1	-22,9

53-jadvaldan qaysi tur mahsulotlari daromadliroq, rentabellik darajasi bo'yicha reja qanday bajarilgan va bunga qanday omillar ta'sir ko'rsatganligini bilish mumkin.

Shuningdek, o'rtacha baholar darajasining o'zgarishi sabablarini chuqurroq o'rganish va proporsional bo'lish usuli orqali ularning rentabellik darajasiga ta'sirini hisoblash lozim.

O'rtacha sotish baholarini o'zgartiruvchi omillar

54-jadval

Ko'rsatkichlar	O'rtacha bahoning o'zgarishi, so'm		Foyda summasining o'zgarishi, ming so'm	
	A-mahsulot	B-mahsulot	A-mahsulot	B-mahsulot
Mahsulot sifati	+70,0	+150	+878,2	+295,2
Sotish bozori	+53,6	—	+672,5	
Sotish muddatlari	-60,0	-75	-752,7	-442,8
Inflatsiya	+936,4	+625	+11748	+3690

Jami:	+1000	+600	+1254,6	+3542,4
-------	-------	------	---------	---------

«A» mahsulot rentabellik darajasining o'zgarishiga o'rtacha sotish bahosi darajasini belgilovchi omillar ta'sirini hisoblash

55-jadval

Omil	Bahoning o'zgarishi, so'm	Rentabellikning o'zgarishi, %
Mahsulot sifati	+70,0	+1,33
Sotish bozorlari	+53,6	+1,01
Sotish muddatlari	-60,0	-1,14
Inflatsiya	936,4	+17,8
Jami	1000	+19,0

So'ngra, mahsulot birligi tannarxi qanday omillar ta'sirida o'zgarganligini aniqlash va xuddi shu usul orqali ularning rentabellik darajasiga ta'sirini o'rganish lozim. Bunday hisoblar har bir mahsulot bo'yicha amalga oshiriladi va xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatiga aniq baho berish imkoniyatini beradi.

Bilimni tekshirish va mustahkamlash uchun savollar

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida foydalanish ahamiyati.
2. Foyda ko'rsatkichining boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan aloqasi
 3. Foydaga ta'sir etuvchi tashqi omillar ahamiyati.
 4. Foydaga ta'sir etuvchi ichki omillar ahamiyati.
 5. Mahsulot tannarxining foydaga ta'sirini aniqlash.
 6. Balans foyda tahlili.
 7. Foyda tuzilmasi tahlili.
 8. Mahsulot assortimenti va sifatining o'zgarishi foyda summasiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
 9. Moliyaviy natijalar tahlilining asosiy vazifasi va manbalarini ayting.
 10. Foydaning asosiy ko'rsatkichlari va ularning hisoblash tartibini izohlang.
 11. Mahsulot sotishdan olinadigan foyda summasining o'zgarishiga omillar ta'sirini hisoblash usulini tushuntiring.
 12. O'rtacha sotish narxlar darajasini qanday omillar belgilaydi va ularning ta'siri qanday hisoblanadi?
 13. Rentabellikning asosiy ko'rsatkichlarini va ularning hisoblash usulini tushuntiring.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qonunlar, farmonlar, qarorlar va Prezident I.A. Karimovning asarlari.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T. «O'zbekiston», 1993-yil.
3. O'zbekiston Respublikasi «Mehnat kodeksi», 1995-yil 21-dekabr.
4. «O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonun, 1996-yil 30-avgust.
5. «Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2005-yil 14-iyun.
6. «Past rentabelli zarar ko'rib ishlayotgan iqtisodiy nochor davlat korxonalarini va obyektlarini xususiyashtirishni jadallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbir to'g'risida» 2003-yil.
7. O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2007-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlari. «Xalq so'zi» gazetasi, 2007-yil 13-fevral.
8. E.A. Akromov. Korxonalarining moliyaviy holati tahlili. T. «Moliya», 2005-yil.
9. I.T. Abdulkarimov. «Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari», Toshkent, 1999-yil.
10. A.V. Vahobov, A.T. Ibragimov. Moliyaviy tahlili. T., «Sharq» 2002-yil.
11. A.V. Vahobov, A.T. Ibragimov, U.K. Yoqubov. Boshqa tarmoqlarda iqtisodiy tahlil xususiyatlari. T., 2004-yil.
12. M.Yo. Pardayev, I.T. Abdulkarimov. Iqtisodiy tahlil T., «Mehnat», 2004-yil.

13. Г.Артеменков, М. В.Беландир. «Финансовый анализ» учебное, пособие – М Н Г А Эи У, 1997.
14. М.И. Баканов, А.Д. Шеремет. «Теория экономического анализа» М: Финансы и статистика, 1999.
15. Г.В. Савицкая. «Анализ хозяйственной деятельности предприятие». Минск И.П. «Новое знание». 2001.
16. Г.В. Савицкая. «Методика комплексного анализа хозяйственной деятельности». М: Инфра – м, 2001.
17. Г.В. Савицкая. «Анализ хозяйственной деятельности предприятие». Учебник М. Инфра – М. 2002.
18. Н. А. Русак. Экономический анализ деятельности преработывающих предприятий АПК М Агропромизда Т., 1990.
19. М.К. Pardayev, A.X.Shoyalimov. «Boshqaruv tahlili» o‘quv qo‘llanma. T., «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyoti, 2005-yil.
20. М.И. Баканов, А.Д. Шеремет. «Экономический анализ: ситуаций, тесты. Примеры: Задачий, выбор оптимальных решений, финансовое прогнозирование» М: Финансы и статистика 2004.
21. Е. Ergashyev. «Iqtisodiy va moliyaviy tahlil». «Moliya», 2000.
22. Л.Н. Павлова. «Финансовый менеджмент». «МЮНИТ – ДАНА», 2001.
23. S.S. G‘ulomov. «Investitsiyalarning loyihaviy tahlili» T., 1998-yil.
24. A.X.Shavlimov, Sh.A.Tojiboyeva. Boshqaruv tahlili, o‘quv qo‘llanma TDIU, 2003-yil.
25. Хотиниский Г. И., Хоритоновна Т. В. Анализ хазяйственной деятельности предприятия. М., «Дело и сервис» 2004.
26. Экономика предприятия: Учебник для вузов В.Я. Горфинкель, Е. М. Куприянов и др. М: Банки и биржи, ЮНИТИ, 1996.
27. Экономика предприятия: Учебник (Под ред. О. И. Волкова) М., Инфра – М 1997.

28. M.M. Irmatov, M.T. Haydarov. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni prognozlashtirish. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamg'armasi nashriyoti T., 2004-yil.

29. A. Ortiqov. Sanoat iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti T., 2004-yil.

30. А.И. Сиваков. «Анализ хозяйственной деятельности предприятия». Учебник. М. Инфра - М., 2002.

31. А.И. Сиваков, Е.К. Фраукина. «Практикум по анализу финансово — хозяйственной деятельности». Ростов на Дону. Феникс, 2001.

Mundarija

Kirish.....	3
-------------	---

1-bob

Xo'jalik faoliyati tahlili predmeti, ahamiyati va vazifalari

1.1. Xo'jalik faoliyati tahlili tushunchasi, mazmuni, roli va vazifasi.....	4
1.2. Tahlilning asosiy yo'nalishlari va turlari.....	8
1.3. Xo'jalik faoliyat tahlili predmeti va obyekti.....	10
1.4. Xo'jalik faoliyat tahlilining boshqa fanlar bilan aloqasi	11
1.5. Iqtisodiy tahlilga qo'yiladigan asosiy talablar.....	11

2- bob

Xo'jalik faoliyati tahlilining uslub va uslubiyati

2.1. Xo'jalik faoliyatini tahlil qilish usuli va uning xarakterli xususiyatlari.....	14
2.2. Kompleks iqtisodiy tizim o'tkazishda ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish zaruriyati.....	15
2.3. Iqtisodiy tahlil uslubiyati mazmuni va vazifasi	18
2.4. Xo'jalik faoliyatini tahlilida ishlatiladigan usullar mazmuni va uslubiyati.....	20

3- bob

Xo'jalik faoliyati tahlilini tashkil qilish va uni ma'lumotlar bilan ta'minlash

3.1. Xo'jalik faoliyati tahlilini tashkil etishning asosiy tamoyillari va uning bosqichlari.	29
3.2. Xo'jalik faoliyati tahlilini ma'lumotlar bilan ta'minlash.....	31

4 -bob

Mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bo'yicha rejalarni bajarilishi tahlili

4.1 Mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish rejasining bajarilishiga baho berish.....	33
4.2 Mahsulot ishlab chiqarish dinamikasi tahlili.....	38
4.3. Mahsulot assortimenti va tuzilmasi bo'yicha rejani bajarilishi tahlili.....	40
4.4. Mahsulot sifati va unga ta'sir qiladigan omillarning tahlili.....	43
4.5. Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligi tahlili.....	46
4.6. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmini oshishiga ta'sir etuvchi omil va zaxiralarini aniqlash va tahlil qilish usuli	48

5-bob

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish rejasi bajarilishiga mehnat ko'rsatkichlari ta'siri tahlili

5.1 Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sir qiladigan omillar tavsifi.....	52
5.2. Korxonani ishlab chiqarish xodimlari bilan ta'minlanganlik darajasini tahlili	55
5.3. Ishchilarning malaka darajasini xarakterlovchi ko'rsatkichlar tahlili	57
5.4. Ish vaqtidan foydalanish darajasi tahlili	59
5.5. Mehnat unumdorligi rejasini bajarilishini tahlili.....	63
5.6. Mehnat ko'rsatkichlarini mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sirini aniqlash	67
5.7. Mehnat resurslaridan samarali foydalanish ko'rsatkichlarini tahlili.....	68

6- bob

Korxonaning asosiy fondlar bilan ta'minlanish darajasi va ulardan samarali foydalanish tahlili

6.1. Korxonaning asosiy fondlar bilan ta'minlanish darajasini tahlili.....	71
6.2. Ishlab chiqarish fondlarining holatini tahlili.....	74
6.3. Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini tahlili.....	76

6.4. Asosiy fondlardan samarali foydalanish darajasiga ta'sir qiladigan omillar tahlili	79
6.5. Aktiv asossiy fondlardan foydalanish darajasini tahlili.....	85

7-bob

Korxonani moddiy resurslar bilan ta'minlanish darajasi va ulardan samarali foydalanish tahlili

7.1. Korxonani moddiy resurslar bilan ta'minlanish darajasi tahlili....	89
7.2. Moddiy-texnika ta'minot ko'rsatkichlarini bajarilishini tahlili.....	92
7.3. Moddiy resurslardan samarali foydalanish ko'rsatkichlari tahlili.....	95

8- bob

Mahsulot tannarxi tahlili

8.1. Mahsulot tannarxi tahlilining maqsadi va vazifasi.....	100
8.2. Haqiqatan ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxini umumiy holda, elementlari va tarkibi bo'yicha tahlili	100
8.3. O'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlarga omillar ta'sirini tahlili.....	105
8.4. Ishlab chiqarilgan mahsulotni bir so'miga ketgan xarajatlar tahlili.....	107

9-bob

O'zgaruvchan moddiy va mehnat xarajatlarini tahlili


9.1 O'zgaruvchan moddiy xarajatlarga ta'sir qiladigan omillarni tahlili.....	112
9.2. O'zgaruvchan mehnat xarajatlarga ta'sir qiladigan omillarni tahlili.....	116

10- bob

Korxonona faoliyatining moliyaviy natijalari tahlili

10.1. Foyda tarkibi va dinamikasini tahlili	120
10.2. Mahsulot sotishdan olingan foyda tahlili	126
10.3. Korxonona rentabellik darajasi tahlili	130
Foydalanilgan adabiyotlar.....	135

QAYDLAR UCHUN



A.QOSIMOV, G.DAVLATOVA

XO‘JALIK FAOLIYATI TAHLILI

Toshkent – «ALÒQACHI» – 2007

Muharrir: A. Eshov
Texnik muharrir: A. Moydinov
Musahhiha: G. Karimova
Sahifalovchi: N.Hasanova

Bosishga ruxsat etildi 15.08.2007. Bichimi 60x84 ¹/₁₆.
«TimesUZ» garniturasini. Ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 9,0. Nashr bosma tabog‘i 10,0
Adadi 1000. Buyurtma №3.

**«Aloqachi matbaa Markazi» bosmaxonasida chop etildi.
700000, Toshkent sh., A. Temur ko'chasi, 108-uy.**